

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRILIGI

S.K.Djumayeva, Sh.I.Botirova

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT
«ISHONCHLI HAMKOR»
2021

UO‘K: 821.512.133.09

KBK: 83.3(5O‘zb)

D 46

Djumayeva, S.K., Botirova, Sh.I.

O‘zbek adabiyoti tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / S.K. Djumayeva, Sh.I. Botirova. -Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. - 112 b.

O‘quv qo‘llanma o‘zbek mumtoz adabiyotining qadimgi davrlaridan Alisher Navoiy ijod qilgan davrgacha bo‘lgan adabiy merosni yoritish, o‘zbek mumtoz adabiyotining genezisi, shakllanishi va taraqqiyoti, uning diniy-tasavvufiy va ilmiy manbalari, mumtoz she‘riyatga xos bo‘lgan xususiyatlar, mumtoz adabiyotda badiiy uslub tushunchasi masalalariga bag‘ishlangan. Shuningdek, unda islomgacha bo‘lgan davr adabiyoti, o‘rxun yozuvidagi yodgorliklar, ularning yozuv xususiyatlari xususidagi qarashlar ham o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-sonli buyrug‘iga asosan 5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talablari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7091-5-7

KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyoti uzoq tarixiy-tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Xalq og'zaki ijodi, fors-tojik va arab adabiyotlari ta'sirida ushbu adabiyotda turli yo'nalishlar paydo bo'ldi. Qur'oni karim va Hadisi sharifdagi axloqiy-ta'limiy qarashlar ham adabiyotga ta'sir ko'rsatib, unda nasihat ruhining kuchayishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda yosh avlod o'zbek mumtoz adabiyotining milliy madaniyatimiz tarixi va takomilidagi o'rni, adabiy hodisalar, badiiy va ilmiy asarlarning jamiyat, millat va shaxs hayotidagi ahamiyatiga asosiy e'tiborni qaratgan holda mumtoz adabiyot taraqqiyotining asosiy bosqichlari, mumtoz adabiy janrlarning shakllanishi va takomili, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi davrlarining o'ziga xos jihatlarini ham o'rganishi lozim. Shuning uchun ham ushbu o'quv qo'llanmada ana shu jihatlariga alohida e'tibor berildi. Shuningdek, janrlar poetikasi, she'r sistemasining umumiy qonuniyatlari, badiiy san'atlarning hosil bo'lish yo'llari va mumtoz she'riyatda qo'llanish usullari, mumtoz shariyatda qofiya va radifning tutgan o'rni, mumtoz nazmiy asarlar matni ustida ishlash, mumtoz asarlar uchun tuzilgan lug'atlardan foydalanish, tasavvufiy istilohlar ma'nosini tushunish, o'zbek adabiyoti tarixida qo'llangan timsollar va ramzlar mohiyatini anglash ham bo'lajak mutaxassis uchun juda zarur ko'nikmadir.

O'zbek mumtoz adabiyotining shakllanib, taraqqiy etishida forsiy adabiyot, arab adabiyoti va boshqa manbalar o'z ta'sirini o'tkazgan. Qur'on g'oyalari, Hadisi sharifda bayon etilgan fikrlar badiiy asarlarga ko'chgan. Forsiy va turkiy adabiyotlar o'zaro aloqador, ularning ildizlari ham mushtarak. Diniy mazmundagi, jumladan, payg'ambarlar tarixiga bag'ishlangan kitoblar, avliyo va shayxlar hayotini aks ettiruvchi tazkiralar ushbu adabiyotlar taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Mumtoz adabiyotda qissaxonlik yo'nalishida, maishiy mazmundagi "Ming bir kecha", "To'tinoma" kabi asarlar ham e'tiborni tortadi. Ular bilan bir qatorda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" singari didaktik yo'nalishdagi asarlar, irfoniy ishq falsafasi g'oyalarini targ'ib etuvchi Abu Ali ibn Sinoning "Tayr" qissasi, "Salomon va Ibsol" kabi asarlar yuzaga keldi. Ushbu adabiyotda xalq kitoblarining o'rni ham o'ziga xos.

Ayniqsa, Sharqda keng tarqalgan o'ziga xos ta'limot – tasavvuf mumtoz adabiyotga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. IX asrdan boshlab islom olamida so'fiylik (yoki darveshlik) harakati avj oldi. So'fiylarning axloqi, Xudoga cheksiz muhabbat bilan yashab, haqiqat va adolat, poklik va taqvonni targ'ib etishlari, kashfu karomati, ajoyib xislatlari odamlarga ta'sir etib, jamiyat fikrini band etadi. El orasida ularga ehtirom kuchayadi, ularning g'oyalari haqsevar insonlar qalbidan chuqur joy oladi. Natijada ham amaliy harakat (tariqat), ham nazariy-falsafiy ta'limot sifatida ko'ringan tasavvuf badiiy adabiyotga kuchli ta'sir ko'rsatdi, alohida sufiyona adabiyot yuzaga keldi. XI asrdan keyingi arab, fors va turkiy adabiyotning aksar namunalari u yoki bu darajada tasavvuf g'oyalari bilan sug'orilgan va tasavvuf timsollari, ramzlari, ishoralari bilan to'ldirilgandir. Ming yillik tarixga ega o'ziga xos bu adabiyotni tushunish uchun tasavvufni yaxshi bilmoqlik shart. Shu maqsadda bo'lajak o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarga mumtoz adabiyotning asosiy yo'nalishlari haqida, uning muhim yo'nalishi hisoblangan tasavvuf adabiyoti va tasavvuf ta'limotini o'rgatish zarurati bor.

Ushbu kursda mumtoz adabiyotning asosiy yo'nalishlari, unda muhim hisoblangan tasavvuf adabiyotining asosi – tasavvufning paydo bo'lish tarixi, rivoji, mohiyati, tushuncha va istilohlari ham o'rganiladi. Talabalarga so'fiyona adabiyotning o'ziga xos jihatlari o'rgatiladi, bu adabiyot timsollarini bilib, ma'nolarini anglashga ko'maklashiladi. Sir emas, mumtoz she'riyatimizda kuylangan may, yor, ma'shuqa, zulf, lab, sarv va yana yuzlab so'z va iboralar so'fiyona ma'noga ega. Bu so'zlarning ma'nosini yaxshi bilmasdan adabiyotimizning dengizday bepoyon ma'nolarini anglayolmaymiz. Ushbu qo'llanma mumtoz adabiyotni o'rganishdagi ana shu kemptiklarni to'ldirishga xizmat qiladi.

MUMTOZ ADABIYOT GENEZISI, SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI

Adabiyot tarixi insoniyat tarixining bir qismi sifatida tushuniladi. Insoniyat tarixi esa bir necha turlarga: fuqarolik tarixi, davlatchilik tarixi, madaniy tarix va boshqalarga bo'linadi. Madaniyat tarixi esa san'at tarixi, shaharsozlik tarixi kabi qismlarga bo'linadi. Madaniyat tarixining eng unumli sohalaridan biri – san'at tarixidir. Bu tarix, o'z navbatida, san'atning turlaridan kelib chiqib: musiqa tarixi, rassomchilik tarixi, haykaltaroshlik tarixi, raqs tarixi... qatorida Badiiy adabiyot (san'atning turi sifatida), ya'ni Adabiyot tarixiga ham bo'linadi. Demak, u xalq madaniyat tarixining harakatdagi muayyan bir qismi sifatida anglashiladi. Adabiyot tarixi ilk badiiy asarlar (dastlab og'zaki shaklda mifik tafakkur asosida yaratilgan)dan tortib hozirga qadar yarailgan adabiy-badiiy asarlarga, ya'ni adabiy ma'naviy merosga nisbatan qo'llaniladi.

Adabiy asarlar yakka shaxslar tomonidan yaratilgan bo'lsa ham yozuv hali shakllanmagan dastlabki davrlarda jamoaviy xarakterga ega bo'lgan. Ya'ni, bir iste'dod tomonidan yaratilgan badiiyat namunalari og'izdan-og'izga o'tishi bilan boyigan, sayqallangan va anonimlashgan, natijada jamoaviy xarakter kasb etgan. Shunday ekan, adabiy asarning yaratuvchisi bir shaxs bo'lishi mumkin, lekin badiiy adabiyotning yaratuvchisi bir shaxs bo'lolmaydi. Adabiyot xalq tomonidan yaratiladi. Qaysi xalq vakillari iste'dodliroq bo'lsa, ular o'z iste'dodiga yarasha kuchliroq asarlarni ertaroq yaratganlar. Adabiyot tarixi, demak, jamiyat tarixi tarkibida tushuniladi.

Adabiyot tarixini o'rganishni yengillashtirish, har bir tarixiy davrning mohiyatiga chuqurroq kirib borish va o'sha zamonda yashagan adiblar ijodini to'laroq anglash maqsadida davrlashtirish tushunchasiga murojaat etiladi. Uning istilohlari va tamoyillari ishlab chiqiladi.

“Davrlashtirish” tushunchasi yoki bu tushunchani tashigan istiloh umumiy tarixning boshqa sohalariga nisbatan qo'llangani kabi adabiyot tarixiga nisbatan ham qo'llaniladi. Shuning uchun “davrlashtirish” deyilganda, uning predikati sifatida milliy adabiyot tarixini davrlashtirish deb ishlatiladi.

O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish borasida Abdurauf Fitrat, Miyonbuzruk Solihov, Vohid Zohidov, Natan Mallayev, Aziz Qayumov,

Begali Qosimov va boshqa ustozlarning tasniflari mavjud. Badiiy adabiyot tarixiy davrlarining chegaralari ham adabiy hodisalar asosiga quriladi. Adabiy hodisani yuzaga chiqaruvchi ob'ekt adabiy asar bo'lsa, uning yaratuvchisi adabiy siymo hisoblanadi. Shuning uchun ham har qanday adabiy davr mana shu ikki tushuncha bilan bog'liq holda iste'foda etilishini nazarda tutib, ayrim adabiy asar (mas. "Avesto", yoki "Qutadg'u bilig") yoki adabiy siymo (mas., Alisher Navoiy davri ilmiy istilohda bor) davr tushunchasini belgilashda muayyan rol o'ynaydi.

Shularni inobatga olgan holda, adabiyotimiz tarixining dastlabki katta davriy umumlashmasi mumtoz adabiyot shakllangunga qadar kechgan adabiy hodisalar alohida o'rgannilishi kerak. Bunda eng qadimgi davrlardan boshlab Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asariga kirgan ulug' turkshunos olimga zamondosh bo'lgan adiblarning asarlarigacha qamrab olinishi lozim.

Ikkinchi davriy umumlashma sifatida mumtoz adabiyotning shakllanishi va taraqqiyoti olinadi. Bu "Qutadg'u bilig"ning yaratilishi davridan XX asr boshlarigacha, to'g'rirog'i, "Padarkush" dramasiining sahnaga chiqishiga qadar davom etadi.

Uchinchi davriy umumlashma jadid adabiyoti bilan boshlanib, XX asr adabiyotini to'la qamrab olgan holda, Istiqlol davri adabiyotini ham o'z tarkibiga olib, hozirgi kunga qadar ham davom etadi. Bu Yangi adabiyot umumiy istilohi bilan o'rganiladi. Bu o'rinda har bir davriy umumlashma adabiy-tarixiy davrlarga bo'linishi mumkin.

Adabiyotshunos olim H.Boltaboyevning darvlashtirish masalasidagi qarashlariga ko'ra, barcha turkiy tildagi manbalar va jahon tillaridagi ilmiy adabiyotlarning tan olishicha, o'zbek (turkiy) mumtoz adabiyotining nisbatan shakllangan, e'tirof etilgan mashhur namunasi - "Qutadg'u bilig"dir. Shunga ko'ra, mumtoz yozma adabiyotning bevosita shakllanish davrini Yusuf Xos Hojib Bolosog'uniy asarining tug'ilishidan belgilash lozim bo'ladi. "Qutadg'u bilig"dan to "Padarkush" dramasiigacha bo'lgan davrda yaratilgan barcha asarlar mumtoz adabiy qonuniyatlar va kategoriyalar asosida yaratilgan. Bu oraliqdagi asarlarda til birligi, yozuv birligi, hatto she'riy asarlarda vazn birligi va yagona qofiya tizimi mavjud. Shuning uchun davrlashtirishda muhim omillarni izlaganda, Til birligi (davlat tili masalasi), Yozuv birligi (arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvi), E'tiqod birligi (islom), Ifoda shakllari

birligi (nasr, nazm), Yozma adabiyotda mavjud janrlar birligi (aruz – nazm, nahv – nasr), Qofiya tizimi birligi, Poetik vositalar birligi, Hudud birligi kabi jihatlarini alohida o'rganish asosida davrlashtirish xususida qat'iy fikrga kelish mumkin.

MUMTOZ ADABIYOTNING DINIY-TASAVVUFIIY VA ILMIY MANBALARI

Islom madaniyatining Makkasi va barcha musulmon xalqlarning nurafshon ramzi Qur'oni karim o'zining o'n to'rt asrlik tarixi davomida qanchadan-qancha mamlakatlar va allomalar taqdirida tutgan o'rni, badiiy ta'sir sarchashmalari va nufuzi tufayli chuqur ilmiy va diniy tahlil va tadqiqotlarga sazovordir. Qur'on mavzulari islom dinini qabul etgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va adabiy aqidayu an'analar bilan uzviy ravishda bog'landi. Islom dini va mahalliy urf-odatlar to'qimasi asosida o'zbek adabiyoti va ilmining shoh asarlari yaratildi.

O'zbek adabiyotining taraqqiyoti va unga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash uchun Sharq adabiy jarayonini nazarda tutish lozim. Mazkur jarayon esa islomiy mavzular bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Qur'on kalimalari va iboralarini chuqur tushunishni taqozo etadi. Sharq milliy an'analarining o'ziga xosligi islom adabiyotining avval arab, keyin fors va nihoyat turk, jumladan, o'zbek tilidagi rivojida namoyon bo'ladi.

Arab va noarab (asosan forsiy va turkiyzabon) adabiy oqimlarning to'qnashuvi, o'zaro singib borishi va o'zaro ta'siri jarayonida musulmon adabiyotlararo mushtaraklik vujudga keladi va jahon adabiyoti matnida o'ziga xos va G'arb adabiyotiga ham ta'sir o'tkazuvchi mavqe'ini shakllantiradi.

Arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan islom adabiyotidan qay biri ustun, degan savol noo'rindir. Har bir tilda yaratilgan milliy adabiyot o'ziga xos qirralarga ega bo'lib, muayyan davrda yuksalishi ushbu tilning davlat tili maqomiga ko'tarilishiga ham bog'liq bo'lgan. Ammo bu adabiyotlar uchun xos bo'lgan asosiy jihat umumislom bo'lmish Qur'oni karim tilida ijod etish va Qur'on mavzularidan keng foydalanishdir. Musulmon adiblari qay millat vakili bo'lishidan qat'i nazar, avvalambor yagona ummat a'zolari edi. Milly nuqtayi nazardan

ularning ijodida milliy xususiyatlar Qur'onda o'z ifodasini topgan umumislom va umuminsoniy bashoratlar bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi.

X asrda arab xalifaligi hududlarida barpo etilgan turli tildagi adabiyotlarda milliy ohanglar kuchayishi tabiiy hol edi. Ammo mazkur davlatlar islom bayrog'ini tuban tutmaganligi va diniy e'tiqod xalq orasiga singib bo'lgani tufayli islom yo'nalishi sayozlashmadi, aksincha, to'siqlarni yengib, kuchayib bordi. Shu sabab arab xalifaligi yemirila boshlagandan keyin ham yagona islom madaniyati va adabiyoti nihoyasiga yetmadi, balki yangi tarmoqlar sari rivojlanib, qur'oniylar ohanglar kuchayib bordi. Alohida olingan milliy adabiyotlar ravnaqi islom adabiyotining hayotbaxshligini ta'minladi.

Sharq va keng ko'lamda jahon adabiyoti tarkibida o'zbek adabiyoti ham Qur'onni asrlar davomida turlicha o'zlashtirgan va uning mavzulari asosida tuhfa asarlar yaratilgan. Qur'onning matni o'n to'rt asr davomida o'zgargani yo'q. Aksincha, undagi iboralar turli tillarga singib o'tib, o'ziga xos qur'oniylar iboralar sifatida turli xalqlarning maqol va matallariga asos soldi. Bir so'z bilan olam-olam ma'noni ifodalovchi iboralar jilolanib, tarix nafasi jonlandi. Qur'oniylar iboralarining o'zbek adabiyoti, maqol va matallaridagi salmoqli o'rnini ko'rsatuvchi qomus yaratish hali soha vakillari oldida turgan savobli va barakali ishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Darhaqiqat, Qur'on matni o'zgarmagan, islom dinini qabul etgan xalqlar tarixi zamon zayli bilan o'zgarib borgan. Qur'on matni zamon va makonda mahalliy tarixiy muhit bilan mutaassir bo'lib, har bir xalq taraqqiyotining muayyan davrida o'ziga tegishli xulosalar chiqargan, qur'oniylar mavzularni adabiy asarlarga kiritgan. Mazkur jarayon natijasida milliy adabiyotning Qur'on matni bilan sintezi asosida badiiy va diniy-didaktik asarlar yaratilgan.

Misol tariqasida Abu Ali ibn Sinoning bir ruboiysiga e'tibor qarataylik:

Shul xoki siyozuden to avji Zuh,
Har nechaki mushkulot erur, etdim hal.
Ochdim necha zanjir zanjiri makru hiyal,
Yechdim necha bir tugun, magar qoldi ajal...

Ruboiyning so'nggi misrasidagi tugunni yechish uchun Qur'oni karim 113-surasi quyidagi 4-oyatini bilishimiz lozim: "Tugunlarga

dam solguvchi (jodugar)larning yomonligidan (Alouddin Mansur tarjimasi)”. Qur’oni karim tafsirlarida aytilishicha, Muhammad (s.a.v.) ning ishlari yurishmay qolib, kasal bo’ladilar. Shunda ma’lum bo’ladiki, bir yahudiyning ikki qizi arqonga o’n bitta tugun boylab, payg’ambarga qarshi jodu-sehr qilib quduqqa tashlagan ekan. Payg’ambar 113-surani o’n bir marotaba o’qiydilar. Har bir o’qiganlarida bittadan tugun yechiladi. Nihoyat, o’n birinchi tugun yechilib, ishlari o’nglanadi. O’z ruboiysida Ibn Sino o’sha tugunlarga ishora qilmoqda: “Yechdim necha bir tugun, magar qoldi ajal...”

O’lkamizda yaratilgan barcha asarlar o’zbek madaniyatining va islom dunyosining ma’naviy boyligidir. Qur’oni karim oyatining karomati shu tariqa amalga oshadi. Darhaqiqat, Olloh taolo nazdida barcha xalqlar barobardir va eng taqvodori tahsinga sazovordir. Al-Asqariy aytganidek: “She’riyatda, eng muhimi – yangi she’riy mavzu topish emas, chunki bunga arab ham, o’zga yurtlik ham, shaharlik ham, ko’chmanchi ham bir xilda qodir. Qay tariqa ifodalanishi muhim”.

Yevropalik olimlar doim Gyotening bu borada aytgan so’zlarini qaytarishadi: “Eng muhimi “nima” emas, balkim “qanday”. Gap turli adiblar tomonidan bir xil mavzularning ishlatilishi haqida ketmoqda. Syujet bir xil bo’lishi muhim emas, eng muhimi – uni qay darajada mahorat bilan ifodalanishida. Ko’rib turibmizki, bu fikrni Gyotedan ilgari musulmon mutafakkiri aniq ifodalab bergan.

Mavlono Rumi y bir ruboiysida yozadi:

Man bandai Qur’onom agar jon doram,

Man xoki rohi Muhammadi muxtoram.

Gar naql kunad juz in kas guftoram,

Bezoram az-o’-vu z-on suxan bezoram.

Mazmuni: Agar jonim bor ekan, men Qur’onga bandaman, uning asiriman. Men sohibixtiyor Muhammad yo’lining tuprog’iman. Birov mening so’zimni bundan boshqacha naql etsa, o’sha kishidan ham, uning so’zlaridan ham bezorman. Rumiyning ushbu e’tirof so’zlarini Sharqning ko’p ulug’ san’atkorlariga nisbat berish mumkin. Chunki ularning aksariyati Qur’oniy haqiqatlar talabi bilan yashagan. Muqaddas kalom ilhomida ijod qilganlar.

Payg’ambar hadislarini ijod ahli izchil bir tarzda o’qib-o’rganishdan tashqari, xilma-xil shakllarda badiiy talqin etishgan. Qur’on oyatlari va hadislar she’riyat qonun-qoidalariga muvofiq ravishda, ya’ni obrazli

tarzda talqin qilingan. O‘zbek adabiyoti turli oqim va mafkuralarni to‘liq o‘zlashtirib, o‘ziga xos an‘analar yaratishga qodir b”ldi.

Movarounnahr sathida islomni qurol kuchi bilan kiritib boshlagan VIII asrdagi tarixiy muhit bilan Sohibqiron Temur qudratli davlat barpo etgan XIV asr adabiyoti orasida albatta yer bilan osmon kabi farq bor. Amir Temur islom va Qur’onni davlat rukni qilib, keng masofaga jumladan, arablar yeriga ham yoyadi. Shu tariqa islomning nufuzini kuchaytirib, din ravnaqiga rivoj beradi. Markazdan, Arabistondan tarqalgan to‘liqin chekka o‘lkadan yana markazga kuchayib qaytadi. Bu harakatda adabiyotlararo jarayon o‘zining to‘liqinsimon harakatini ruyobga chiqarib, Movarounnahr va shu jumladan, o‘zbek adabiyoti rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi. Va ayni paytda, Movarounnahr adabiy oqimi arab va keng ko‘lamda musulmon adabiyoti va madaniyatiga o‘z ulushini qo‘shadi. Amir Temurning islom dini ravnaqi yo‘lida ko‘rsatgan jonbozligini islom olimlari shunday ta’riflaydilar: “Tangri taolo har yuz yilda Muhammad, unga tangrining marhamatlari va salomlari bo‘lsin, diniga rivoj berish va yangilash uchun bir kishini islom dinining yoyuvchisi va yangilovchisi sifatida ixtiyor etadi. Bu sakkizinchi yuz yillikda Amir Temur islom dinini jahon ahliga tarqatdi. Shuning uchun bu yuz yillikda Muhammad dinining yangilovchisi shu kishi bo‘lg‘ay” – deb fatvo berdilar”.

Bobosi shahrisabzlik, asli barlos, ya’ni Amir Temur urug‘idan bo‘lmish Mirzo Abdulqodir Bedil Sharq adabiyotida Shoiri Abu Maoniy (Ma’nolar otasi) deya tanilgan bo‘lib, uning quyidagi ruboiysi o‘zbek adabiyotining moziy sarchashmalardan kelib chiqqanligini yaqqol ko‘rsatadi:

She’rim menga necha yuz zabondin keladur,
Ko‘pdan beri ko‘p paytu zamondin keladur.
Tavrot emaski, ul to taxmin etsam,
Bir yo‘la magarki, osmondin keladur.

Bu ruboiyda Tavrotning osmondan kelishini ta’kidlash bejiz emas, chunki Qur’onda Tavrot va Injil Zurmat ila nomlanadi va Qur’on bilan bir qatorda osmondan yerga nozil etilganligi ta’kidlanadi. Darhaqiqat, o‘zbek adabiyoti “yuz zabondin” “ko‘p vaqtu zamondin keladir”. Va u osmondan emas, buyuk siymolarimiz qalb qo‘ri va tafakkur kuchi ila bitilgan. Bizning vazifamiz ona adabiyotimizni to‘g‘ri tushunib talqin etishdan iboratdir, xolos.

Qur'on suralarida namoz, ro'za, zakot kabi islomiy amallarni bajarish har bir iymon egasi uchun farz ekanligi uqtiriladi. Haq oshig'i bo'lishni istagan bandalar tunda ibodat qilishlari kerakligi ilohiy kitobning oyatlarida bot-bot ta'kidlanadi. Chunki namoz solih bandaning Yaratuvchiga shukronasidir. "Inson" surasining 26-oyati karimasida "Yana kechaning bir qismida ham Unga sajda qiling va uzun tunda unga tasbih ham ayting" kabi ilohiy jummalarni o'qiymiz. Binobarin, Alisher Navoiy Qur'oni karimning mazkur oyati karimasidan o'z badiiy-falsafiy g'oyalarini targ'ib etishda mohirona foydalangan. Shuningdek, "Nazm ul-javohir"dagi ruboiylarda ham ulug' shoirning shunday mayli yorqin ko'zga tashlanadi:

Tungi namoz kunduzga husndir.

Ko'p qilma namoz amrida beparvoliq,
Rak'at bila qil oh xadangin yoliq.
Qilsang kecha sajdag'a jabin farsoliq,
Kunduzunga ul namoz erur zeboliq.

Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir"da axloqiy masalalarni yoritishda islomiy sarchashmalarga tayanishi tasodifiy emas, albatta. Ulug' shoir bunday urinishi bilan ikki ulkan maqsadni ro'yobga chiqaradi: Birinchi sabab: Qur'oni karim, payg'ambarimiz hadislari va Hazrat Alining so'zlariga murojaat qilish orqali she'r tabarrukligini oshirishdir. Ikkinchidan, islomiy manbalarning insonparvarlik mohiyatini ulug'lash, shariat ahkomlariga murojaat qilishdan murod insonni ruhiy-ma'naviy kamolotga, poklanishga da'vat qilish ekanligini uqtirishdan iboratdir.

Bu borada Islom va o'zbek adabiyotining uzviy aloqalarini o'rganish barcha mavjud naziralardan foydalangan ravishda sodir bo'lishi maqsadga muvofiq. Dinlarning uzluksizligi, har bir din doirasida milliy adabiyotlarning rivoji va ularning o'zga din doiralaridagi adabiyotlar bilan o'zaro ta'siri faqat majmuaviy ravishda hal etilishi mumkin. Qur'onning mohiyati umuminsoniy qadr-qimmatlar bilan yo'g'rilgan bo'lib, o'zbek adabiyotining jahon adabiyoti matnida tutgan o'rnini aniqlashga imkon beradi.

Tasavvuf buyuk islom zaminida va islomiy haqiqatlar bag'rida dunyoga keldi. Tasavvufning Sharqda keng tarqalishiga sabab uning arab, fors va turkiy tillarda buyuk bir she'riyatni yuzaga

keltirganidir. VIII-XI asrlarda Robiya Adaviya, Mansur Xalloy singari ulug' so'fiylarning ijodi bilan boshlangan so'fiyona ash'or X-XII asrlarga kelib ulkan bir adabiyotga aylandi. O'ziga xos obrazlar, timsollar olami, alohida ramzlar, uslub va usullar shakllandi. Olimlar tasavvufni adabiyot bilan yaqinlashish sabablarini ko'proq raqsu samo' majlislari bilan bog'laydilar. Ammo faqat shu emas. To'g'ri, tasavvuf shayxlari muridlariga ta'sir o'tkazish uchun ruboiy, g'azal kabi kichik janrlardan foydalanganlar. Ba'zan o'zlari so'fiyona g'oyalarga mos asarlar ijod qilib, aksar holda esa xalq orasida yurgan og'zaki ijod namunalari va mashhur shoirlarning she'rlaridan foydalanib suhbatlarini qizitganlar, so'zlariga yangi ma'no berib, so'fiyona g'oyalar ruhida talqin va tafsir qilib, eshituvchilarni hayajonga solganlar. Bu – masalaning bir tomoni, ya'ni tasavvufning adabiyotga intilishi. Adabiyot ham tasavvufga intilib borgan. Tasavvuf g'oyalari keng tarqalgandan keyin u gumanist shoirlarning qalbini rom etdi. Tasavvufning pok ilohiy ishq haqidagi, Haq va Haqiqat, najib insoniy xislatlar, kamolot kasb etish haqidagi g'oyalari she'riyat g'oyalariga aylandi. Natijada, shoirlar qizg'in bir ruh, ko'ngil amri bilan irfoniy g'oyalarni kuyladilar. Hisobsiz lirik she'rlar, jahonga mashhur dostonlar, qissalar yaratildi. Tasavvufning behudlik va ishq konsepsiyasi, soflik, adolat va haqiqat timsoli – Mutlaq ilohga muhabbat zavqi ijod ahliga qattiq ta'sir qildi. Insoniyat g'ami bilan qalbi dardga to'lgan shoirlarni ohanraboday o'ziga tortib, o'rtanishli, his-hayajonga serob ajoyib she'riyatni vujudga keltirdi.

Tasavvuf va badiiy ijod deganda faqat so'z san'ati nazarda tutilmaydi. Tasavvuf o'z musiqasi, tasviriy san'ati, raqs san'atini ham yaratdi, hatto, so'fiyona teatrlar paydo bo'ldi. Birgina samo'ning o'zida ham she'riyat, ham raqs, ham qo'shiq, ham musiqa ishtirok etadi.

Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlikni so'fiylar bilan ijodkorlarning ruhan yaqinligidan ham izlasa bo'ladi. So'fiylardagi jazba holi darveshlik bilan shoirlikni, keng ma'noda esa, tasavvuf bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi.

So'fiyona adabiyotning murakkabligi haqida gap ketganda, shuni aytish kerakki, shoirlar bunga majbur edilar. Zero, tasavvufni she'r bilan bayon qilish – falsafani, ilohiyshunoslikni she'rga solib chiqish demakdir. Shu bois biz tasavvufiy adabiyotni tom ma'nodagi falsafiy adabiyot deymiz. Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibn al-Arabiy,

Jomiy, Bedillar Sharqning buyuk faylasuflari, lekin ularning barcha asarlari she'r bilan yozilgan. Irfoniy asarlarni ham ikki qismga ajratish mumkin: bir qismi tasavvuf ta'limotini bayon etgan, so'fiyona istilohlar bilan fikr yuritadigan asarlar. Abdulmajid Sanoiyning "Haqiqat ul-haqiq", Mahmud Shabustariyning "Gulshani roz", Jomiyning "Sharhi rubobiyot", Bedilning "Muhiti a'zam", Sayyid Qosimiyning "Haqiqatnoma", So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin", Bobojon Sanoiyning "Kanz ul-maorif" asarlari bunga misoldir. Bu asarlarni tasavvuf darsliklari sifatida qabul qilsa bo'ladi. Chunki bu asarlarda mualliflar tasavvuf ta'limotini nazm orqali tushuntirishga harakat qilganlar.

Ikkinchi qism adabiy asarlarda tasavvuf g'oyalari kechinma va hayajonlar, timsol va tamsillar orqali tasvirlanib, talqin qilingan. Bu asarlarni tasviriy talqin yoki badiiy tafsir (interpretatsiya) deyish mumkin. Fariddin Attroning "Ilohiynoma", "Bulbulnoma", "Ushturnoma", Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy", Xusrav Dehlaviyning "Matla' ul-anvor", Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Lison ut-tayr" asarlari shu xildagi asarlardir. Bu asarlarda so'fiyona-falsafiy ma'nolar she'riy misralar, badiiy ifodali til bilan talqin etilishidan tashqari, yana juda ko'p masal va hikoyatlar, ramziy tashbehlar keltirilib, kitobxonga sharhlab berilgan.

Tasavvuf adabiyoti o'zigacha bo'lgan shakl va janrlardan ham keng foydalandi, chunonchi, lirik janrlardan ruboiy, g'azal, qit'a, tarje'band, qasida; epik janrlardan masnaviy tasavvuf adabiyotining asosiy janrlariga aylandi. So'fiy shoirlar bu janrlarni rivojlantirib, ularga yangi ruh bag'ishladilar. Shu bilan birga, tasavvuf adabiyotining o'ziga xos bo'lgan janrlari ham paydo bo'ldi. Maniqib, qissa, maqomot kabi janrlar shular jumlasidandir.

Didaktik adabiyot (yun. didaktikos - o'rgatuvchi, ta'limiy) - muayyan ta'limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Adabiyotning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta bo'lib, unga qadimdayoq e'tibor qaratilgan. Jumladan, antik davr yunon faylasufi Aflotun "Davlat" nomli asarida bu imkoniyatlardan qanday foydalanish masalasini atroflicha muhokama qiladi. Didaktik adabiyot namunalari mavzu e'tibori bilan turlicha, ular nimani o'rgatishni maqsad qilgani jihatidan bir-biridan farqlanadi. Masalan, didaktik adabiyotning bir qismi ilmiy she'riyat deb ham yuritiladi va ma'lum bir ilm sohasini ommalashtirish maqsadini ko'zlaydi: ziroatchilik (Gesiod. "Mehnat va

kunlar"), dunyoning tuzilishi (Lukretsiy Kar. "Narsalar tabiati haqida"), tibbiyot (Ibn Sino. "Tib ilmi"), poeziya san'ati (N.Bualo. "She'r san'ati") va b. Sharqda ham adabiyotning didaktik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan. Sharq mumtoz adabiyotidagi didaktik adabiyotning yaxshi namunalari sifatida Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Kaykovusning "Qobusnoma", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror", Boburning "Mubayyin" kabi pandnoma ruhidagi asarlarini ko'rsatish mumkin. Mazkur asarlar mazmun-mundariyasi jihatidan universal bo'lib, turli darajadagi ijtimoiy munosabatlar, insonning burchi va vazifalari, dunyo va oxirat, e'tiqod, odob-axloq, ilmning ahamiyati kabi hayotda zarur turfa masalalardan bahs yuritadi. Shuningdek, Sharqda diniy ma'rifatni targ'ib etuvchi asarlar ham didaktik adabiyotning muhim bir tarmog'ini tashkil etadi: "Devoni hikmat" (Ahmad Yassaviy), "Siroj ul-muslimin" (Alisher Navoiy), "Sabot ul-ojizin" (So'fi Olloyor) kabi ko'plab asarlar diniy-didaktik adabiyot namunalaridir. XX asr boshlariga kelib, jadid ma'rifatchilik harakati bilan bog'liq holda, o'zbek adabiyotida didaktiklik tamoyili yana ustuvorlik kasb etadi. Yangi usul maktablarini uslubiy ta'minlash maqsadida yaratilgan A.Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq", Hamzaning "Yengil adabiyot" kabi asarlari tom ma'nodagi didaktik adabiyot namunalari bo'lsa, jadid ma'rifatchilarining deyarli barcha asarlarida didaktiklik, g'oyaviy-ma'rifiy didaktika yetakchi xususiyat bo'lib qoldi. Adabiyot taraqqiyotining keyingi bosqichlarida sof didaktik xarakterdagi asarlar kamayib, asosan, bolalar adabiyoti doirasida kuzatiladi, endi oshkor didaktiklik kamchilik sifatida tushuniladi, so'z san'ati o'zining didaktik funksiyasini sezdirmasdan, barkamol badiiy obrazlar vositasida amalga oshirish yo'lini tutadi.

Didaktik adabiyot – axloqiy-tarbiyaviy, falsafiy, diniy fikrlarni badiiy shaklda bayon qiluvchi adabiyot. Sharqda, shu jumladan, turkiy xalqlar orasida badiiy adabiyotning bu turiga muhim ahamiyat berilgan. Pand-nasihat asosiga qurilgan bu adabiyot O'zbekistonda katta tarixga ega. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida quyidagi mazmunda she'r keltiriladi: "O'tgan asrlarda fazilatli kishilar bo'lar edi. Ular ilm cho'qqilarini egallagan bo'lar edilar. Ular ko'p pand-nasihat qilar edilar. Ko'ngil ulardan safo topardi". Ulug'lar, ota-bobolar so'zi mo'tabar sanalgan urug'chilik jamiyati va butun feodal tuzum

sharoitida adabiyotda pand-nasihatning oʻrni katta boʻlgan. Didaktik adabiyot, avvalo, shu negizda paydo boʻldi va rivojlandi. Didaktik adabiyotning gʻoyaviy saviyasi bilan, badiiyligi, taʼsirchanligi, uning adabiy isteʼdodi darajasi bilan bogʻliq.

Oʻzbek yozma adabiyotida didaktik adabiyotning ilk namunasi Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarlaridir. Bu asarlarda adolat va maʼrifat, yaxshi xulq va odob haqidagi qarashlar pand-nasihat yoʻli bilan sheʼriy usulda, chiroyli ibora va oʻxshatishlar, kitobxonga samimiy xitoblar orqali ifoda etilgan.

Dunyoviy adabiyot bilan bir qatorda diniy adabiyot ham didaktik adabiy uslub va janrlardan muvaffaqiyatli foydalangan. Ahmad Yassaviy, Soʻfi Olloyor, Haziniy kabi oʻzbek shoirlari diniy qonunlarni, tushunchalarni, yaxshi insoniy xulq va axloq meʼyorlarini targʻib etishda didaktik adabiyot imkoniyatlari kengligini hamda badiiy samarali ekanligini namoyish etganlar.

Oʻzbek adabiyotida didaktik yoʻnalishning rivojlanishida oʻz yozma va ogʻzaki anʼanalari bilan bir qatorda fors-tojik, arab, ojarbayjon adabiyotlarining ham taʼsiri katta boʻlgan. XIV asrda Sayfi Saroyi tomonidan Shayx Saʼdiy asari – “Guliston”ning tarjima qilinishi, XV asr boshlarida Haydar Xorazmiy tomonidan Nizomiyning “Maxzan ul-asror” dostoniga nazira sifatida “Gulshan ul-asror”, Sayyid Qosimiyning “Majma ul-axbor”, “Gulshani roz” kabi dostonlarining yaratilishi muhim voqealardandir.

XV asrning ikkinchi yarmiga qadar oʻzbek va fors-tojik adabiyotlarida didaktik janr sohasida toʻplangan boy tajribalar asosida Alisher Navoiy didaktik adabiyotni yangi taraqqiyot bosqichiga koʻtardi. “Xazoyin ul-maoniy” devonidagi yuzlab gʻazal va qitʼalar, ruboiy va fardlar tarbiya uchun zarur pand-nasihatlardan iborat. Navoiy “Hayrat ul-abror” dostoni va “Mahbub ul-qulub” asarida oʻz davridagi xulq-axloq, inson tarbiyasi bilan bogʻliq tafakkur saviyasini gʻoyat kengaytirdi va chuqurlashtirdi. Xarakterli va muhim tomoni shundaki, Navoiy va boshqa taraqqiyparvar qalam ahlari asarlarida didaktika badiiy til, badiiy tasvir bilan ifodalanib, hajviya, lirika, yumor bilan qoʻshib, yonma-yon olib boriladi.

Navoiyning “Saddi Iskandariy”, “Lison ut-tayr” kabi dostonlarida, “Devoni Foniy”, “Munshaot” asarlarida didaktik qismlar va unsurlar

ko'p. Shoirning "Arba'in", "Nazm ul-javohir" kabi asarlarida, ruboiylarida diniy didaktikaga keng o'rin beriladi.

Didaktik adabiyotning iste'dodli vakillari xalq og'zaki ijodidan yaxshi foydalanganlar. Xalq maqol va matallari, hikmatli so'zlari yozma adabiyotga doim jonlilik, soddalik, hayotiylik bag'ishlab kelgan. Biz buni Lutfiy, Haydar Xorazmiy, Bobur, Turdi, Mashrab, So'fi Olloyor, Nishotiy, Ogahiy, Muqimiy, Furqat, Avaz, Zavqiy kabi namoyandalar ijodida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Didaktik adabiyot rivojiga "Qisasi Rabg'uziy" muallifi Nosiriddin Rabg'uziy, "Gulzor", "Miftoh ul-adl", "Maqsad ul-atvor" asarlari muallifi Xoja ham o'z nasriy-didaktik hikoyalari bilan, Gulxaniy xalq maqollarini o'z ichiga olgan "Zarbulmasal" asari bilan noyob hissa qo'shdilar. Hamza, Ayniy, Abdulla Avloniylarning maktab uchun yaratilgan o'quv kitoblarida ham pand-nasihati mazmunidagi nasriy va nazmiy hikoyalarga keng o'rin berilgan.

1905-1917 yillar orasida yashab ijod etgan ma'rifatparvarlar o'z g'oyalarini badiiy jihatdan ta'sirli ifodalashda o'tmish adabiyoti tajribalaridan ijodiy foydalanganlar. G'afur G'ulom, Sobir Abdulla, Habibiy, Quddus Muhammadiy kabi shoirlar yosh avlod uchun yangi davr ruhi bilan sug'orilgan ko'pgina didaktik she'riy asarlar yaratdilar.

Tazkira (ar. - zikr etish, tilga olish, eslash) – Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi muxtasar ma'lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar (odatda, bir necha bayt hajmida) keltiriladi va ijodiga umumiy tarzda baho beriladi. Tazkiralarda ijodkorlar haqida ma'lumotlar berish bilangina cheklanib qolinmasdan, she'riyat va uning nazariy masalalari bilan bog'liq e'tiborga loyiq fikr-mulohazalar, ma'lum bir davr adabiy hayoti haqidagi muhim ma'lumotlar ham o'rin oladi. Adabiyot tarixida shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqidagi tazkiralarda ham yaratilgan (mas., Alisher Navoiy. "Nasoyim ul-muhabbat"; Sidqiy. "Tazkirai Imomi A'zam").

Tazkira yozish an'anasi dastlab arab va fors adabiyotlarida shakllangan bo'lib, keyinroq turkiy adabiyotda ham keng ommalashgan. Tazkiraning eng qadimgi namunasi sifatida Abu Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr fi mahosili ahli asr" ("Zamona ahlining fazilatlarini haqida yagona durdona", XI asr) asari e'tirof etiladi. Mazkur tazkiradan o'sha davr Arab, Ajam, Movarounnahr, Xorazm va Xuroson adabiyoti va san'ati

haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Turkiy tildagi ilk tazkira sifatida Navoiyning "Majolis un-nafois" asari ko'rsatiladi. Tazkiralarning mumtoz adabiyot tarixi, alohida ijodkorlar asarlarini, ular bilan bog'liq nazariy masalalarni o'rganishda muhim manba sanaladi. Jumladan, Muhammad Avfiy Buxoriyning "Lubob ul-albob" ("Bilimlar mag'zi", XIII asr), Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" (XV), Maleho Samarqandiyning "Muzakkir ul-as'hob" (XIX asr), Rahmatulla Vozehning "Tuhfat ul-ahbob" (XIX asr), Fazliyning "Majmuai shoiron" (XIX asr), Ahmad Tabibiyning "Majmuai shoiron" (XIX asr); XX asr boshlari adabiyoti haqida ma'lumot beruvchi Ne'matulla Muhtaram, Mirsiddiq Hashmat va Abdilarning bir xil – "Tazkirat ush-shuaro" nomli, shuningdek, P.Qayumovning "Tazkirayi Qayyumiy" asarlari shunday tazkiralarning sirasidandir.

"Majolis un-nafois" o'zbek tazkirachiligiga asos bo'ldi. Ma'lumki, bungacha Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-Shuaro"ni, Jomiy "Bahoriston"ning 7-ravzasini yaratgan edilar. Mavjud tazkiralarda fors-tojik adabiyoti namoyondalari haqida fikr yuritilgan edi. Navoiygacha turkiy tilda asarlar yozgan shoirlar nomlari zikr etilgan tazkiralarning zarur edi. "Majolis un-nafois" bu talabni amalga oshirdi.

MUMTOZ SHE'RIYAT VA UNGA XOS BO'LGAN XUSUSIYATLAR

So'z san'atining dastlabki janrlari insonning nutq madaniyati rivojlanishi bilan tug'ilgan. Demak, turkiy xalqlar adabiyotining tarixi juda qadimiy bo'lganidek, adabiy janrlarning tug'ilishi va shakllanish jarayoni ham uzoq tarixga ega. Badiiy adabiyotning har bir shakli ma'lum bir janr asosida yuzaga kelishi qonuniyatdir. Shunday ekan, turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan davrdagi adabiyotida ham rang-barang janr va vazn xususiyatlari mavjud. Turkiy xalqlar og'zaki ijodida islomdan so'nggi yoki hozirgi davrda adabiyotshunoslikda mavjud atamalar bilan yondashish maqsadga muvofiq emas. Chunki bugungi adabiyotshunoslikdagi mavjud janr, shakl hamda vaznni qadimgi turkiy adabiyotdan izlash yoki hozirgi davr atamalari bilan atash masalaning mohiyatini murakkablashtiradi.

O'zbek adabiyoti tarixining qadimgi davrlarini o'rganishga bag'ish-

langan qo'llanmalarda "maqol", "marsiya", "munozara", "afsona", "asotir", "rivoyat" kabi janrlar to'g'risida so'z yuritiladi. Aslida bu adabiy atamalar arab tili mahsuli bo'lib, bu tushunchalar turkiy xalqlarning adabiy-madaniy hayotidan islomdan so'nggi davrlarda yuzaga kelgan. Lekin qadimgi turkiy adabiyotda yuqoridagi atamalarni ifodalaydigan turkiy tildagi so'z, iboralar mavjud edi. Demak, har bir davrning adabiyotidagi janrlar yoki vaznlar o'rganilganda, shu davrga xos atamalardan foydalanish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Qadimgi turkiy adabiyotni o'rgangan olimlarning mulohazalariga ko'ra, islomgacha bo'lgan turkiy adabiyotda lirik, epik va liro-epik adabiy turlar rivojlangan va bu turlar bir necha janrlardan tarkib topgan. Adabiy janrlarning har biri turkiycha o'z nomlanishiga ega bo'lgan.

Turkiy adabiyotdagi janrlar nomlanishida ularning uch xil xususiyati, ya'ni: shakli (to'rtlik, tuyuq); mazmuni (bilig, qarg'aq); ifodaning ruhiy xususiyatlari (sandrush- tortishuv, yig'i-yo'qlov) asos bo'lgan. Mumtoz she'riyatda qo'llanilgan juda ko'p she'riy janrlar arab va forsiy adabiyotlarda keng ishlatilgan janrlardir. Ammo turkiy she'riyatning o'zida paydo bo'lgan she'riy janrlar ham borki, ulardan ham samarali ijod qilingan.

Fard – sharq adabiyotidagi she'riy shakllardan biri bo'lib, bir baytdan iborat, ikki misra o'zaro qofiyalangan, lekin poetik jihatdan shakllangan she'r hisoblanadi. Fardda salmoqli mazmun, g'oya ilgari suriladi.

Sharq shoirlari devonlarida fardga alohida o'rin berilgan. Fardsiz shoir o'z ijodida yoki kitobxon uning devonida ma'lum bir kemptiklik his etgan. Fard mazmunan qit'aga yaqin bo'lib, shoirning ma'lum bir vaqtdagi kayfiyatini, biror masala haqidagi fikrini ifodalaydi. Shu jihatiga ko'ra fardni badiha (ekspromt) she'rlar guruhiga kiritish mumkin. Masalan, XVI asr boshlarida Xurosonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy vaziyat murakkablashib qolgach, u yerdagi bir qancha olim va shoirlar, jumladan, mashhur tarixchi Xondamir va uning ikki do'sti Hindistonga – Boburning huzuriga yo'l oladilar. Bunday tashrifdan xursand bo'lgan Bobur bu voqea sharafiga quyidagi fardni yozgan:

Shayxu mullo Shahobu Xondamir

Keling uch-uch, ikki-ikki, bir-bir.

Mazkur fardni Bobur dastlab badiha yo'li bilan aytgan bo'lishi mumkin.

O'zbek adabiyotida fardning dastlabki namunasi Xorazmiyning

“Muhabbatnoma” asarida uchraydi:

Niyozim bu turur sendin, nigoro,
Unutma bandani bahri xudoro.

O‘zbek she‘riyatida fard janri yuqori taraqqiyot pog‘onasiga erishdi. Navoiy devonidagi fardlar bu janrning yuksak namunasidir. Shoirning “Xazoyin ul-maoniy” devoniga kiritilgan 86 ta farddan tashqari, ilmiy va nasriy asarlariga ham ba‘zan “she‘r”, ba‘zan “nazm” yoki “bayt” deb atalgan ko‘pgina fardlar ham kiritilgan. Navoiy fardlaridan birida tanqidga nisbatan sabrli, to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, tanqiddan to‘g‘ri xulosalar chiqarib olishga, tanqidni hayotdagi, insondagi bor narsani aks ettiruvchi narsa deb tushunishga chaqiradi:

Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu,
Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu?

Alisher Navoiy fardlari turli mavzulardadir. Shoir fardlari orasida ikki misra o‘zaro qofiyalanmaganlari ham uchraydi. Shoirning ishqiy mavzudagi fardlaridan biri:

Ikki ko‘zungu labing g‘amidin
Men xasta o‘lub-o‘lub tirildim.

Fardning go‘zal namunalari Bobur, Munis, Ogahiy ijodida ham mavjud. Zamonaviy o‘zbek shoirlaridan Abdulla Oripov, Rauf Parfilar bir qator yaxshi fardlar yaratdilar.

To‘rtlik – turkiy adabiyotda to‘rt misralik she‘r va bandi to‘rt misradan iborat bo‘lgan she‘rlar o‘rtasida o‘ziga xos tafovut bor. Tugal mazmunni ifodalagan to‘rt misrali she‘rlar Sharq adabiyotida ruboiy deb ataladi. “Devoni lug‘otit turk” asarida keltirilgan she‘riy parchalarning aksariyat qismi to‘rtliklardan iborat. Ammo ularni ruboiy deb atash mushkil. Bunday to‘rtliklarda axloqiy-ta‘limiy ruh ustunlik qilsa-da, qofiya va vazn xususiyati ruboiy janri talablariga javob bermaydi. Aruz vazni talabiga ko‘ra ruboiylar hazaj bahrining axram va axrab shajaralarida yozilishi kerak. Qadimgi turkiy she‘riyatda yaratilgan to‘rtliklar esa barmoq vaznida yozilgan. Demak, to‘rtlik turkiy she‘riyatda alohida mustaqil janr sifatida shakllangan. Shu jihatdan qaraganda, Yusuf Xos Hojibninig “Qutadg‘u bilig” asarida berilgan to‘rt misralik she‘rlar ham to‘rtlik janrlarining qadimgi namunasi deb qaraladi. Ammo e‘tiborli tomoni shundaki, “Qutadg‘u bilig”da berilgan to‘rtliklarning qofiya tizimi ruboiynikiga mos keladi. Demak, bu shakl barmoqdagi to‘rtlik va aruzdagi ruboiy an‘anasining birlashgan natijasi

ham bo'lishi mumkin.

Tuyuq – turkiy she'riyatga xos bo'lgan janr. “Qutadg'u bilig”da keltirilgan to'rtliklar tarkibida tuyuq namunalarining uchrashi ham bu janr turkiy adabiyotda avvaldan shakllanganligini ko'rsatadi:

Qayu yerda bo'lsa o'qush birla o'g (aql),

Ani er atagil, necha o'gsa o'g (maqтанmoq).

O'qush, o'g, bilig kimda bo'lsa tugal,

Yavuz ersa kaz te, kichik ersa o'g (ulug'lamoq).

Ammo adabiyotshunos olim N.Mallayevning ma'lumotiga ko'ra, turkiy adabiyotdagi dastlabki tuyuq XIV asr shoiri Burhoniddin Siyosiy devonida uchraydi. XIV-XV asrlarda faqat turkiy adabiyotga taalluqli bo'lgan va she'rxonga ko'proq badiiy zavq beradigan tuyuq janrining vujudga kelishi bu davr adabiy muhitida muhim ahamiyat kasb etdi.

Qit'a – lirik she'rning qadimiy turlaridan biridir. Arabcha “parcha”, “kesim” ma'nolarini anglatadi, ko'pligi “muqtaot”. Boshqa she'r turlaridan qisman g'azalga o'xshashligi bilan farqlanadi. Lekin unda matla' bo'lmaganligi uchun b-a, v-a, g-a, d-a tarzida qofiyalanadi. Qit'ada taxallus bo'lishi shart emas. Hajmi ikki baytdan kam bo'lmasligi, 15-20 baytdan ortib ketmasligi kerak. Aruzning hamma vaznlarida yaratiladi. Mavzu jihatdan cheklanmagan bo'lib, ko'proq shoirning mavjud hayot hodisalari, inson xarakteri bilan bog'liq yo'l-yo'lakay paydo bo'lgan birinchi taassurotlarini ifodalaydi. Shu jihatdan qit'ani shoirning yon daftaridagi qaydlari, deb qarash mumkin, degan qarashni ilgari suradi olim A.Hayitmetov.

O'zbek adabiyotida qit'a dastlab Xorazmiyning “Muhabbat-noma”sida uchraydi. Shoir qit'alaridan birida o'zini humoga o'xshatadi, o'tkir so'zlarini qilichga qiyoslaydi:

Tama' dominda qolur qush emasmen,

Tilim ayvon uza uchqon humomen.

Qilichdek til bila tuttum jahonni,

Qanoat mulki ichra podshomen...

O'zbek adabiyotida Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Bobur, Munis, Ogahiy, Avaz singari o'nlab shoirlar ajoyib qit'alar yaratganlar. Lekin bu janr Alisher Navoiy merosida salmoqli o'rni tutadi. Shoir o'zbek tilida 210 ta, fors tilida 70 dan ortiq qit'alar yaratib, bu janr taraqqiyotiga salmoqli ulush qo'shdi. Navoiy qit'alarining yana bir muhim jihati shundan iboratki, u o'zbek tilidagi hamma qit'alariga sarlavhalar qo'ygan va bu

bilan har bir qit'asini nima maqsadda yozganligini alohida ta'kidlagan. Navoiy qit'alari mavzu jihatdan boy, g'oyaviy jihatdan rang-barang, badiiylukda mavjud hayot nafasi bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularni shoirning o'zi hikmat suvidan bahramand bo'lgan boqqa qiyoslagan edi: *"Hikmat suyidin aylamisham qit'a-qit'a bog"*

XIV-XV asrning birinchi yarmida turkiy adabiyot olamida tur va janrlar ancha takomillashdi. Shoirilar yangi janrlarda ijod eta boshladilar. Nazm badiiy adabiyotda yetakchi tur vazifasini o'tashda davom etdi. Ana shunday nazm janrlaridan biri g'azaldir. G'azal tojik adabiyotining asoschisi Abu Abdullo Ja'far ibn Muhammad Rudakiy (884-954) ijodida shakllana boshlab, XV asrgacha murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi va bu davrlarda ham yangi-yangi xususiyatlar kasb etdi, rivojlandi. XV asr o'zbek va fors-tojik adabiyotida lirika sohasida g'azalning yetakchi she'riy shakl bo'lib qolishining o'zi tabiiy ravishda shunday bo'lishini taqozo etar edi.

G'azalning o'zbek adabiyotidagi ilk namunalarini ijod etgan Xorazmiy o'z g'azallari o'sha davrdayoq kuyga solib aytilganligini shunday misralarda ifodalagan edi:

Husayniy pardasi uzra tuzib soz,

Mug'anniy bu g'azalni qildi og'oz.

G'azalning eng ommabop janrga aylanishi va uzoq umr ko'rishining siri uning musiqa bilan mustahkam aloqada bo'lganligidadir. O'z asarlarining taqdiri va istiqbolini o'ylagan yuzlab shoirilar bu janrda nafosat durdonalarini bitish bilan birga uning sha'nida madhiyalar, faxriyalar ham yozganlar. Masalan, Abdurahmon Jomiy uni "she'riyat hunarining eng barkamoli" deydi. Alisher Navoiy esa "g'azal barchadin dilosoroq va nishotafzoroq" deb ta'riflab, unda katta muvaffaqiyatldarga erishganligidan quvonadi:

G'azal tarziga avval aylab sitez,

Jahon ichra soldim ulug' rustxez.

O'zbek g'azalchiligining paydo bo'lishi va taraqqiy etishi haqida bir-biridan farq qiluvchi fikrlar yuradi. O'zbek adabiyotida g'azal Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning jonlanishi, o'zbek adabiy tili va bu tilda yaratilgan adabiyotning shakllanishi hamda uning adabiy hayotda yetakchi yo'nalishga aylanishi, o'zbek xalq og'zaki lirikasi, qo'shiqlari, musiqa san'ati, shuningdek, fors-tojik tilidagi g'azalchilik erishgan yutuqlar zaminida XIV asrning birinchi

yarimlaridayoq lirik poeziyaning mustaqil janri sifatida qaror topdi. “Qisasi Rabg‘uziy”dagi, “Muhabbatnoma”dagi g‘azallar, shuningdek, Sayfi Saroyi, Ahmad Xoja as-Saroyi, Mavlono Qozi Muhsin, Mavlono Is‘hoq, Mavlono Imod Mavlaviy, Tug‘lixoja kabi XIV asrda yashab ijod etgan shoirlar yaratgan go‘zal g‘azallarda bu janr uchun shart hisoblangan barcha xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Bu g‘azallar tilining sodda va samimiyligi, yengil ohangi, tajnis, musajja’, juft va takror qofiya kabi badiiy-tasviriy usullarga boyligi bilan kishi diqqatini o‘ziga tortadi.

G‘azal so‘zining eng qadimgi lug‘aviy izohi XII asrning oxiri va XIII asrning boshlarida yashagan adabiyotshunos olim Shamsiddin Qays Roziyning “Al-mu‘jam fi maoiri ash‘oril Ajam” (“Ajam she‘riyatidagi tushunchalarga alfavit ko‘rsatkichi”) asarida berilgan. Hindistonlik filolog Qabul Muhammad ham “Haft qulzum” asarida g‘azal termini haqida keng to‘xtaladi. Uning shakliy xususiyatlari, vazni, mavzusi haqida fikr yuritiladi. G‘azalning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti masalalari ancha murakkab bo‘lib, bu masalalarni o‘rganishning kattagina tarixi bor. Yevropa va rus sharqshunoslari, qator Eron adabiyotshunoslari ko‘pdan beri bu masala bilan shug‘ullanib, xilma-xil mulohazalarni ilgari surdilar. 1957-yilda tojik tilida, 1958-yilda rus tilida filologiya fanlari doktori Abdulg‘ani Mirzoyevning “Rudakiy va X-XV asrlarda g‘azal taraqqiyoti” asarining yozilishi bu haqda shu paytgacha qadar ma‘lum qarash va fikrlarga to‘g‘ri yakun yasadi. A.Mirzoyevning jiddiy tekshirish natijalaridan biri shuki, g‘azal lirikaning alohida turi sifatida X asrlarda emas, XII asrlardan boshlab shakllana boshlagan va XIII-XIV asrlarda Sa‘diy, Hofiz ijodida o‘z takomiliga erishgan.

Turkiy adabiyotda Rabg‘uziy asarida ilk bor uchragan tavsifiy xarakterdagi g‘azal namunasi bu davrga kelib turkiy badiiy adabiyotdagi eng yetakchi janrga aylandi. Ammo bu o‘zbek g‘azalnavisligi ana shu davrdan boshlangan, degan xulosani bermasligi lozim. Chunki X-XIII asrga mansub ko‘pgina asarlar bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Buning ustiga XIV asrda yaratilgan g‘azallarning badiiy saviyasi ham o‘zbek g‘azalnavisligida ancha boy tajriba to‘planganligidan dalolat beradi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sida ham o‘zbekcha va forsiy 5 ta g‘azal mavjud. XV asrning boshlariga kelib, Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy va Gadoiylarning ko‘plab g‘azallari o‘zbek tilidagi g‘azalning yetuk namunasi sifatida keng shuhrat qozondi. Bu shoirlar o‘z g‘azallarini

to'plab, devon tuzdilar. Hofiz Xorazmiy devoniga kiritilgan g'azallar esa o'zbek g'azalchiligi borasida ancha samarali ijod qilinganidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy o'zbek g'azalnavisligini yuqori bosqichga ko'tardi. Ko'p asrlik tajribaga ega bo'lgan fors g'azalchiligi an'analari qunt bilan o'rgandi va ularning eng ilg'orlarini o'zbek g'azalnavisligiga tadbiq etdi. Navoiy birinchi navbatda g'azal tematikasini kengaytirishga harakat qildi. Shoir g'azallarida bir qancha masalalar tilga olingan bo'lsa-da, ularni shartli ravishda mavzu jihatidan 4 ga ajratish mumkin:

1. Ishqiy. 2. Falsafiy. 3. Didaktik. 4. Ijtimoiy-siyosiy.

O'zbek g'azalchiligining ulkan bilimdoni M.Shayxzoda "O'zbek zaminida birinchi g'azallarni tajriba qilib ko'rgan "Muhabbatnoma" muallifidir. Bu asarga kiritilgan g'azallarda ushbu lirik janr uchun shart bo'lgan barcha talablarga rioya etilgan... Ammo bu janrning negizini vujudga keltirishda Amiriy, Lutfiy, Atoyi Sakkokiy katta zahmat chekib, bu janrning she'riyatimizda to'la huquqli bir nav' bo'lib yashashiga sharoit yaratdilar", - deb yozadi. Adabiyotshunos olim R.Orzibekov esa bu fikrlarni ma'qullagan holda o'zbek adabiyotiga g'azalning kirib kelishi ancha uzoqlardan boshlanishini ta'kidlaydi. Uning o'zbek adabiyotida paydo bo'lishi bir tomondan, aruz vaznining shu adabiyotda qaror topishi, o'zbek tili xususiyatlariga moslashishi bilan bog'liq ekanligini e'tirof etadi. H.Borovkov, I.V.Stebleva singari tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, X-XI asrlardayoq aruz turkiy xalqlar adabiyotida iste'mol qilina boshlangan. I.V.Stebleva "Devoni lug'otit turk"da folklor namunalaridan tashqari aruzning hazaj, ramal, rajaz, munsare' singari vaznlariga tushuvchi yozma adabiyot namunalari ham borligini faktlar orqali ko'rsatadi. "Qutadg'u bilig"da g'azalning qofiyalanish tartibiga o'xshash baytlardan iborat qasidalar beriladi. Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da keltirgan qo'shiq, masalan, "ramali musammani maqsur"da bitiluvchi "turkiy" va boshqalar ham ancha qadimiy og'zaki she'r navlari bo'lgan. "Devoni hikmat"da ham bir nechta g'azallar uchraydi. Bu hol turkiy tildagi adabiyotlarda g'azalning janr sifatidagi shakllanish protsessi X-XI asrlardayoq boshlangan, degan xulosaga kelishga imkon beradi.

O'zbek g'azali XIV-XV asrlarda ko'proq dunyoviylik, hayotiylik mohiyati bilan sevgi mavzui orqali namoyon bo'lgan bo'lsa, Navoiy va uning zamondoshlari ijodida bu ijodiy an'analari yanada kuchaydi,

ilg'or gumanistik g'oyalar bilan boyidi. Navoiy o'z g'azallari bilan XV asrning lirik ensiklopediyasini yaratdi, u arab alifbosida yo'q bo'lgan, fors va turkiy alifboda mavjud bo'lgan ch, j, g, p, harflarig maxsus g'azallar yozdi, g'azallarda mavzu, ma'no va mantiq biriligini yuzaga keltirish usullarini qo'lladi.

O'zbek she'riyatida g'azalnavislik XVI-XIX asrlarda ham yetakchi o'rinda bo'lib keldi. Bu janrda bir tomondan, buyuk salaflarning, xususan, Navoiy va Fuzuliylarning eng yaxshi an'analari davom ettirilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamon, davr talabi bilan konkret ijtimoiy voqea-hodisalarga munosabat natijasi o'laroq original g'azallar ham yaratildi. Bunday g'azallarda ishq-muhabbat, may, mahbub tasviri orasida qistirma tarzida ayrim misra, baytlarda zamonaning nojo'yaliklari va zulmidan shikoyat, uni la'natlash, hokim sinf obro'siga til tekizish, ularning kirdikorlaridan kulish yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Turdi, Mashrab, Vafoyi, Maxmur, Xoziq, Shavqiy, Miriy singari shoirlar poeziyasida g'azal janrida bitilgan tugal maxsus satirik ruhdagi she'rlar mavjud. Ushbu shoirlar jamiyatdagi adolatsizlik, zulmga qarshi noroziliklarini, ko'pincha, o'zlarining og'ir ahvollarini, ruhiy iztiroblarini ifoda qilish orqali bayon qilsalar, Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy singari shoirlar ma'lum kasb egalarining, ilm-kasb ahllarining og'ir ahvolini aks ettirish, ularning taqdiriga achinish orqali ifodalaydilar. Muqimiy, Furqat, Zavqiy va Avaz singari shoirlar esa ijtimoiy munosabatlar natijasida paydo bo'lgan yangi kishilar, real shaxslar obrazlarini g'azaliyotga, boshqa janrdagi she'rlariga olib kirdilar. Shu ma'noda demokratik shoirlar lirikasidagi obrazlar oshiq, ma'shuqa, raqib, mutafakkir, riyokor shayxlar, shariat peshvolari, zolim amaldorlargina emas, balki yangi zamon tug'dirgan yangi obrazlar – chunonchi, sudxo'rlar, bankirlar, savdogarlar, yumoristik g'azallarda esa oddiy mehnatkash ahlidir. Agar an'anaviy oshiq, ma'shuqa, mutafakkir, raqib va shayx obrazlarini biz, asosan, ishqiy, falsafiy va publitsistik g'azallarda ko'rsak, tovlamachi salbiy obrazlarni satirik g'azallarda uchratamiz. Ana shu zaminda lirik qahramonning tarjiami holi ham demokratik adabiyotning g'oyaviy va janriy takomiliga qarab o'zgarib, o'sib bordi. XV asr she'riyatida olijanob gumanistik ideallarni kuylash asosida tug'ilgan lirik qahramon XVII asrda Mashrab, Turdi va keyingi davr shoirlari ijodida isyonkorlik ruhi bilan sug'orilgan qahramonga aylangan bo'lsa, XIX asrning II-yarmida demokrat shoirlar ijodiga

kelib, u ijtimoiy hayotdagi adolatsizliklarni keskin tanqid qiluvchi, haq-huquqi uchun kurashuvchi munaqqid siymoga aylandi. Bu qahramon ma'lum tarzda hurriyatparvarlik motivlari bilan ham chiqdi. Muqimiyning "Hajvi Xalifai Mingtepa", Zavqiyning "Hajvi Ikchi Eshon", Avazning "Xalqim", "Sipohiylarga" asarlari an'anaviy g'azal janrida yozilgan bo'lsa-da, mavzusi, g'oyaviy yo'nalishi jihatidan o'tmish g'azalchiligidan farq qiladi.

G'azalning mavzu-mundarijasida XVI-XIX asrlar orasida paydo bo'lgan bunday o'zgarishlar bu janr taraqqiyotida xalqchillik va realistik an'analarning kuchayishiga, til va uslubda soddalikning yuzaga kelishiga olib keldi. Chunki badiiy adabiyot ham ijtimoiy tafakkurning bir shakli sifatida davr talabalariga moslashadi. Undagi hayotiy jarayonni, o'sish va o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Natijada, adabiy janrlarning mazmun-mundarijasi talabi bilan uning shaklida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Bundan tashqari, har bir shoir g'oya va mazmunda novator bo'lgani kabi shaklda ham ma'lum ixtirolar qilishi mumkin. To'g'ri, shakl mazmunga qaraganda sekinroq o'zgarishlarga duch keladi. Bu hodisani g'azal taraqqiyotida ham ko'rish mumkin. G'azalning mazmuni, g'oyaviy mundarijasi, obrazlar sistemasi, mavzusi har bir davrda o'zgarib borgan bo'lsa, uning shakliiy xususiyatlari: vazni, qofiyalanish usuli, matla', maqta', taxallus qo'yish odati va boshqalarda katta o'zgarish yuz bermadi. Biroq g'azal shakli qotib qolmadi, uning shakllari ko'paydi. Muvashshah, mulamma', mushoira, shiru shakar, tazmin, nazira usullarida, lirik qahramonning monologi, satirik shaxslarning o'z-o'zini fosh etish usuliga asoslangan g'azallar ko'paydi, sikl g'azallar yaratildi.

An'ana bo'yicha g'azallar o'n baytdan oshmasligi ma'qul ko'rilar edi. Ko'p shoirlar bunga qattiq amal qilganlar. Navoiy g'azallarini o'rgangan adabiyotshunos olim va adib M.Shayxzoda "Navoiy g'azallarining hokim formasi 7 yoki 9 bayitlik g'azallardir. Bu fakt shoirda badiiy zavqning qat'iy andozalarga ega bo'lganligini, taassurotning haddu hududini yaxshi tasavvur qilganligini ko'rsatadi", deb yozadi. O.Nosirov g'azal hajmining chegaralanganligining sababini izohlar ekan, uning lirik she'r sifatida musiqa san'ati, ayniqsa, maqomlar bilan bog'liq holda taraqqiy etganligini ham eslatib o'tadi. Ammo o'zbek g'azalchiligida 4 misradan 46 misragacha bo'lgan g'azallar ham uchraydi. Hajm jihatidan eng kichik g'azal Poshoxo'janing "Gulzor"

asarida uchraydi. Shoir gʻazal tartibida qofiyalangan 4 misralik sheʼrni gʻazal deb atagan. 6 baytdan oshmaydigan gʻazallar Turdi-Farogʻiy lirikasida ham bor. Oʻzbek adabiyotida hajm jihatidan eng katta gʻazal Miriy va Ogahiy ijodida uchraydi. Miriyning avtobiografik ruhdaagi “Gʻazal dar eʼtiroz” asari, Ogahiyning bir gʻazali 23 baytdan iborat. Bunday gʻazallar XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrda yashab ijod etgan shoirlardan Uvaysiy, Ogahiy, Miriy, Komil Xorazmiy, Furqat ijodida uchraydi. Abdulgʻani Mirzoyev, R.Majidiy singari olimlar bu hodisani gʻazal mundarijasida yuzaga kelgan oʻzgarish, mazmun-mavzu talabi natijasi sifatida izohlaydilar. Chindan ham biz koʻproq musiqaga moslab yozilmagan orifona yoxud epik shtirxlarga, voqeabandlik xususiyatlariga ega boʻlgan gʻazallarda shunday holatlarni koʻproq uchratamiz.

XIV-XV asrlar mumtoz adabiyotimiz tarixida muhim bosqich boʻldi. Bu davrda noma, munozara, doston, hikoyat, masal va memuar kabi janrlar ham vujudga keldi. Xorazmiy “Muhabbatnoma” asari orqali turkiy adabiyotda noma janriga asos soldi. Bu shaklda yozilgan asarlarda epik bayon his-tuygʻularning nozik ifodasi bilan badiiylashtiriladi. Shunga koʻra, nomalar liro-epik turga yaqin turadi. XIV-XV asrlarda munozara ham nasriy, ham nazmiy koʻrinish kasb etdi.

Aruz tizimi bir necha yillar davomida arab, fors-tojik va turkiy sheʼriyatlarda amaliy jihatdan qoʻllanib kelingan. VIII asrda Xalil ibn Ahmad tomonidan asos solingan bu vazn oʻziga xos latif musiqiylik, ohanglar rang-barangligi, hayot boqiyliigi va insoniy hissiyotlar olamini serjilo misralar vositasida taʼsirchan va jozibador ifodalash imkoniyatlarining benihoyaligi bilan belgilanadi.

Arab sheʼriyatiga VIII asrdan tatbiq etilgan mazkur oʻlchov tizimi IX asr boshlaridayoq fors-tojik adabiyotida ham qoʻllanila boshlandi. Rudakiy, Firdavsiy, Daqiqiy, Umar Xayyom, Sadiy, Hofiz Sheroziy, Jomiy kabi buyuk shoirlar ijodidan mustahkam oʻrin oldi. IX-X asrlarda turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan koʻplab shoirlar oʻsha davr anʼanasiga koʻra oʻz asarlarini arab tilida yozar ekanlar, aruz oʻlchoviga asoslandilar, xilma-xil musiqiy va jozibador vaznlar zaminida gʻoyaviy va badiiy jihatdan barkamol qasida va gʻazallar, ruboiy va qitʼalar yaratdilar. IX asrda yaratilgan “Yatimat ud-dahr” kitobidan mashhur adabiyotshunos olim Abu Mansur as-Saolibiy arab tilida ijod qilgan koʻpgina adiblarning nomlari va asarlarini qayd

etadi. Ana shu ijodkorlar turkiy tilda ham aruzning yengil va o'ynoqi o'lchovlarida ko'plab lirik she'rlar yozganligi shubhasiz. Zero, bu xil tajribalarsiz IX asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig"dek yirik dostonining maydonga kelishi mahol edi. Ana shu davrdan boshlab to XX asrgacha bo'lgan o'zbek adabiyotida aruz tizimi asosiy tizimlardan biri bo'lib qoldi.

Aruz ilmi rivojiga turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan adabiyotshunos olimlar ham munosib hissa qo'shdilar. Mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy (X asr), Abu Ali ibn Sino (X-XI asrlar), Abul Qosim Zamahshariy (XI-XII asrlar), Abu Yaqub Yusuf ibn Sakkokiy (XII-XIII asrlar)lar o'zlarining arab va forsiy tilda bitgan ilmiy asarlari bilan faqat forsiy emas, ayni vaqtda turkiy aruz taraqqiyotiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadilar.

Turkiy aruzning nazariy va amaliy jihatdan shakllanishi va izchil rivojlanib borishida Alisher Navoiyning turkiy tilda yaratilgan "Mezon ul-avzon" ("Vaznlar o'lchovi") asari alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ulug' mutafakkir shoir aruz qoidalarini, xilma-xil bahrlari hamda vaznlarini turkiy tilda mufasssal bayon qilish bilan cheklanib qolmay, turkiy xalqlarning og'zaki she'riyati mezoni bilan aruz vaznlari hamohangligini atroflicha dalillari hamda turkiy til xususiyatlarini nazarda tutgan holda aruzning turkiy adabiyotlarda, xususan, o'zbek she'riyatida keng qo'llanishi mumkin bo'lgan ko'plab o'lchovlarini ham belgilab berdi.

O'zining lirik she'rlari va dostonlarini yaratishda aruzning rangorang vaznlarini sinchkovlik bilan sinovdan o'tkazgan Navoiy turkiy tillarda ham aruz o'lchovlari asosida turli tuman janr va shakllarda g'oyat latif lirik asarlar yaratish va yirik dostonlarni bitish mumkinligini amalda isbotladi. Bu bilan shoir turkiy tilning beqiyos boyligi va betakror go'zalligini she'riy o'lchov jihatidan ham namoyish qildi.

O'zbek aruzning nazariy va amaliy jihatidan yanada kamol topishida Zahiriddin Muhammad Boburning "Muxtasar" asarining ahamiyati beqiyosdir. Olim va shoir Bobur aruzning nazariy asoslarini mukammal yoritadi, aruz o'lchovlarining forsiy va turkiy she'riyatlardagi mavqeyini, ko'lamini har ikki adabiyotning o'lmas namunalari bilan dalillaydi, ayni vaqtda, o'zbek aruzi o'lchovlar doirasining nihoyatda kengligini ta'kidlash maqsadida she'riyatimizda qo'llanilishi mumkin bo'lgan 537 o'lchovni (ulardan 400ga yaqini mutloqo yangi, Bobur

tomonidan kashf qilingan vaznlar) sanab o'tib, ulardan har biriga bir baytdan misol keltiradi. Binobarin, "Muxtasar" asari o'zbek aruzining ilm sifatidagi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

XIX asrning oxirlarida Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham aruz ilmiga doir risola bitgan edi. Haligacha nashr qilinmagan bu asarni professor G'ulom Karimov Ostroumov fondidan topgan edi. 16 betlik bu kichik risolada shoir aruzning she'riyatimizda keng qo'llangan 55 vazni haqida ma'lumot bergan, har qaysi o'lchovga forsiy va turkiy adabiyotlardan namunalar keltirgan.

1936-yilda Fitrat qalamiga mansub "Aruz haqida" risolasi chop etildi. Olim unda aruz qonunlarini soddalashtirib bayon qiladi, she'riyatimizda qo'llanilgan eng musiqiy o'lchovlarning ohang xususiyatlarini ta'kidlab, ularga o'zbek adabiyotidan misollar keltiradi.

1948-yilda Sodiq Mirzayev "Navoiy aruzi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yozadi. Unda aruzning nazariy masalalari Navoiyning "Mezon ul-avzon" asari asosida bayon etilgan. Navoiy she'riyatida qo'llangan bahrlar ta'kidlab ko'rsatilgan edi. Olimning ulkan xizmati shunda bo'ldiki, u Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asaridagi 3132 ta she'rning vazn xususiyatlarini aniqlab, ularning ruknlarini, chizmalarini belgilab berdi. Bu jadvallardan adabiyotshunosligimizda hozirga qadar foydalanib kelinmoqda.

O'zbek aruzning nazariy va amaliy masalalari taniqli olim Alibek Rustamovning "Aruz haqida suhbatlar" risolasi ham o'z aksini topgan. Tadqiqotchi o'z asarida Fitrat risolasi haqida an'analarni davom ettirib, aruz qonunlari, xilma-xil bahrlar, vaznlarning ohang xususiyatlarini osonlashtirib ifodalash usulini qo'llaydi. Alibek Rustamovning Navoiy va Habibiy she'rlarining vazn xususiyatlari haqidagi tadqiqotlari ham o'zbek aruzidagi badiiy mahorat muammolarini hal qilish nuqtai nazaridan ahamiyatlidir.

Adabiyotshunos S.Hasanovning Bobur risolasi tadqiqiga bag'ishlangan izlanishlari (S.Hasanov. Boburning "Aruz risolasi" asari. "Fan" nashriyoti. Toshkent, 1981) ham o'zbek aruzining nazariy va amaliy muammolarini hal qilishga, xususan, mazkur risolaning ilmiy-amaliy qimmatini atroflicha yoritishga bag'ishlangan edi. Keyingi yillarda o'zbek aruzining nazariy masalalarini o'rganish ustida zahmatkash olim Ummat Tuychiyev jiddiy ilmiy tekshirishlar olib bordi, uning "O'zbek poeziyasida aruz sistemasi" ("Fan", Toshkent.

1985) sarlavhali yirik ilmiy asarida ana shu tadqiqotlarning natijasi o‘z aksini topgan. Adabiyotshuos olim Anvar Hojiahmedovning qator ilmiy risolalarida o‘zbek aruzi, uning o‘ziga xos xususiyatlari Navoiy, Ogahiy ijodi misolida tadqiq etiladi.

Hijo, Juzv, Rukn, Bahr, Aruz doiralari singarilar aruzning asosiy nazariy birliklari sanaladi. O‘zbek aruzida sabab, vatad hamda fosilalar birikuvidan aruz vaznining asllar deb ataluvchi quyidagi ruknlari hosil bo‘ladi:

Rukn nomi	Chizmasi	Rukn nomi	Chizmasi
Faulun	V - -	Mustaf’ilun	- - V -
Foilun	- V -	Maf’ulotu	- - - V
Mafoiylun	V - - -	Mutafoilun	VV - V -
Foilotun	- V - -	Mafoilatun	V - V V -

Bahr – arabcha “dengiz” degan ma’noni anglatadi. Aruz atamalaridan biri bo‘lib, ushbu tizimni tashkil etuvchi asosiy, yirik o‘lchov turini ifodalaydi. Bahrlar asllar deb ataluvchi sakkiz ruknning turlicha tartibda takrorlanishidan hosil qilinadi. 7 aslning aynan takroridan 7 bahr tuziladi. Maf’ulotu asli takrorlanmaydi. Ularni chizmada tasvirlasak, quyidagi ko‘rinishni oladi:

Rukn nomi	Chizmasi	Bahr nomi
Faulun	V - -	Mutaqorib
Foilun	- V -	Mutadorik
Mafoiylun	V - - -	Hazaj
Foilotun	- V - -	Ramal
Mustaf’ilun	- - V -	Rajaz
Maf’ulotu	- - - V	-----
Mutafoilun	VV - V -	Komil
Mafoilatun	V - V V	Vofir

Aruz vaznidagi she’r o‘lchovlarining asosiy turlari – bahrlar yuqoridagi 8 ruknning turli tartibda birikib takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Bir ruknning aynan takroridan tuzilgan bahrlar. Bunday bahrlar 7 ta bo‘lib, maf’ulotu bo‘lak, yuqoridagi yetti ruknning aynan takroridan hosil bo‘ladi. Ya’ni **faulun** rukni takroridan **mutaqorib** bahri, **foilun** rukni takroridan **mutadorik** bahri, **mafoiylun** rukni takroridan **hazaj** bahri, **foilotun** rukni takroridan **ramal** bahri, **mustaf’ilun** rukni takroridan **rajaz** bahri, **mutafoilun** rukni takroridan **komil** bahri hamda **mafoilatun** rukni takroridan **vofir** bahri hosil bo‘ladi.

Bir paytda bu ruknlar to‘rt marta takrorlansa, bunday vaznni **murabba’** (arabcha “to‘rtlik” degani), olti marta takrorlansa, musaddas (arabcha “olitlik” degani), sakkiz marta takrorlansa, **musamman** (arabcha “sakkizlik”) deb yuritiladi. Misollar:

Zamona kulfatidin bu ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi,

Bu charxi bemuruvvatdan ko‘ngul dog‘ o‘ldi, dog‘ o‘ldi.

Mazkur baytning ruknlari va chizmasi quyidagicha:

Za-mo-na-kul fa-ti-din-bu ko‘-ngul-do-g‘o‘l di-do-g‘o‘l-di,

V - - - V - - - V - - - V - - -

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Bu-char-xi-be mu-ruv-vat-din ko‘-ngul-do-g‘o‘l di-do-g‘o‘l-di.

V - - - V - - - V - - - V - - -

mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Ko‘rinadiki, bu baytda **mafoiylun** rukni sakkiz marta takrorlanayapti. Demak, ushbu she‘r *hazaji musammani solim* vaznida yozilgan ekan

Ikki xil ruknli bahrlar. Aruz vazniga mansub bir qator bahrlar ikki xil ruknning ma‘lum tartibda takrorlanishidan yuzaga keladi. Bunday birikib takrorlanish ikki turlidir:

Bittadan olingan ikki xil ruknning takrorlanishidan hosil bo‘lgan bahrlar. Bunday bahrlar bizga ma‘lum 8 ruknning ikkita-ikkita bo‘lib takrorlanishidan tuziladi.

Ikki bir xil va bitta boshqa xil ruknlarning takrorlanishidan tuzilgan bahrlar. Bunday bahrlar har bir misrada uch ruknning ma‘lum tartibda takrorlanishidan hosil bo‘ladi. Ulardan ikkitasi bir xil, uchinchi boshqa xil rukndan iborat bo‘ladi. Bir misrada uch, bir baytda esa oltita rukn ishtirok etgani uchun bunday bahrlar olti ruknlik, ya‘ni musaddas shakldagina namoyon bo‘ladi, ular murabba’ va musamman ko‘rinishlariga ega bo‘lmaydi.

Yuqoridagilardan vofir, muqtazab, madid, basit, qarib, mushokil, g‘arib, ariz va amiq bahrlari bizning she‘riyatimizda mutlaqo ishlatilmaydi. Ular arabiy va forsiy she‘riyat uchun xosdir. Mutadorik, komil, tavil bahrlaridan esa juda kam foydalanilgan. 9 bahr, ya‘ni hazaj, ramal, rajaz, muzore‘, xafif, mujtass, munsarih, sari‘, mutaqorib bahrlari she‘riyatimizda faol ishlatiladi.

MUMTOZ ADABIYOTDA BADIYI USLUB TUSHUNCHASI

Forsiy she'riyatdagi asosiy uslublar – xuroson, iroq va hind uslublari Sharq va G'arb tadqiqotchilari tomonidan keng tahlil qilingan. Lekin turkiy she'riyat, aniqrog'i o'zbek she'riyatining uslubiy xususiyatlari (agar Navoiy qaydlarini mustasno etsak) qadimda ham, yangi davrda ham mutlaqo muhokama ob'ekti bo'lgan emas. Vaholanki, bu masalaning to'g'ri yoritilishi mumtoz she'riyatimiz taraqqiyotining asosiy tendensiyalari va bosqichlarini to'g'ri belgilash, har bir adabiy jarayonning novatorligini ob'ektiv baholashga imkon beradi.

Navoiy asarlarida uslub so'zi ko'pincha janr ma'nosida(g'azal uslubi, qasida uslubi) ishlatiladi. Lekin shunday o'rinlarda ham har bir janrning o'ziga xos (kanonik) uslubga ega ekanligi nazarda tutiladi.

She'riyatda muayyan uslubiy yo'nalish haqida gap borganda Navoiy "turkona" atamasini qo'llaydi. Shoirning nozik qaydlari, garchi yo'l-yo'lakay bayon qilingan bo'lsa-da, turkiy she'riyat uslubiga doir birinchi jiddiy tajriba hisoblanadi. Ana shu asosda o'rta asrlar o'zbek she'riyatidagi asosiy uslublarni shunday tasnif etish mumkin:

1. Turkona uslub. Navoiy "Majolis un-nafois"ning bir qancha o'rinlarida turkona degan ta'rif-istilohni ishlatadi. Navoiy keltirgan she'riy namunalar poetikasini kuzatish asosida turkona uslubni shunday xarakterlash mumkin: fikr va kechinmalarni murakkab tashbehu istioralarsiz, sodda va oddiy (avtologiya) bayon etish turkona uslubning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Shuningdek, poetik sintaksisning oddiyligi, yengil vaznlarning (ko'proq milliy zaminga ega bo'lgan ramal va hazaj bahri) qo'llanishi, qofiya masalasida folklorga yaqinlik, janr hukmronligi, poetikasi borasida ham turkona uslub o'ziga xoslikka ega. Lekin bunday she'rlar uchun xilma-xil poetik shakllar muhim bo'lmasa-da, tajnis san'ati uchun alohida ahamiyatga ega. Binobarin, Navoiy shu uslubga mansub she'rlar haqida so'z yuritganda ulardagi tajnisni alohida ta'kidlab ("tajnisni yaxshi topibdur") o'tganligi bejiz emas.

Bu hodisa ham aslida milliy zamin bilan aloqador. Chunki turkiy tilda tajnis va iyhom forsiyga nisbatan ko'proq ekaniligini Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida maxsus eslatib o'tgan.

Navoiy ma'lumotlariga qaraganda, uning zamonida ham turkona uslubning namoyondalari irod qilgan. Lekin bir dalil bu uslub Navoiydan

keyingi davrlarda ham davom etganligidan dalolat beradi. Jumladan, Navoiyning tazkirachilik sohasidagi davomchilari – salaflaridan bo‘lmish Sodiqbek Sodiqiy (Sodiq Kitobdor) “Majmu ul-havodis” nomli tazkirasida Mavali Turkman haqida: “she’ri (ya’ni she’rni) turkona aytur erdi”, deb yozadi.

2. Mumtoz (klassik) uslub. Bu uslubning asosiy xususiyatlari: g‘azal va qasidaning yetakchi mavqe egallashi; g‘azal mavzusining boyishi, poetikasining takomillashuvi va boshqalardir. Tematikaga falsafiy-tasavvufiy ruhning, ijtimoiy, axloqiy fikrlarning kirib kelishi g‘azalning uslubida ham o‘zgarishlar yasadi: metaforik bayon uslubi (majoz bilan so‘zlash) yetakchilik qila boshladi.

Bu uslubning shakllanish jarayoni va yetakchi namoyondalari masalasida ham Navoiyning ayrim qaydlari muhim rol o‘ynaydi. Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn”da turkiy tildagi she’riyatning rivojini hukmdorlik turkiy xonlar qo‘liga – Huloguxon (vaf.1283) davridan Shohrux hukmronligining oxirigacha (1447) o‘tganligi bilan izohlaydi. Bu davrda “turkiy tili bilan shuaro paydo bo‘ldilar... Shuaro: Sakkokiy va Haydar Xorazmiy va Atoiy va Muqimiy va Yaqiniy va Amiriy va Gadoiydeklar. Va forsiy mazkur (Xoqoniy, Anvari, Kamol Ismoil, Zahir, Salmon, Firdavsiy, Nizomiy, Mir Xusrav, Sa’diy, Hofiz) bo‘lg‘on shuaro muqobalasida kishi paydo bo‘lmadi, bir Mavlono Lutfiydin o‘zgakim, bir necha matla’lari borkim, tab’ ahli qoshida o‘qusa bo‘lur”.

Mazkur shoirlar qatoriga Yoqubjon Is’hoqov Navoiyga noma’lum bo‘lgan va Sherozda yashab ijod etgan turkiy shoir Haydar Xorazmiyni ham ilova qiladi. Ana shu ijodkorlarni o‘zbek poeziyasidagi mumtoz uslubning namoyondalari, deyish mumkin. Lekin Atoiy poetikasidagi turkona uslubning izlari ancha aniq saqlangan. Lutfiy she’riyati o‘z mohiyati va poetikasi bilan ularning barchasidan yuqori turadi va fors adabiyoti namoyandalari bilan bahslasha oladi.

Xullas, mumtoz uslubning shakllanishi ancha oldin – Rabg‘uziy va Xorazmiy davrlaridan boshlangan bo‘lib, Lutfiy ijodiyotida o‘z takomilining oliy nuqtasiga yetgan. Bobur she’riyatini esa mumtoz uslubning yangi bosqichi sifatida baholash mumkin. Mumtoz uslub namoyandalarining aksariyati zullisonayn ijodkorlar bo‘lib, forsiyda ham erkin ijod qila olishgan. Ular ijodida (obrazlar tizimi, san’atlar) forsiy an’analarning izi qay darajada bo‘lmasin, baribir, tafakkur tarzi o‘zgarmagan. Shuning uchun ham bu uslubni soddacha ulug‘vorlik deb

atash mumkin.

3. Oliy yoki navoiyona uslub. Navoiy she'riyati madaniyatimiz tarixida favqulodda va ayni zamonda qonuniy hodisa. Chunki bu she'riyat qariyb besh asrlik tajribaga ega bo'lgan forsiy va turkiy adabiyotning qonuniy davomi sifatida yuzaga keldi. Binobarin, bu she'riyat uslubining mohiyatini aniq baholash uchun uning shakllanishida zamin bo'lgan ob'ektiv va sub'ektiv omillarni to'g'ri belgilash lozim.

Navoiy uslubi besh asr davomida to'plangan boy adabiy tajribalar zaminida tarbiyalangan ulug' ijodkor kashfiyotlarining bevosita ifodasidir. Navoiy uslubi barcha uslublar uchun xos bo'lgan eng xarakterli jihatlarning sintezidan iborat mutlaqo yangi hodisa. Shu jihatdan bu uslubda an'ana va yangilanishning o'zaro munosabati nihoyatda yorqin namoyon bo'lgan. Zotan, turlicha badiiy uslublar sohasida an'ana va yangilik dialektikasi juda yorqin ko'zga tashlanadi. Haqiqiy buyuk yozuvchining uslubidagi yangilanish u mansub bo'lgan milliy adabiyotga xos an'anaga suyanmay voqe' bo'la olmaydi. Biroq adabiy hodisalarning ichki tuzilishini, tabiatini, ularning ijtimoiy ildizlarini, vujudga kelishini anglamaslik mumkin emas.

Bu masalada Navoiyning o'z qaydlari, e'tiroflari tadqiqotchi uchun asosiy yo'llanma hisoblanadi. Navoiy bir qit'asida o'zining g'azal borasidagi ustozlarini eslab, ular an'alarining qaysi jihatlari o'zi uchun ibrat bo'lganligiga ham ishora qiladi. Maxsus yozilgan bu qit'aning mohiyatini kengroq izohlash Navoiy uslubining ildizlarini to'g'ri belgilashda muhim rol o'ynaydi. Chunki ijodkorning o'z e'tiroflari haqiqatni to'liq aks ettirmasa-da, lekin uning muayyan qirralari va asoslarini anglab yetishga yordam beradi. Navoiy ushbu qit'ada shoir nazmi (g'azal nazarda tutilgan) shunday bir ko'zguki, unda uchta go'zalning latofati jamuljam bo'lgan holda namoyon bo'ladi, deydi. Navoiyning har bir baytida mazkur uchta ustozning (Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiy) holati, nafasi ufurib turadi. Aniqroq qilib aytganda, Navoiy she'riyatida uch buyuk she'riyat dahosining asosiy fazilatlarini sintezlashgan.

Alisher Navoiyning mazkur uch ustozga nisbatan yuksak e'tiqodi "Mahbub ul-qulub"da yanada aniqroq ifodalangan. Umuman, Navoiyning uslub haqidagi tushunchasi keng bo'lib, ijodkorning falsafiy pozitsiyasi hamda estetik prinsiplarini qamrab oladi.

Adabiy vorislik hodisasi murakkab bo'lib, uning amalga oshishi

turlicha ko‘rinishda – ongli munosabat sifatida yoki beixtiyor bo‘lishi mumkin. Masalan, Navoiyning forsiy devonidagi “tatabbu”, “tavr” deb atalgan g‘azallarda shoirning poetik an‘analarga munosabati aniq ifodalangan. O‘zbekcha she‘rlaridan esa bitta o‘zbekcha javob g‘azali misolida uning an‘anaga nisbatan ijobiy munosabati va individual uslubi haqida muayyan tasavvur paydo qilishimiz mumkin.

Navoiyning poetik uslubi (an‘ananing roli qay darajada bo‘lmasin), birinchi navbatda, yangi tarixiy-madaniy muhitning, o‘ziga xos daho san‘atkor ijodiy faoliyatining mahsuli. Binobarin, bu uslubning asosiy belgilari muallif dunyoqarashi, uning shaxsi bilan chambarchas bog‘liq. Zotan, “shoir ijodiy faoliyatining manbai uning shaxsida ifodalangan ruhidadir. Binobarin, shoir ruhini va uning asarlari xarakterining dastlabki izohini uning shaxsidan qidirmoq kerak” (V.G.Belinskiy). Navoiy uslubining mohiyatini ham uning shaxsi bilan bog‘liq holdagina izohlash mumkin.

Oliy yoki Navoiy uslubining asosiy xususiyati – undagi ichki qatlamning nihoyatda boy va rang-barangligidir. Unda turli uslubiy yo‘nalishlar mujassam bo‘lgan (jimjimadorlik, ulug‘vorlik, bezakdorlik, emotsionallik, mulohazakorlik, mazmundorlik, vazminlik va boshqalar).

Oliy uslubning yuzaga kelishi qo‘yidagi omillar bilan bevosita aloqador:

- Navoiy lirikasining falsafiy-ijtimoy mohiyati, uning pafosi bilan, shuningdek, Navoiy ijodida lirika janr nuqtai nazaridan mukammallikka erishdi;

- janrning ichki rivoji, dinamikasi eng yuksak darajaga yetdi. G‘azal tematik-problematik jihatdan ham, poetika tomonidan ham eng oliy nuqtaga ko‘tarildi;

- g‘azalning mohiyatidagi o‘zgarishlar uning poetikasida ham bir qator sifatlarni yuzaga keltirdi: bayon-tasvir yo‘llari kengaydi, sujetlilik yuzaga keldi;

- she‘riy vazn doirasi kengaydi, mumtoz qofiya nazariyasi doirasida yangicha stilistik kombinatsiyalar amalga oshirildi;

- badiiy san‘atlarning ko‘lami va qo‘llanish darajasi, aspekti nihoyatda kengaydi;

- lirikada istioraviylik oliy cho‘qqiga yetdi: tashbeh eng asosiy badiiy tasvir vositasi sifatida nihoyatda faollashdi, uning mavqeyi kengayib, realistik lavha ko‘rinishidagi o‘xshatishlarning yuzlab namunalari

yuzaga keldi.

Navoiy lirikasining poetikasiga xos xususiyatlar murakkab va salmoqli badiiy uslubning shakllanganligidan dalolat beradi. Bu uslub adabiyotimiz tarixida mutlaqo yangi hodisa bo'lib, olim, mutafakkir, betakror adib va ulkan shaxs ijodiy tafakkuri mahsuli bo'lmish bu uslubni oliy uslub deb atash o'rinli bo'ladi.

Xalq kitoblari – elu-yurt orasida tildan-tilga ko'chib yurgan og'zaki ijod durdonalarining xalq shoirlari yoki hattotlar tomonidan ko'chirilgan, qayta ishlanib kitobat qilingan variantlaridir. Adabiyotga ixlosmand, xat-yozuv mashqini egallagan ayrim shaxslar mavjud xalq kitoblarini o'z didi, saviyasi talabiga muvofiqlarini tanlab qayta-qayta ko'chirgan. Shu bois ularning turli davrlarda, turli joylarda, turli shaxslar tomonidan ko'chirilgan o'nlab qo'lyozma nusxalari, variant va versiyalari paydo bo'lgan. Xalq kitoblarining shunday xillari ham borki, ular folklorda ham, individual ijod mahsuli sifatida yozma adabiyotda ham mavjud. Masalan, “Yusuf va Ahmad” asari. Xalq kitoblarining ayrimlari yozma adabiyot namunalari asosida yaratiladi, masalan, Umar Boqiy asarlari.

Xalq kitoblari epik ijodning alohida janri emas, balki u folklor va yozma adabiyotning oraliq navi, turkum asarlar atamasidir. Ularni o'zaro bog'lovchi ko'prik har xil tur va janrlar sintezidan tarkib topgan sikl asarlar yig'indisidir.

Xalq kitoblari bizgacha roviylar, qissaxonlar orqali og'zaki, ba'zan esa kitobat holida yetib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib shunday asarlarga talabning kuchayishi va yirik shaharlarda kitob chop etishning paydo bo'lishi bilan ularning navlari hamda tarqalish doirasi kengaygan, turli tuman tungi o'tirishlar – gap, gashtak, mashvarat, bazm, sayllar hamisha afsonaviy, ajoyib-g'aroyib sarguzashtlar tasviriga boy xalq kitoblari – qissalarni tinglash bilan o'tkazilgan.

XVII-XIX asrlarda “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G'arib va Shohsanam”, “Sayyod va Hamro”, “Asli va Karam”, “Sanobar”, “Yusufbek va Ahmadbek”, “Alibek bilan Bolibek”, “Xurshid va Malikai Dilorom” kabi xalq dostonlarining turli variantlari yoki ularning sujet va kompozitsiya tarkibiga kirgan ayrim qismlari xalq orasida keng tarqalgan edi. Bu dostonlarning ildizi uzoq zamonlarga borib taqalgani singari, ular keyingi asrlarda ham shakllanib, mukammallashib bordi, ularning yangi-yangi variantlari paydo bo'ldi.

XX asrning o'rtalarida O'rta Osiyoni aylanib chiqqan A.Vamperi

xalq o'rtasida keng tarqalgan xalq romanlari haqida shunday deb yozadi: "O'zbeklarda bunday romanlar son-sanoqsiz ko'p bo'lib, ularda o'zbeklarning milliy ruh va iftixorini, mardlik va qahramonligini aks ettiruvchi ko'pgina manzaralarni topish mumkin".

Xalq kitoblari asosan, muayyan bir afsonaviy yoki an'naviy sujetning biron-bir ijodkor shaxs tomonidan qalamga olinib, qayta ishlangan, adabiy lashtirilgan, avtorlashtirilgan namunasidir. U og'zaki adabiyot bilan yozma adabiyotni bir-biriga bog'lovchi, badiiy so'z san'atidagi bu ikki soha o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'sirning mevasi sifatida yuzaga kelgan asarlar turkumi, oraliq janr bo'lganligi uchun ham folkloristikaning, ham adabiyotshunoslikning ob'ekti sanaladi. Xalq kitoblarida rivoyatlar, epizodlar, obrazlar va motivlar ancha kuchli bo'lib, fantastika real tarixiy, hayotiy voqealar bilan qorishiq holda beriladi. Bunday asarlarda sujet chizig'i murakkabligi, bir necha sujetlar, sujet tarmoqlarining o'zaro bog'liqligi, bosh sujet chizig'ining murakkabligi, kompozitsiyada ko'pqirralik bo'rtib turadi. Qahramonlarning sarguzashtlari rivoya usulida, ishqiy-romantik planda, bir-biriga o'xshash situatsiyalarda bayon qilinadi.


Voqealar bayoni rivoya usulida nasrda berilgani holda, personajlarning his-tuyg'ulari, holat va kayfiyatlari, bir-biriga murojaat va munosabatlari, istak va armonlari lirik she'rlarda ifodalanadi. Liro-epik janrdagi qissalarda nazmga nisbatan nasr ustunlik qiladi.

Xalq kitoblarini janr xususiyatlariga ko'ra ishqiy-romantik, novellistik (ishqiy-sarguzasht), xayoliy-fantastik asarlarga ajratish mumkin. Lekin ularni tematik jihatdan qat'iy chegaralash mumkin emas. Ko'pgina xalq kitoblarida tarixiy-romantik, qahramonlik, fantastik epizod va lavhalar, shular bilan bog'liq bo'lgan motivlar qorishiq holda ko'rinadi. Bu hol, albatta, xuddi uning tili va poetikasida o'z izini qoldirgandek, xalq kitoblarining qissa, rivoyat, afsona, ertak kabi xalq og'zaki ijodi sujetlari va motivlari negizida kelib chiqqanligi bilan ham izohlanadi.

Xalq kitoblarini asosan, qissaxonlar ijro etishgan. Qissaxonlar muayyan xalq kitobini – qissani o'z hofizalarida saqlab, o'ziga xos ohang va usulda xalq o'rtasida kuylagan. Asar sujeti va mazmunining xalq xotirasida mustahkam saqlanishiga harakat qilgan. Shuning uchun ham xalq, o'z navbatida, faqat yaxshi qissalar yaratgan mualliflarnigina emas, balki ularning ijrochilari sanalmish yaxshi qissaxonlarni ham sevgan.

ISLOMGACHA BO‘LGAN DAVR ADABIYOTI

Sirli hodisalar o‘rtasidagi tortishuv, bahs va kurashlar o‘rnini asta-sekinlik bilan vatanparvarlik, qahramonlik motivlari egallay bordi. Markaziy Osiyo xalqlarining xuddi shu mazmundagi o‘nlab qissa va eposlari turli manbalar orqali bizgacha yetib kelgan.



Ushbu afsona va qissalarning barchasi Markaziy Osiyo xalqlari qadimda ko‘pgina badiiy yodgorliklar yaratganligidan dalolat berib turibdi. Bu yodgorliklarning ildizi xalq va jamiyat hayotiga chuqur singib ketgan. Avlodlardan avlodlarga o‘tar ekan, bu afsonalarning shakli o‘zgarib, badiiy libosi yangilanib borgan. Ularning aksariyatida xalq hayotining muhim lavhalari o‘z aksini topgan. ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi kurash, vafodorlik, sadoqat madhi, qahramonlik, vatan himoyasi yo‘lidagi mardlik va tadbirkorlik g‘oyalari afsonalarda bosh o‘rinni egallaydi.

O'RXUN YOZUVIDAGI YODGORLIKLAR

XI asrning yirik olimi Mahmud Qoshg'ariy Movarounnahrni Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada urf bo'la boshlagan paytda yashab ijod etgan. Bobosi Muhammad asli Qoshg'arlik bo'lib, Mahmud Qoshg'ariy Bolasog'unda tug'ilgan. Kelib chiqishi va va tiliga ko'ra Koshg'ariy nisbatini olgan. Yigitlik yillarini Bolasog'unda o'tkazgan Mahmud Qoshg'ariy umrining katta qismini turkiy xalqlar yashaydigan o'lkalarni kezib, ularning madaniyati, tili, sheva va lahjalarini o'rganish, adabiy til bilan chog'ishtirish, material to'plash bilan o'tkazadi. O'zining bu ishlari haqida olim bunday deb yozadi:

“Men turklar, turkmanlar, o'g'izlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, turli xil so'z xususiyatlarini o'rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni aniqlash uchun ham qildim. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”. (M.Qoshg'ariy. “Devonu lug'otit turk”. 1-j. T., 1960, 44-bet.)

O'z ilmiy kuzatishlarining yakuni sifatida umrining yetuk davrida “Javohirun nahv fi lug'otit turk” (“Turkiy tillarning sintaksis qoidalari”) va “Devonu lug'otit turk” asarlarini yozadi. Birinchi asar bizgacha yetib kelmagan. Ikkinchi asar hozirgi hisob bilan 1072-1074 yillarda yozib tugatilgan va abbosiy xalifalar avlodidan bo'lgan Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlangan. Asarning asosiy matni o'sha davr an'anasiga ko'ra arab tilida yozilgan bo'lib, turkiy tilning boyligini, mazmundor va rang-barangligini tushuntirish uchun yaratilgan, deb taxmin qilish mumkin.

“Devoni lug'otit-turk” asari endilikda barcha turkiy xalqlar tillari, jumladan, o'zbek tili tarixini o'rganishda beqiyos yodgorlikdir.

Mahmud Qoshg'ariyning adabiy merosini o'rganish bo'yicha bir qancha o'zbek olimlari, turkologlar tadqiqotlar olib borishgan. Fitrat, Mutallibov, Stebiva, Reshetov, Abdurahmonov, Rustamov kabi olimlar Mahmud Qoshg'ariyning qadimgi turkiy tillarni o'rganishga buyuk hissa qo'shgan o'z davrining o'ta bilimdon olimi ekanligini ta'kidlaydilar. Hozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi XI asr buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy qiyosiy tilshunoslikning asoschisi, deb tan oladi.

“Devonu lug‘otit turk” sahifalari bilan tanishar ekanmiz, ko‘z oldimizda Mahmud Qoshg‘ariy geograf, botanik, zoolog, tilshunos, folklorshunos, adabiyotshunos, tarxichi olim sifatida namoyon bo‘ladi. SHuning uchun ham olimni qomusiy olim, asarni esa qomusiy asar deya olamiz.

8 bo‘lim, muqaddima va xulosa qismlaridan iborat bo‘lgan ushbu asarning har bir bo‘limida ot-ism so‘zlar, fe‘llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. Unda 7500 dan oshiq turkiy so‘z va iboralar izohlangan. Lug‘atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o‘lka nomlari, daryo, tog‘, yaylov, vodiy, dara, yo‘l, dovon, ko‘l, soy kabi jug‘rofiy atamalar, turli qabila, urug‘, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy maqol va hikmatli so‘zlar, 700-misradan oshiq she‘riy parchalarning ko‘p qismi turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga xos to‘rtliklardan iborat. Ammo “Devon” ga kiritilgan she‘riy parchalarning 150 misraga yaqin islom davri she‘riyatiga xos bo‘lgan bayt tipidagi masnaviy, qasida, qit‘a, g‘azal parchalari bo‘lib, ularni Qoshg‘ariyning o‘zi ham ko‘pincha “bayt” deb ataydi. VIII-XI asrlarga oid turkiy she‘riyat namunalarida u yoki bu darajada aruz vazniga o‘tish moyilligi seziladi.

Kitobda 7 ta epik doston, ishqiy qo‘shiqlar, pandnomalar, koinot yaratilishiga oid asotir, she‘rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar, falsafiy mushohadalar uchraydi. “Devon” dagi epik doston-qo‘shiqlar ko‘proq jangnoma xarakterida bo‘lib, ba‘zi yirik parchalarga shartli ravishda “Tangutlar bilan jangnoma”, “Uyg‘urlar bilan jangnoma”, “YAbaku bilan jangnoma” deb nom qo‘yilgan. Ularda turkiy elatlarning shijoati, qiyinchiliklarga bardoshi, jasurligi, harbiy hiylalar, siyosiy kurash, elparvarlik, mardlik tuyg‘ulari tavsif etilgan.

Devonda saqlangan ikki yirik asar ko‘pchilikning diqqatini o‘ziga tortadi:

1. “Alp er To‘nga marsiyasi”.
2. “Qish bilan yoz munozarasi”.

“Devonu lug‘otit turk” da dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko‘rsatilgan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Bolasog‘un, SHosh, O‘zgan, Isfijob, Marg‘inon kabi shaharlar ushbu hududga aloqador ko‘rsatilgan. XI asr jug‘rofiy tasavvurlaridan darak beruvchi

xaritaning ilova qilinishi Qoshg'ariyning qomusiy alloma ekanligini yana bir marta isbotlaydi.

XI asrda yaratilgan “Devonu lug‘otit turk” asaridagi she‘riy parchalar V-VI asrlarga tegishlidir. Ular bir qancha adabiy janrlarda yaratilgan bo‘lib, masnaviy, munozara, to‘rtlik, ruboiy, murabba’ shular jumlasidandir. To‘rtlik shakliga tayangan she‘riy parchalarni Mahmud Koshg‘ariy, asosan, “qo‘shug‘” deb ataydi. Mehnat va marosim qo‘shiqlari, lirik she‘rlar a-a-a-b shaklida qo‘fiyalangan. To‘rtliklar orasida a-b-v-b, a-a-a-a shaklida qo‘fiyalanganlari ham bor. Xalq qo‘shiqlari barmoq vaznida yaratilgan bo‘lib, 7 bo‘g‘inli misralardan tuzilgan. Turoqlar 4+3 shaklida.

“**Qo‘shug‘**” atamasini olim qo‘shiq, qasida, she‘r deb izohlaydi.

Buddaga sig‘ishuvchi turkiylarda “**takshut**” atamasi “she‘r”, “nazm”, “bayt”, “manzuma” ma‘nosini anglatgan.

“**Ir**” (**yir**) atamasi g‘azal, maqom, kuy o‘rnida qo‘llangan.

“**Kug**” atamasi kuy, she‘r vazni, she‘r ma‘nolarini anglatadi.

Kuglar qamug‘ tuzuldi.

Ivrish idish tuzildi.

She‘rlar tugal tuzildi, ichimlik va qadoqlar tuzildi.

Budda davri adabiyotida uchraydigan “**shlok**” istilohi sanskritcha “shlo-ka” so‘zidan olingan bo‘lib, “manzuma”, “madhiya” ma‘nosini anglatadi.

Asarda ovchilik, chorvachilik mavzularidagi qo‘shiqlardan tashqari ishq – muhabbat xaqidagi qo‘shiqlar ham talaygina.

Masalan:

Ikladi manim azaq,

Ko‘rmazib o‘g‘ri tuzaq

Igladim andin uzaq

Emlagil emdi tuzaq

(Ilindi mening oyog‘im,

Yashirin ekan tuzoq.

Bo‘ldi azobi uzoq

Endi o‘zing em qilgin).

Qo‘shiqning lirik qahramoni “sevib qoldim” demaydi, balki “oyog‘im tuzoqa ilindi” deya tashbeh ishlatadi. Bu holning tasodifan, bir ko‘rishda bo‘lganligini “yashirin ekan tuzoq” tarzida ifodalaydi.

Aslida oshiqning oyog'i emas, qalbi tuzoqda. Bu dardga faqat mashuqaning o'zgina em bo'lishi mumkin. Bu holat qo'shiqlar badiiyati yuksakligidan, ular katta estetik tajriba samarasi ekanligidan dalolat beradi.

Asardagi she'riy parchalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini kuzatish qadimgi she'riyatimizda jiddiy shakllanish va rivojlanish jarayoni boshlanganidan dalolat beradi. Bularning bari olimni o'z davrining hamma zamonlarning buyuk adabiyotshunos olimi deb atashga huquq beradi.

Mahmud Qoshg'ariyning islomdan ilgari va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, to'plash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda ulkandir. Uning tarix, etnografiya, tarix-jug'rofiya xususidagi bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajada edi.

Xalq tafakkuri va ijodining mahsuli bo'lgan mif va afsonalar tarixiy sharoit va voqealardan kelib chiqadi. Xalq mashaqqatlari va orzu-umidlarini o'zida aks ettirgan bu miflar, afsonalar insoniyat jamiyatining dastlabki davrlaridagi go'zal badiiy lavhalardir. Mif va afsonalarning yuzaga kelish paytini belgilash g'oyat mushkul bo'lganidek, ularda tasvirlangan hodisalarning hayot haqiqatiga qanchalik mos kelishini aniqlash ham oson emas. Ammo ularda tasvirlangan qator sujetlar real borliq va inson hayoti ko'rinishlariga asoslangani aniq.

Bizgacha yetib kelgan mif va afsonalarning barchasi yozma manbalarda uchraydi. Ammo ular yozma manbalarga xalq og'zaki ijodi orqali kirib kelgan. Shuning uchun ularni xalq og'zaki ijodiga mansub, deb qaraymiz. Afsonalarning xalq hayotiga singib ketgani, ayrim marosim va urf-odatlariga asos bo'lgani esga olinsa, bu xulosa yanada qat'iylashadi. Ulardan ayrimlari bilan tanishib o'tamiz:

Kayumars afsonasi. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari orasida eng qadimiy davrlardan boshlab mashhur boʻlgan afsonalardan biri “Kayumars” dir. Kayumars afsonasining asosiy manbasi “Avesto” boʻlib, N.Mallayevning “Oʻzbek adabiyoti tarixi” kitobida aytilishicha, u Gaya Martan deb atalgan. Axura Mazda tomonidan yaratilgan va ikki vujudan: hoʻkizdan va odamdan tashkil topgan ekan. Kayumarsni Axriman oʻldiradi. Uning jasadidan 55 xil don, 12 xil oʻsimlik, sigir va hoʻkiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo boʻladi; odam qismidan insonning erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga keladi.

Bu afsonaning mufassal bayoni va uning turli nusxalari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar “Tarixi Tabariy” asarida berilgan. Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Kayumars afsonasiga bir bob bagʻishlangan. Afsonaning qisqacha tafsiloti Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asarida ham mavjud.

Jamshid haqida afsona. Qadimgi afsonalarda insoniyat hayotining turli lavhalari oʻz aksini topgan. Jamshid haqida afsonada hayot mantiqi, shaxsiy intilishlar yoʻliga oʻtishning mudhish oqibatlari ochiq bayon qilingan. E.Bertelsning “Istoriya tadjisksko-persidskoy literaturi” asarida “Avesto” dagi Jamshid-Yima afsonasi bayoni berilgan. Tarixiy manbalarning koʻpchiligida Jamshid haqida afsonalar keltirilgan.

Firdavsiy, Tabariy, Beruniy va Navoiy asarlarida ham Jamshid toʻgʻrisida ancha mufassal maʼlumotlar bor.

Navoiy “Tarixi muluki Ajam” da Jamshid uchun maxsus bob ajratadi va uni peshdodiylar tabaqasiga mansubligini, barcha ijobiy ishlarini sanab oʻtadi.

Navoiyning yozishicha, u “husnu jamolda dilnazir va fazlu kamolda benazir erdi, gʻarib ixtirolar qildi”. Qurol yasash, qalqon qilish undan boshlangan. Jamshid hammom bino etgan, toʻquv ashyolarini, rang ishlatishni bunyod qilgan, Istahr shahrini kengaytirgan, Chil minor degan gʻoyat muhtasham bino qurgan. Oʻsha imoratda Jamshid taxtga oʻtirgan kun “Navroʻz” deb atalgan. Uning hukmronligi 700 yil davom etgan. Keyin manmanlik kasaliga chalinib, oʻziga behad bino qoʻyadi va hatto oʻzini xudo deb eʼlon qiladi. Oʻz suratida butlar yasaydi. Zahhok Jamshidni tutib, “arra bilan ikki boʻlib, jismin pora-pora qildi”. Navoiy Jamshid hikoyasiga xulosa yasab shunday deydi:

Chu Jamshid taxt uzra tutti maqom,
Dimog'iga yo'l topdi savdoyi xom.
Ani qildi xaq amri aylab sitez,
Siyosat qilichi bila rez-rez.

Qo'shiq- san'atning insoniyat tomonidan eng oldin o'ylab topilgan turi, deb taxmin qilinadi. Rivoyatlarga qaraganda, Odam Ato o'g'li Hobil vafot etganida yig'lab marsiya aytgan va er yuzidagi birinchi qo'shiq o'sha bo'lgan. Odamzod tug'iloboq alla eshitadi, dunyodan o'tgandan keyin ham qo'shiq bilan kuzatiladi. Shuning uchun ham qo'shiq xalq og'zaki ijodining qadimgi va keng tarqalgan turi hisoblanadi. Qo'shiqlarda qalbning nozik va murakkab tuyg'ulari, qora so'zga sig'magan kechinmalari ifodalanadi.

Xalqimiz orasida uzoq yillardan buyon sevib ijro etiladigan lirik qo'shiqlarda muallifning ichki kechinmalari, tuyg'ulari, quvonchi-alamlari ifodalangan. Masalan: "Qizilini quyib yuziga" misrasi bilan boshlanuvchi qo'shiqda uchrashuvga otlangan qizning tashqi holati tasvirlanishi asosida uning ichki dunyosi, kechinmalari teran ochib berilgan. Qo'shiqda suluvning kiyimlari, sochbog'i, ming dinor turadigan gul shaklidagi taqinchog'i, tilla tugmalari nihoyatda qimmatbaho, nafis va noyob ekanligi emas, sanamning ma'naviy qiyofasi, zeboligini ta'kidlashga yo'naltirilgan. Suluv qiz tilidan aytilgan:

Gapim ayib etmasin,
Tilim toyib ketmasin,
Hay, gul bilan yelpib yur,
Betimni qavartmasin.
Zavqin kelib kulganda,
Belim sinib ketmasin, -

shaklidagi e'tiroflarda qizning nozikligi mahorat bilan ko'rsatiladi. Ayniqsa, tilning toyib ketmasligiga e'tibor qaratilgan. Ayrim qo'shiqlarda mahalliy turmush tarziga monand holatlar aks etadi:

Oy tug'adi panadan,
Qo'y yuradi yonadan (qiyalikdan)
Senday qiz paydo bo'ldi
Qanday gavhar donadan.

Oyning qay yo'sin, qay vaqtda tuqqanini bilib bo'lmaydi, u hamisha

uch kunlik bo'lgandan so'ng ko'zga ko'rinadi. Qo'y esa qiyalikda o'tlashni xush ko'radi, faqat bir umr jonliqlar bilan ish ko'rgan, qiradirlar bag'rida, osmon kengliklarini kuzatib yurgan kishigina shunday fikrlay biladi. Ammo bu kuzatishlar mashuqaning qanday yetuk otanonadan tug'ilganligidan ajablanganligini bildirish uchungina aytilgan.

Oq uyingga vassa terdim,
Sanamadingni juftmi toq,
Oq uningdan qiz chiqadir.
Qoshi qora, yuzi oq.

Ushbu qo'shiqning ma'nosidan anglashiladiki, oshiq mavqiyi qo'shiq qaratilgan odaminlikdan pastroq. Buni qo'shiqning dastlabki baytidan anglash mumkin. Lekin yigitni uyning oqligi-yu, xo'jayinning martabasi emas, uydan chiqayotgan "Qoshi qora, yuzi oq" qiz qiziqtiradi. Qo'shiqning keyingi bandida oshiq ko'k kaptarga havas qiladi, chunki ko'k kaptar xohlagan paytida bu xonadonga kela oladi. Yigit esa oydayilda bir keladi:

Ko'kkina kaptar emasman,
Kunda –kunda kelgani,
Oyda – yilda bir kelarman
Oy yuzingni ko'rgani

Xullas, xalq qo'shiqlari ifodaning nozikligi, ruhiy holat tasvirining mujassamligi bilan asrlar davomida qalblarni bog'lab keladi. Ularning badiiy ta'sir darajasi yillar o'tsa-da, yuksalib boradi.

YOZMA YODGORLIKLAR. QADIMGI YODGORLIKLARNING YOZUV XUSUSIYATLAR

Qadimgi turkiy yodnomalar ichida Kultegin, Bilga xoqon, To'nyuquq, Ungin, Moyun chur, Kuluchur kabi yodnomalar hajmining kattaligi, chuqur badiiyligi bilan adabiy manba sifatida o'rganshga loyiq. Bu yodgorliklar yuksak badiiyati tufayli olimlar diqqatini jalb qilib kelmoqda. Bu ilk o'rta asr madaniy yodgorliklar orasida Kultegin sharafiga bitilgan yodnoma badiiy tugalligi, matn qurilishidagi o'ziga xosligi va uslubi aniqligi bilan ajralib turadi.

Yodnomalarni har tomonlama o'rganish va boshqa tillarga tarjima qilishda A.Geykel, V.Tomsin, V.Radlov, G.Aydarov, N.Osim, X.Sheder

singari turkolog olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Urxun yodnomalarini badiyyat nuqtai nazaridan o'rganishda I.V.Stebleva katta ish olib bordi. U birinchi marta yodnomalarni "Qadimgi turkiylarning shoh asarlari" sifatida tasvirlaydi. Olimaning "VII-VIII asarlarida turkiylar poyeziyasi" nomli monografiyasida yodnomalarning kompozitsion qurilishi tovushlari, uslubining shakllanishi haqidagi fikrlar o'rtaga tashlanadi. Uning ikkinchi tadqiqoti "Qadimgi turkiy adabiyot poyeziyasi va uning ilk klassik davrga o'sib o'tishi" deb nomlanadi. Bunda olima bir qator faktik materiallarga asoslanib qadimgi turkiy adabiyotning kompozitsion qurilishi, adabiy kanon va alteratsion she'r sistemasidan qofiyali she'r sistemasiga o'tish qonuniyatlarini ochib beradi.

O'zbekistonda mazkur yodnomalarni o'rganish va ommalashtirish XX asrning 30-yillarida boshlanadi. 1928-yilda professor A.Fitrat Kultegin yodnomasidan bir parchani arab grafikasiga nashr qildi. A.Sa'diy bu yodnomalar asosida darslik yozishga harakat qilgan. Kultegin yodnomasini o'zbek tiliga ag'darish va nashri yuzasidan A.Qayumov, T.Salimovlar ko'p ishlarni amalga oshirgan. G'.Abdurahmonov va A.Rustamovlar tomonidan yodgorliklar yuzasidan qo'llanma yaratildi. Kultegin yodnomasining poietikasi, yodnomadagi g'oyaviylikning va badiiylikning mohiyati, obrazlilik yuzasidan N.Rahmonov tadqiqot olib borgan.

Kultegin yodnomasida badiiylikni ifodalovchi vositalardan biri alliteratsiyadir. Uning yodnomadagi funksiyasi shundan iboratki, alliteratsiya qo'shiqda obrazlilik paydo qilib, nutqning tovush ifodaliligini kuchaytiradi. Ritmning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi:

Tabg'ach bodinqa, biglik, o'rni, og'l, kung, tabg'och xalqiga bek
bo'ladigan o'g'ling qo'l bo'ldi. Suluv qizing cho'r bo'l.

Mazkur konsturuksiyadagi qo'l va kung so'zlarini alliteratsiyalashgan, deb qarash mumkin. Buning sababi shuki, birinchidan, har ikki tovush lingvistik nuqtai nazaridan sonor, jaranglilik bu tovushlarda boshqa undoshlarga nisbatan yaqqol ifodalanadi. Ikkinchidan, alliteratsiyalashgan tovushlardan keyingi so'zlarning takrorlanishi poietik forma qurilishiga aloqador bo'lib, aslida alliteratsiyaning yuzaga kelishida ana shu takrorning ham ahamiyati bor. Uchinchidan, bu so'zlarning bo'g'in jihatidan tengligi ham alliteratsiyaning yuzaga kelishida

ahamiyatlidir.

Xuddi shunday alliteratsiya quyidagi sintaktik birlikda ham ko‘rinadi.

O‘zi yanglti, qag‘ani o‘lti, boduni, ko‘ng, qo‘l, bolti- o‘zi yanglishdi, xo-qoni o‘ldi, xalqi qo‘l, cho‘ri bo‘ldi.

Yuqoridagi konstruksiyadan buning farqi shundaki, alliteratsiyalashgan so‘zlar uyushtirib berilgan. Bunday asosiy maqsad emotsionallikni va evfoniyani kuchaytirishdir. Bu esa yodnoma muallifining yuksak mahoratidan darak beradi.

Melioranskiy, Jirmunskiy, Shcherbak singari olimlar yodnomalarni prozali asar hisoblaydi va ularda alliteratsiya ikkinchi darajali rol o‘ynaydi, deb qaraydilar. Stebleva esa yodnomaga poietik asar sifatida yondoshadi, ularning tovush tuzilishiga, alliteratsiyaning funksiyasiga katta e‘tibor beradi. Olima yodnomalarni she‘riy qatorlarga bo‘lib chiqadi. Sibir va Oltoyda yashovchi xalqlar she‘riga tayangan holda qadimgi turkiy she‘riyat ham alliteratsiyali bo‘lgan edi, deb ta’kidlaydi.

N.Rahmonov yodnomadagi alliteratsiyani kuzatish maqsadida shunday xulosaga keladi:

1. Yodnomada gorizontall alliteratsiya mavjud.
2. Alliteratsiya sintaktik birliklar doirasida takrorlanadi.
3. Yodnomada undoshlar alliteratsiyasi mavjud bo‘lib, undoshlarning qattiq variant bilan qattiq varianti, yumshoq varianti bilan yumshoq varianti alliteratsiyalashadi.
4. Ba‘zan alliteratsiya bo‘g‘in va so‘zlar takrorlanishidan ham hosil bo‘ladi, masalan, quyidagi misolda bir o‘zakli so‘zlarning takrorlanishi alliteratsiyani yuzaga keltirgan.

Korur kozum kurmestig, bilir biligim, bilmistig bolti-ko‘rar ko‘zim ko‘rmaydigandek, bilar aqlim bilmaydigandek bo‘ldi.

Leksik vositalar orqali badiiylikning ifodalanishi Kultegin yodnomasida fonetik vositalarga nisbatan ko‘p uchraydi. Poietik kontekstda tushgan so‘z yodnomalarda obrazlilikni yuzaga keltirish, badiiy obrazni tipiklashtirish, romantik ko‘tarinkilikni ta‘minlash uchun xizmat qiladi. Bu jihatdan epitet va u birikkan ot turkumidagi so‘zning funksiyasi alo-

hida ahamiyat kasb etadi. Chunki boshqa soʻzlarga qaraganda ot va sifat elementlari obrazlilik, taʼsirchanlikni vujudga keltiradi. Ikkinchidan, epitet predmetni taʼkidlab koʻrsatadi Kultegindagi epitetning xususiyati ham bu jihatdan bevosita boshqa xalqlar badiiy asarlarining epitetlari bilan umumiy xususiyatlarga ega.

Yodnomada folklor asarlariga xos boʻlgan doimiy epitetlar qoʻllanilgan. Doimiy epitetlar deyilganda, ulardagi mazmunning bir xilda qaytarilishi emas, balki bir epitetning u yoki bu poyetik kontekstda bir xil konstruksiyada takrorlanishi tushuniladi. Mazmun esa ana shu poyetik kontekst talabi bilan yangilanadi.

Har bir poyetik hodisa badiiy fikrlashdan oʻsib chiqar ekan ular oʻziga xos belgi va xususiyatga ega boʻladi. V.M.Jirmunskiyning taʼkidlashicha, epitetlar badiiy tafakkurga bogʻliqdir. Badiiy tafakkurning oʻsishi bilan badiiy vositalar ham rivojlanib boraveradi. Yodnomadagi epitetlarga shu nuqtai nazardan qaraydigan boʻlsak, epitetlarning ifodalanishidagi qonuniyatlar keyingi davr badiiy asarlaridagi epitetlarning ifodalanishi bilan oʻzgachaliklarga ega ekanligini koʻrish mumkin. Bu farqni Kultegin yodnomasi va “Devoni lugʻatit turk” dagi epitetlar qiyosida koʻrish mumkin. Kultegin yodnomasida faqat doimiy epitetlar qoʻllangan boʻlsa, “Devoni lugʻatit turk” da individual epitetlarning namunasini koʻramiz. Epitetlar oʻsha davr adabiyotining va yozuvchining poyetik tafakkurini, poyetik mushohada qilish qobiliyatini koʻrsatar ekan, shu nuqtai nazardan yodnomalarni butunlay folklor asarlariga mansub, deb boʻlmaydi, balki ilk feodal davlatidagi muallifning tasavvuri maʼlum gʻoyalar atrofida aylanadi, bu esa boshqa badiiy vositalardan foydalanganda ham namoyon boʻladi.

XI asrga kelib predmetlarning ayrim tomonlari boshqa narsalarga qiyoslanadigan boʻldi. “Devoni lugʻatit turk” dan bir misol :

Yalvin aning koʻzi,

Yalqin aning oʻzi.

Toʻlin ayin yuzi

Yandi mening yurak . (“Devoni lugʻatit turk” 3-t. 40-b.)

Yodnomada koʻzga nisbatan faqat korur epiteti qoʻllaniladi:

Korur kozum kormazteg bilir biligim bilmazteg bolti- mening koʻrar koʻzim koʻrmaydigandek, bilar aqlim bilmaydigandek boʻldi.

Xuddi shunday hodisani “ Kitobi dada Qo‘rqut” da ham ko‘rish mumkin:

Menim ko‘rar ko‘zlarim kormaz uldu, tutar menim allarim tutmaz oldu.

“Korur” epitetiga nisbatan “yalvin” epitetining qo‘lanishi badiiy fikirlashdagi o‘zgarishdan dalolat beradi. Chunki bu davrda kelib individual uslub o‘z aksini topa boshladi va insonning u yoki bu holatiga mos ko‘rinishlar tabiatiga, narsalarga qiyoslanadigan bo‘ldi.

Yodnomada epitet bilan birga sinonim so‘zlarni ishlatish, o‘xshatish singari bir qancha badiiy tasvir vositalari ham qo‘llanilgan bo‘lib, ular hozirgi davr adabiyotidagi ana shunday badiiy tasvir vositalaridan harakat va ichki mohiyatga ko‘ra keskin farqlanadi. Abstraktlashtirish bu davrda kuchsiz taraqqiy qilganligi uchun bu badiiy tasvir vositalarining yuzaga kelishi ideallashtirish, mifologik fikrlash bilan bog‘liqdir.

Kultegin yodnomasidagi badiiy san’atlar sharq klassik adabiyotidagi, xususan, o‘zbek klassik adabiyotidagi kabi asosan tilning grammatik va semantik qonuniyatlari asosida hosil bo‘ladi. Bunday hodisa uning faqat shakliy tomonini tashkil etsa, asarga badiiylilik baxsh etishi mazmun tomonini tashkil etadi.

Yodnomada badiiy san’atlarning qo‘llanilishidan maqsad shuki, u barcha davrdagi badiiy asarlarga xos bo‘lganidek, ifodaning ixcham, sodda va ravon ifodalanishiga yordam beradi. Nutqning tovush tomondan va ma’no jihatidan yoqimli bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’no qonuniyatlari asosida hosil bo‘ladigan san’atlardan biri tajnis san’atidir.

Tongri tag tangrida bolmish turuk bilga qag‘an bu odka olurtim.

Mazkur konstruksiyadagi tangritag iborasida tajnis san’ati berilgan bo‘lib, “osmon” va “xudo” ma’nosida qo‘llangan. Tangri so‘zining “xudo” va “osmon” ma’nosida qo‘llanishi omonimik xususiyatga ega bo‘lishni nazarda tutilsa, “falakday xudo” deb izohlash semantik va grammatik jihatdan to‘g‘ri bo‘ladi.

Ma’lumki, tazod san’atida bir-biriga zid tushunchalarni ifodalovchi so‘zlardan foydalaniladi: Uza kok tangri asra yag‘iz yor qilintuqda okin ara kisi og‘li qilinmis uza- yuqori, asra-pastni; tangri- osmon, yar –

yerni vasf qilishning o‘ziyoq tazodni vujudga keltirilgan.

Yodnomada tazodning turli ko‘rinishlaridan foydalanish shuni ko‘rsatadiki, so‘zlar ma’nosidagi qarama-qarshilikning o‘ziga xos tarzda ifodalanish, ya’ni ot bilan fe’l, ot bilan ot turkumidagi so‘zlarning qarama-qarshi qo‘yilishi tufayli badiiy ifodalash imkoniyatlari kengaygan. Bu jihatdan tazod hosil qilishda qaysi so‘z turkumlaridan foydalanishning ham ma’lum darajada ahamiyati bor.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “turkiy xalqlarning yozma adabiyot namunalari qadimda xalq og‘zaki ijodi bilan yaqinlashdi, uning an’ana va badiiy fikrlash spesifikasini o‘zlashtirdi, xalqchilik va realizmni qabul qildi”.

G‘AZNAVIYLAR VA QORAXONIYLAR DAVRI ADABIYOTINING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillar keng tarqalganligi, aholi o‘rtasida turkiy va forsiy tildan keng foydalanilganligi haqida ma’lumotlar ko‘p.

Arab tili Markaziy Osiyoni islom madaniyati, arab dunyosi, arab tilida yaratilgan madaniy-ma’naviy boyliklar, yunon tilidan qilingan ilmiy tarjimalardan bahramand bo‘lishga olib kelgan bo‘lsa, fors tili eron madaniyatini chuqur o‘rganish, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini berdi. Mashhur qomusiy olimlarimizning ilmiy ijodlari asosan, arab tilida yozilgan. Ammo badiiy ijod 3 tilda: turkiy, forsiy va arab tillarida davom etdi.

Bu davrda Rudakiy, Abul Hasan Balxiy, Robiya, Abu Mansur Ahmad Daqiqiy, Firdavsiy, balxlik qasidanavis shoir Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriylar fors-tojik adabiyotining (dariy) yirik namoyondalari sifatida shuhrat qozonishdi.

XI-XII asrlarga kelib fors-tojik tilidagi adabiyot ancha rivojlandi. Nosir Xusrav (1004-1088) Qabadiyonda (hozirgi Tojikistonda) tug‘ilib, Turkiston, Afg‘oniston, Hindiston, Hijoz, Kichik Osiyo, Suriya, Arabistonda bo‘ldi. SHu safarlar natijasida “Safarnoma” asarini yaratadi. Diniy-falsafiy muammolar, ilg‘or axloqiy-tarbiyaviy fikrlar ilgari surilgan “Zod al-musofirim”, “Vajhi din”, “Jami al hikmatayn”, “Saodatnoma” singari asarlar-yozadi, devon tuzadi.

1048-yilda Nishopurda tugʻilgan Umar Xayyom (v.1131) astronomiya, matematika, falsafaga oid asarlar yaratib, adabiyot sohasida falsafiy mazmundagi ruboiylari bilan shuhrat topdi. Uning ruboiylari mavzu doirasining kengligi, falsafiy teranligi, badiiy yuksakligi bilan hanuzgacha butun insoniyat maʼnaviyatiga kuchli taʼsir oʻtkazib kelmoqda.

Abu Nasr Asadi Tusiy (v. 1070) Firdavsiy “SHohnoma” si izidan borib, “Gershaspnoma” dostonini yaratdi. U “Er va osmon”, “Kecha va kunduz”, “Nayza va kamon”, “Musulmon va kofir”, “Arab va ajam” singari munozaralari bilan fors-tojik adabiyotidagi munozara janrining asoschisi boʻldi. Shuningdek, u fors tilining eng qadimgi izohli lugʻatini ham yaratdi.

Arab tilida ijod qilgan adiblar haqida toʻliq maʼlumot Abu Mansur as-Saolibiyning “Yaʼatimat ad-dahr fi mahosin ahl al-asr” asari orqali yetib kelgan. Asar toʻrt qismdan iborat boʻlib, uning toʻrtinchi qismi xurosonlik va movarounnahrlik 124 ijodkorga bagʻishlangan. Arab tilida ijod qilgan ushbu ijodkorlarning 4160 baytga yaqin sheʼrlari kiritilgan boʻlib, ular qasida, vaf, hajv, marsiya, masnaviy, gʻazal, urjuza janrlariga mansubdir.

Keng tarqalgan turkiy til Oʻrta Sharq va shimoldagi, Qoshgʻardagi barcha turkiy tilli xalqlar bilan tarixiy-madaniy aloqalarning yanada kuchayuviga olib keldi.

M.Qoshgʻariyning “Devonu lugʻotit-turk”, “Javohirun nahv fi lugʻotit-turk” (“Turkiy tillarning sintksis qoidalari” asarlari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadgʻu bilig” (“Saodatga yoʻllovchi bilim”) asari, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari, Ahmad Yassaviyning hikmatlari XI-XII asr turkiy adabiyotining shakllanishi va rivoj topishida samarali hissa boʻlib qoʻshildi.

Bu davr adabiyotining xarakterli jihatlari quyidagilarda oʻz aksini topgan:



Birinchidan, bu davrda ilm-fan va yozma adabiyot turli hukmdorlar saroyida, ular homiyligida rivojlandi. Xususan, Abbosiy xalifalar saroyida arab tilidagi she'riyat, Somoniy va G'aznaviylar huzurida fors tilidagi adabiyot panoh topgan bo'lsa, Qoraxoniylar dargohida turkiy she'riyatning, turkiy adabiyotning buyuk namunolari dunyoga keldi.

Ikkinchidan, bu adabiyotning o'ziga xos tomoni ma'rifatchilik g'oyasini ilgari surish edi. Aqlga tayanish, bilimga chorlash, ijtimoiy adolat, barcha muammolarni aql va zakovat kuchi bilan hal qilishga ishonch davr adabiyotining asosiy g'oyasi edi.

O'tmishdan yaxshi ma'lumki, turkiy xalqlar o'z tarixlari mobaynida bir necha saltanatlarini barpo qilganlar. Shulardan biri Qoraxoniylar hokimiyatidir. Qoraxoniylar saltanati turkiylar bino qilgan musulmon davlat sifatida dunyoga kelgan. IX asr boshlarida hoqoniylar nomini olgan va mustaqil hokimiyat egasi bo'lgan qoraxoniylar, X asrning o'rtalarida o'z hoqonlari Sotiq Bug'roxon islom dinini qabul etgach, musulmon bo'lib yashay boshlagach qoraxoniylar X asrning yarmidan to XI asr oxirlarigacha O'rta Osiyoning ulug' va qudratli davlati sifatida faoliyat ko'rsatgan. Ayniqsa, Muso Burxonning ukasi Horun Bug'roxon hukmronlik qilgan bu davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy kuch- qudrati ortib, boshqaruv chegaralari yanada kengaygan. Horun Bug'roxon 40 yil davlat tepasida turgan. U avval Farg'onani qo'lga olgandan keyin, Samarqandni egallab Buxoroga yurish qilgan. Buxorodagi Somoniy saltanat hukmdori Amir Nuh Horunga urushsiz taslim bo'lib, shaharni tark etadi. Horun Samarqandni g'arbiy Turkiston markaziga aylantiradi va shu yerdan turib, Movarounnahr o'lkalrini birin-ketin o'z hukmiga oladi.

Qoraxoniylar zamonida Qoshg'ar, Bolosog'un, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar ilm-fan, madaniyat markazlari mavqeiga erishadi.

Sotuq Bug'roxonga o'xshab Horun Bug'roxon ham madrasa va kutubxonalar qurish, ilm va ijod vakillarini o'z himoyasiga olishga alohida e'tibor qaratadi.

Qoraxoniylar podsholigining ulug' xizmatlaridan biri davlat va saroy tilining turkiy bo'lganligidir. Chunki ular qo'l ostidagi xalqlarning aksariyat ko'pchiligi turkiy qavmlar edi. Bu esa o'z navbatida turkiy tildagi adabiyotning rivoj topishida va bir necha o'lmas badiiy asarlarning dunyoga kelishiga imkon berdi. Bular turkiy islomiy adabiyotning dastlabki namunolari bo'lmish Mahmud Koshg'ariyning

“Devonu lug‘otit turk”, Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul haqoyiq” asarlaridir. Albatta ushbu asarlarning har biri o‘ziga xos va yangiliklarga boy ijod mahsuli bo‘lsa ham, ularning obrazlar yaratish, dunyoni badiiy idrok etish va uni tasvirlash usullarida arab, xususan, fors- tojik adabiyoti bilan ko‘pgina yaqinliklar kuzatiladi.

AHMAD YASSAVIY HAYOTI VA IJODI. DEVONI HIKMAT

Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida muhim mavqeyga ega bo‘lgan hozirgi Turkiston, oldingi Yassi yaqinidagi Sayram shahrida tavallud topgan. Yassaviyning tavallud sanasi ma‘lum emas. Ayrim tadqiqotchilar uni 63 yil yashagan deyishsa, ayrimlari 73 yoki 85 yil yashagan, degan qarorga kelishgan. Atoqli yassaviyshunos Muhammad Fuod Kuprilizodaning aytishicha, Yassaviy 120 yil yashab, hayotdan ko‘z yumgan. Rus olimi V.A.Gordlevskiy bu raqamni yana besh yilga ko‘paytirib, Yassaviy 125 yil yashagan, deydi. Uning “Devoni hikmat” dagi:

Yoronlardan fayz va futoh ololmadim,

Yuz yigirma beshga kirdim bilolmadim,-

degan fikrlari asosida shunday xulosaga kelganligi shubhasizdir.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlansa, ko‘p ulug‘ shayx va mutasavviflarning ancha uzoq umr ko‘rganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Shunga qaramasdan, Ahmad Yassaviyning 125 yoshga kirganligiga ishonish qiyin. Birinchidan, “Devoni hikmat” dagi yuqoridagi fikrlar tarixiy haqiqatdan ko‘ra, manoqibiy mazmunga ega. Ikkinchidan, 125 yillik uzoq umrining yarmidan ko‘pini “er osti” da (“Oltmish uchda yer ostiga kirdim mano”) o‘tkazish aql bovar qilmas hodisadir. Yassaviyning yashash muddatini 75-85 atrofida belgilagan olimlarning taxminlari haqiqatga yaqinroqdir.

Xullas, Yassaviy XI asrning ikkinchi yarmida Sayramdagi eng nufuzli oilalardan birida, ma‘rifatli va javonmardlikka ixlos-e‘tiqodi bilan shuhrat taratgan Shayx Ibrohim oilasida tug‘ilgan. Onasi Shayx Ibrohimning xalifasi Muso Shayxning qizi Oysha xotun edi. Bu oilada avval bir qiz tug‘iladi. Unga Gavhar Shahnoz deb nom qo‘yishadi, Ahmad tavallud topgach, ko‘p o‘tmay onasi vafot etadi. yetti yoshida esa

otasidan ajraladi va uning tarbiyasi opasi Gavhar Shahnoz zimmasiga tushadi. Keyin ular Yassiga ko‘chib borishadi. Yosh Ahmad birinchi ustoz Arslon bob bilan uchrashadi, undan tahsil oladi.

“Bob” arabchada “eshik” ma’nosini ifodalaydigan so‘z bo‘lib, turkchada bu kalima islom dini targ‘ibi uchun fidoiylik ko‘rsatganlarga beriladigan bir laqab bo‘lgan. Alisher Navoiy Farg‘onada “ulug‘ mashoyixni Bob derlar”, - deydi. Shuningdek, “bob” va “bobo” so‘zlari Shayx, pir, valiyarga nisbatan ham qo‘llanilgan.

Ahmad Yassaviy Turkistondagi boblarning eng buyugi, deb e’tirof etilgan Arslonbobdan tahsil olgan.

Arslonbob tirikligidayoq Ahmad Yassaviyni Buxoroga borib, tahsilni davom ettirishga da’vat etgan edi. Ustozining vafotidan so‘ng Yassaviy bilimini oshirish uchun Buxoroi sharifga tomon yo‘l oladi. U Buxoroda, eng avvalo, diniy va tasavvufiy ilm sirlarini chuqur egallashga kirishadi. Arab tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham puxta o‘zlashtiradi. Zamonasining peshqadam olimi va so‘fiysi Shayx Yusuf Hamdoniyga murid bo‘ladi. Uning uchinchi xalifasi darajasiga erishadi. Hamdoniy vafotidan so‘ng bir muddat uning ishini davom ettiradi, “irshod va da’vat maqomi” qo‘lga kiritilgach, Yassiga qaytib, yangi bir tariqatga asos soladi. Yassaviylik nomi bilan dong taratgan bu tariqat bir turk mashoyixi tomonidan turkiy xalqlar orasida bunyod etilgan ilk tasavvuf tariqati edi.

Imom Muhammad Hanafiy ibn Ali avlodidan bo‘lganligi uchun ham “Xoja” laqabi berilgan Yassaviy hazratlari “Ahmad Yassaviy”, “Xoja Ahmad”, “Xoja Ahmad YAssaviy”, “Qul Xoja Ahmad” singari ismlar bilan tilga olingan Yassaviyning Ibrohim ismli o‘g‘li, Javhar Xushnoz, Javhar Shahnoz ismli qizlari bo‘lgan. Naslu nasabi Javhar Shahnoz orqali davom etgan.

Yassaviy tirikchiligini qoshiqtaroshlik qilib o‘tkazgan va boshqalarga ham halol mehnat qilib kun kechirishni targ‘ib qilgan.

Yassaviy 63 yoshga kirganda, Muhammad (s.a.v) dan ortiq umr ko‘rishni xohlamay, yer ostiga chillaxona qazdirib, umrining oxirigacha

o'sha yerda hayot kechirgan. 1166-yilda vafot etgan Yassaviy qabri ustiga oradan ikki asr o'tgandan keyin Amir Temur katta maqbara qurdiradi. Bu maqbara musulmon xalqlarining muqqaddas ziyoratgohlaridan biriga aylangan.

Yassaviyning ulug'ligi, avvalombor, uning islom inonchlari va tasavvufiy tushunchalarni nihoyatda teran anglaganligi, bularni o'zida mujassam etgan buyuk mutasavvif va komil bir murshid bo'lganligi bilan belgilanadi. U tasavvufiy bir maslak bilan Haqqa qullik qilgan, ixlos va taqvoning cho'qqisiga ko'tarilgan, sayru suluk martabalarini oshib o'tib, shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat maqomlariga yetishgan, zohir va botin ilmlaridan voqif bir xaq oshig'i, ko'ngillarini fath etgan zabardast siymodir. Uni ulug'lik maqomiga ko'targan xislatlar ana shulardir.

Yassaviy asos solgan Yassaviylik tariqati tasavvufdagi boshqa tariqatlar-dan deyarli farq qilmaydi. Uning asosiy farqlanuvchi jihati tildadir. Unda islomiy tasavvuf g'oyalari ilk marta turkiycha talqin etilgan edi. Yassav-iyning ikki bir o'ziga xos va muhim tomoni, uning "Qur'on" ni tayanch manba bilib, forsiy tildagi tasavvuf tajribalaridan ijodiy foydalanish bilan bir qatorda turkiy axloq, qadimiy turkiy dunyoqarash va ishonchlardan yiroqlashmaganligidir.

Ahmad Yassaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. U riyozat, chilla, zikr va mujohadaga kuchli ahamiyat berib, hayotining aksar qismini chillaxonalarda o'tkazdi.

Xojagon tariqati deya nom berilgan yassaviya tariqati, avval Sayxun va Toshkent hududida, keyinroq Xorazm, Movarounnahr, Xuroson, Ozarbayjon va Onado'li diyorlarida keng tarqaldi. Bu tariqat keyinchalik naqshbandiya tariqati doirasida davom etdi. Turkiy qavmlarning Islom diniga kirishida yassaviya tariqatining buyuk hissasi bor.

Yassaviy o'z fikr-qarashlarini xalq ommasiga asosan she'riy shaklda yetkazdi. Bu og'zaki she'rlarni o'zidan keyin muridlari nasldan naslga yetkazib keldilar. Uning "Devoni hikmat" majmuasining qadimiy nusxasi topilmagan. Mavjud nusxalarning qadimiysi XVII asrga oiddir. "Devoni hikmat" dagi she'rlar to'liq Yassaviyga mansubligi

ehtimol bo'lsa ham, she'rlarning mazmun mohiyati to'la ma'noda unga tegishlidir. Muridlari hurmatli ustozlarining nasihatlarini nasldan naslga yetkazib, hikmatlardagi shakl va ma'noni saqlab qolishga uringanlar.

“Devoni hikmat” dagi she'rlar Markaziy Osiyo xalqlari tomonidan xush ko'rilgan, xalq og'zaki ijodiga yaqin bo'lgan $4+3=7$ va $4+4+4=12$ hijoli vaznlarda yaratilgan. Hikmatlar asosan, 4 misradan iborat bo'lib, oxirgi misralar o'zaro qofiyalangan.

Yassaviy hikmatlarining tub mohiyatida komil inson tarbiyasi va uning bilim hamda amalini to'g'ri yo'lga yo'naltirishi ustivordir.

Yassaviyga ko'ra, axloqiy kamolotga erishgan oshiq “molu davlatga rag'bat qilmaydigan”, g'aflatdan yiroq, ogoh kishidir. Zotan, ma'nan uyg'oq insonga Alloh yaqin bo'lur. Bunday insonlarning “ko'ngli siniq, ko'zi yoshli” dir. Ko'z yosh to'kish “Devoni hikmat” da qayta-qayta takrorlanadigan va hatto yassaviya darveshlaridan kamolotga erishish yo'lida talab etiladigan holatdir. Asl ishqqa faqat shu yo'l bilan erishiladi.

Yassaviyga ko'ra, insonning yaratilish g'oyasi yaratuvchiga qul bo'lish va buning mohiyatini anglab, toat-ibodat qilishdir. Shuningdek, yemoq, ichmoq va dam olmoq ham insonning tabiiy haqlaridir. Ammo insonning haqiqiy inson sifatida bajaradigan ishlari faqatgina bulardan iborat emas. Komil inson bo'lish uchun Allohni tanish, yod etish va uni sevish zarur. Mana shu ishq yo'lida tuproq bo'lishni orzu qilgan YAssaviy “ishqsizlarning yo'lda qolganini ko'rdim”, deydi.

Yassaviy hikmatlarida ko'p qo'llangan so'zlardan biri “g'arib” dir. Hikmatlarda “g'arib” so'zi ko'pincha “faqir”, “etim” so'zlari bilan yonma-yon keladi va ayni bir ma'noni ifodalaydi. “G'arib inson” yassaviylikda komil insonga muqobil keladi. G'aribligi, chorasizligi, faqirligini izhor etib Allohdan marhamat ko'rsatishni so'raydi:

G'arib menu bekasmen, bechoramen ham faqir

Sendin o'zga kimim bor, rahm aylagil saharda.

yoki

Ummat bo'lsang g'ariblarga tobe bo'lg'il...

Badiiy ijodda vatandan judolik, g'urbat, ayriliq, yurt sog'inchi xususida keng bahs yuritilganligi aniq. O'zbek tasavvuf she'riyatida

esa “g‘urbat” va “g‘ariblik” masalasini maxsus tadqiq etish YAssaviy tajribalari bilan bog‘liq. Ulug‘ shayxning etiroflari bo‘yicha:

G‘urbat tegsa puxta qilur ko‘p xomlarni

Dono qilur, ham xos qilur ko‘p omlarni.

Chunki hatto payg‘ambarlaru sahobalar ham g‘urbat otashida toblanmishlar:

G‘urbat tegdi Mustafodek eranlarga

O‘ttiz uch ming sahoba ham yoronlarga.

Ahmad Yassaviy g‘urbat, g‘ariblik dardlarini talqin qilarkan, albatta, o‘z qismati, ayriliqda o‘zining ko‘nglidan kechgan holatlarga ham asoslangan edi:

Xurosonu Shomu Iroq niyat qilib,

G‘ariblikni ko‘p qadrini bildim mano.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, Yassaviy hikmatlarida g‘urbat tushunchasi ilohiy ma’noda ham qo‘llanilgan bo‘lib, unda azaliy vatanga intiluvchi ruh ayrilig‘i aks ettirilgan. Yassaviy talqinicha, g‘urbat insonlarni tarbiyalaydi. Hayotning mashaqqatli zahmatlari oldida sabr-qanoatli bo‘la olish yo‘li, ya’ni komillik yo‘li ham g‘ariblikdan o‘tadi. Yassaviyning ta’kidlashicha, g‘ariblikni boshidan kechirgan ko‘plab kishilar bu yo‘l orqali ilmu ma’rifatga erishganlar.

Hikmatlar Yassaviy yashagan davr hayoti haqida ham ma’lumot beradi. Ayniqsa, ba’zi kishilarning hatti-harakatlari tanqid qilinarkan, davrning axloqiy buzuvchiliklari va ijtimoiy muammolar ham tilga olinadi.

Masalan: Dunyo meni molim degan sultonlarga

Olam molin sonsiz yig‘ib olg‘onlarga

Ayshu ishrat birla mashg‘ul bo‘lg‘onlarga

O‘lum kelsa biri vafo qilmas erinish.

Bu yerda ba’zi insonlarning dunyoga berilib, mol yig‘ishlari, faqatgina yeyish-ichish bilan mashg‘ul ekanliklari qoralanmoqda. Yana bir hikmatidagi:

Totlig‘-totlig‘ yegonlar, turluk-turluk kiygonlar,

Oltin taxt o‘lturgonlar tufroq ostin qolmishlar, - kabi e’tiroflari o‘sha davr manzarasini aniq aks ettirmoqda. Shuningdek, ba’zilarning tariqatga kirib, suluk talablariga rioya qilmaganligi to‘g‘risidagi hikmatlarga ham duch kelamiz. “Tolibmen” deganlar, “zokirmen” deb zikr xalqasida o‘tirganlar orasida, “nomahramlarga qaraganlar, kishi molin nohaq yeganlar”, makr-hiyla qilganlar tanqid qilinmoqda. Hatto

bular orasida “qo‘llarida riyo tasbehi” ushlaganlar nafsu havo, shonu shavkatga berilganlar, rohiblarga o‘xshab beliga zunnor bog‘laganlar ham bor. Ayniqsa, ikkiyuzlamachilar keskin qoralanadi:

Domi tazvir qo‘yub xalqni yo‘ldin urdung,
Shayxlik qilib riyo birla do‘kon qurdung.
Ishrat qilib shayton birla davron surdung.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ni boshqa payg‘ambarlardan ustunligini namoyish etuvchi asosiy belgilardan biri miskinlik, faqirlikdir. Uning izdoshlari sanalgan so‘fiylar ham faqirlikni ixtiyor etganlari bois, diniy-tasavvufiy turkiy adabiyotda faqrnomalar yozilgan.

Fanofillohga erishish maqom-bosqichlaridan so‘z yurituvchi faqrnomalardan biri Ahmad Yassaviy “Devoni hikmat” ining Qozon va Toshkent nusxalari muqaddimalaridan o‘rin olgan. Asar nasrda yozilgan bo‘lib, komillikka erishishning to‘rt eshik qirq maqomlari haqida hikoya qiladi. SHariat, tariqat, ma‘rifat, haqiqat to‘rt eshik, deya ta‘riflanadi. Ularning har birida solik bosib o‘tadigan 10 tadan 40 ta maqom haqida so‘z boradi.

“Faqirnoma” komillik yo‘liga qadam qo‘ygan har qanday kishi uchun dasturulamal – ko‘rsatma bo‘lishi mumkin. Unda shunday deyiladi:

“Ey tolib, agar haqni talab qilib topay desang, andog‘ pirga qo‘l berg‘ilkim, shariatda orifi billoh bo‘lsa... ma‘rifatda daryoi ummon bo‘lsa... agar tariqatda holi va kema paydo bo‘lsa, ma‘rifatda jazbai Haq paydo qilg‘ay”. Yoki shayxlik maqomi haqida “...Sulton ul mashoyix... aydilarkim: yetmish ilm bilmaguncha, yetmish maqom yo‘lini tay qilmaguncha, har kim shayxliq maqomi da‘vosini qilsa, ul hamon but bo‘lg‘ay”

Xullas, turkiy xalqlarning islomlashuvi, musulmon dinining arkonlarini o‘zlashtirishi, tasavvufiy tushunchalarini ilg‘ay olishi, Markaziy Osiyo hududida tasavvufiy tariqatlarning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishida Xoja Ahmad Yassaviyning xizmatlari beqiyosdir.

SAYFI SAROYI IJODI. “GULISTONI BIT-TURKIY” ASARI

Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan turkiy adabiyot vakillaridan biridir. U adabiyotimizda shoir va tarjimon sifatida o‘z o‘rniga ega. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, Sayfi Saroyi 1321-yilda Qamishli yurtida tug‘ilgan. Qamishli – Xorazmdagi qishloqlardan birining nomi. Ammo u nom Volga bo‘yida ham ko‘p uchraydi. U Qamishlidan bilimini oshirish uchun Saroyga keladi. Saroy – Oltin O‘rda davlatining poytaxtidir. Muhammad ibn Arabshohning yozishicha, «Saroy tutgan o‘rni va xalqining juda ko‘p bo‘lishi bilan eng katta shaharlarning birisi edi. U fan markaziga aylandi. Oz vaqti ichida bu yerda ko‘plab atoqli, mashhur kishilar to‘plandi». Ular orasida Qutbiddin ar-Roziy, Ma’sud Taftazoniy, Kamoliddin at-Turkmaniy, Hofiz ibn Bazzoziylar bor edi. Shuningdek, mashhur shoir Kamoliddin Xo‘jandiyning ham XIV asr oxirlarida Saroyda yashab ijod etganligi yaxshi ma’lum. SHoir shu yerda yashab turgan davrida «Saroyi» degan taxallusini olgan. Sayfi-uning ismi bo‘lib, «Qilich» degan ma’noni bildiradi.

Sayfi Saroyining yashab ijod qilib o‘tgan davri tarixda O‘zbekxon o‘g‘li Tinibek va Jonibeklarning hukmronligi davriga to‘g‘ri keladi. XIII asrdagi mo‘g‘ullar istilosi mamlakatni izdan chiqargan edi. Bu bosqin tufayli ko‘plab kishilar qirildi. Ko‘plab shoirlar o‘zga yurtlarga ketib qoldi. Sayfi Saroyi ham shulardan biri edi. U shunday yozadi:

O‘tib tuprog‘im uzra nayzalar, men evdin ayrildim,
Vatandin benishon o‘ldimda, o‘zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak javr ayladi, qanday gunohim bor?
Iloho ayla kam jabring, men elga sodiq ul erdim.

Demak, Sayfi Saroyi Movarounnahrda, Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroyda yashab ijod qilgan. Misr va Turkiyada ham yashagan. «Guliston bit-turkiy» kitobidagi quyidagi misralar shoirning Misr maliklaridan birining xizmatida bo‘lganligi, qarib qolganligi tufayli o‘z vataniga ketish uchun malikdan ruxsat so‘raganidan dalolat beradi:

Ilohiy bu qari miskin qulingni,
Bag'ishla ko'rguzub to'g'ri yo'lingni.
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,
Qarisa qullarin ozod qilmoq.
Qari yorli quling Sayfi Saroyi,
Faqiru benavo lutfing gadoyi.
Ani lutfing bilan dilshod qilg'il,
Bag'ishlab yozuqin ozod qilg'il.

Adib taxminan 1396-yilda vafot etgan.

Sayfi Saroyining o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bebahodir. Undan bizgacha, bir qancha g'azal, qasida, qit'a, ruboiylar, «Suhayl va Guldursun» dostoni, «Sinbondnoma», «Guliston» kabi asarlarining erkin tarjimalari yetib kelgan. Bulardan tashqari, Sa'diy «Guliston»i tarjimasiga kiritilgan original she'riy parchalar, masnaviylar ham Sayfi Saroyi qalamiga mansubdir. Shoir g'azallarida shakl va mazmun birligini birinchi o'ringa qo'yadi. Shoirning «Shoirilar ta'rifida» degan masnaviysida ijodkorlarga talabchan munosabatda bo'ladi:

Jahon shorilari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.
Kimi to'ti bikin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o'rtar durarni.
Kimining so'zlari mavzuni shirin,
Kimining loyiqi ta'rifu tahsin.
Kimi o'zganing ash'orin manim der,
Kimi hayvon kibi shalg'am cho'bin yer.
Kimi ma'ni tuzib, vaznin tuzotur,
Kimi vaznin buzib san'at kuzotur.

Sayfi Saroyining lirik she'rlari miqdor jihatdan juda oz. Devon tariqasida tartib berilmagan. Bizgacha undan faqat «Gulistoni biturkiy» asarining kirish qismidagi va so'nggi varaqlaridagi «Ko'ngul», «Topulmas», «Ko'zlaring», «Taolalloh zehi surat», «Ul yuzi oy», «Yangi oy», «Qamar yuzingdin», «Erur», «Tutar», «Meningtek nechalar hayron», «Ko'rinur» kabi g'azallari va bir «Bahor tasviri» she'ri yetib kelgan. Shu she'rlar ham shoir she'riyati haqida ma'lum

tasavvur uygʻotadi.

Sayfi Saroyi sheʼrlariga nazar solsak, mavzu jihatdan turlicha ekanligini koʻramiz. Ishq-muhabbat, vafodorlik va sadoqat mavzulari yetakchilik qilgani holda, odamiylik, inson qadr-qimmat, ijtimoiy mavzular ham uchraydi. SHoir soʻz oʻyinlaridan mahorat bilan foydalanadi. «Erur» radifli gʻazali bu jihatdan xarakterlidir:

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Boʻyina oshiq sanubar, yuzina gul, zor erur.
Ogʻzi fistuq, koʻrki tangsuq, oʻzi mushfiq yor erur,
Husnining chovi Xitou Chin ichinda bor erur.
Asli alchin, soʻzlari chin, koʻzlari totor erur,
Ming yashar har kim dudogʻi sharbatin totor erur...
Vasfina Sayfi Saroyining ishi ashʻor erur,
Andin oʻzga birla oshiqqa yemak osh, or erur.

Sayfi Saroyi gʻazallari oʻzining ohangdorligi, sodda va oʻynoqiligi bilan ham ajralib turadi.

Yangi oydur qoshing, ey koʻrka boyim,
Qilur taʼzim yuzungni koʻrsa oyim.
Su ichkanda dudogʻingdan su tomsa,
Bitar qandu shakar ul yerda doyim...

Shoir yaxshilikni ilgari suradi. Yomonlik qilganga ham yaxshilik qil deydi:

Yamonlik qilgan erga, ezgulik qil,
Qopar it ogʻzini luqma otadur.

Sayfi Saroyining bunday qarashlari «Gulistoni bit- turkiy»da keltirilgan baytlarda ham koʻrinadi.

Etganicha kuching koʻngul yopqil,
Kim xaloyiq sanga duo qilgʻay.
Tushgan yer hojatin ravo qilsang,
Haq sening hojating ravo qilgʻay.
Yoki:
Sindirur boʻlsa urib oltin qadahni katta tosh,
Sinmas oltin qiymati, ortmas bahosi toshning.

Sayfi Saroyi shoir Xorazmiyning tabiat go'zalligini madh qilgan bir g'azaliga nazira tariqasida yigirma to'rt baytlik qasida ham yozgan. Uning bu qasidasi Iskandariya hokimiga bag'ishlangan. U bizgacha yetib kelgan o'zbek tilida yozilgan XIV asr qasidasining ilk namunasidir.

Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun» dostoni ham xarakterlidir. Bu doston haqida manbalarda ma'lumot yo'q edi. 1966-67 yillarda farg'onalik Kamolxon Sultonov degan kishining qo'lida saqlangan qo'lyozma asosida u topildi. Bu qo'lyozmada Sayfi Saroyiga zamondosh Tug'lixoja Xorazmiy, Mavlono Is'hoq Xorazmiy, Mavlono Ahmad Urganjiy kabi shoirlarning bir qancha g'azallari berilgan. So'nggida Sayfi Saroyining ikki bayti, uch qit'asi va 82 bayt – 164 misradan iborat «Suhayl va Guldursun» dostoni berilgan. Bu liro-epik asardir. Doston asosida dunyoviy ishq yotadi. Sevgida vafodorlik, mardlik tarannum etiladi. Manbalarda qayd etilishicha, doston 1394-yilda yozilgan. Asar Nizomiyning «XIIsrav va Shirin», Navoiyning «Mehr va Suhayl» asarlarini eslatadi. Dostonning qisqacha syujeti shunday: Amir Temur Urganchga hujum qiladi. Ko'p kishi asir olinadi. Ular orasida Suhayl ham bor edi. Temurning qizi Guldursun Suhaylni ko'rib sevib qoladi. Guldursun qorovullarni mast qilib, Suhaylni banddan ozod qiladi. Ular qochadilar. Sahroda ochlik va suvsizlikdan Guldursun holsizlanib qoladi. Uzoq qishloqqa suv izlab ketgan Suhayl qaytib kelganda Guldursun vafot etgan bo'ladi. Dahshatga tushgan Suhayl shunday qarorga keladi:

Menga yaxshi bukun yor birla o'lmak,

Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak.

U o'ziga tig' sanchadi va halok bo'ladi. Shamol bo'lib, ularning jasadini qumlar bilan ko'madi.

Suhayl oh urdi, shu dam qo'pdi bo'ron,


Aningtekkim, buzuldi charxi davron.

Alar uzra to'kildi, ko'mdi tuproq,

Bu sirni tanho sahro bildi ko'proq.

Sayfi Saroyining bulardan tashqari, Sa'diyning «Guliston» asarini tarjimasini hisoblangan «Gulistoni bit-turkiy» asari ham yetib kelgan. Olimlarimizning qayd etishicha, hijriy 793, melodiy 1390-91 yillarda tarjima qilingan bu asar fors-tojik shoiri Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarining o'zbek tilidagi eng birinchi ijodiy tarjimasidir. Sa'diy bu asarni 1258 yilda yozgan edi.

Sayfi Saroyi «Gulistoni bit-turkiy» asarining jahon bo'yicha birdan-bir nusxasi Leyden universitetining kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qo'lyozmaning fotonusxasi Moskva va Toshkentda ham saqlanmoqda. Farg'onada topilgan «Yodgornoma»da bor. Sayfi Saroyi «Guliston»ning asosiy mag'zini olib uni o'z zamonasi ruhini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit'a va baytlar bilan to'ldirib, ona tilida xalqiga taqdim etadi. Sayfi Saroyi «Guliston»idagi hikoyatlar quyidagi boblarga bo'lingan:



Har hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar mavjud. Masallar, to'rtlik, baytlar shoirning mulohazalarini tasdiqlash uchun xizmat qilgan. Asardagi hikoyatlar mavzulari rang-barang bo'lganidek, obrazlar ham xilma-xildir. Shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, darveshlar, o'g'rilar, pahlavonlar,

savdogarlar va boshqalar. SHartli tarzda nomlanuvi «Asir, podsho va vazir» haqidagi (asir podshoni soʻkishi, ikki vazir ikki xil talqin etishi), («Podsho va uch oʻgʻli») kichik oʻgʻilning koʻrimsiz, ammo jasurligi), «Malik, qul va kema», «Noʻshiravon va kiyik ovlash», «Tosh bilan bogʻliq hikoyat», «Pahlavon va shogirdi» (shogirdning xiyonati va 360 usul), «Pahlavon va soʻkish», «Oʻgʻri, shoir va itlar» kabi hikoyatlar xarakterlidir.

Umuman, «Gulistoni bit-turkiy»dagi hikoyatlarni oʻqish, undagi mazmun va mohiyatni anglash, hikoyatlardagi qiziqarli tasvirlar har bir oʻquvchini oʻziga rom eta oladi.

AGIOGRAFIK ASARLAR – BADIY ADABIYOT NAMUNASI SIFATIDA

Musulmon Sharq adabiyotida agiografik asarlar qadimdan mavjud boʻlsa-da, bunday asarlar holot, manqaba, manoqib, maqoma va baʼzan tazkira, shajara hamda tarix kabi istilohlar bilan qoʻllanib kelipgan. Lekin Sharq adabiyotida bunday asarlar hech qachon asosiy adabiy janr maqomini olmagan. Yevropa sharqshunoslari muqaddas yozuvlarning hammasini umumlashtirib, agiografiya istilohi bilan yuritsalar-da, Sharqda muqaddas yozuvlarning turlari oʻziga xos alohida nomlar bilan atalgan: qabr toshlari – bitik toshlar, devor yozuvlari – kitobat va h. Sharqda agiografiya janriga mos yuqorida sanalgan istilohlarning hammasi arab tilidan oʻzlashgan va ularning har biri ham mazmunan bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun ularni qisqacha izohlashni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Holot – lugʻatda holatning koʻpligi – “holatlar”, “ahvol”; adabiy janr sifatida maʼlum bir muʼtabar zot – ilm va adabda mumtoz soʻfiyning hayoti va fazilatlari haqida hikoya qiluvchi asarni anglatadi. Masalan, Alisher

Navoiyning “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad” kabi asarlarni kiritishimiz mumkin. Bunday asarlarda bir kishining hayotini aks ettirish bosh maqsad qilib oʻyilsa-da, maʼlum bir jamiyatdagi umumiy ahvol, shart-sharoitlar, oʻsha davrga xos boʻlgan chizgilar ham aks ettiriladi.

Manqaba(t) – lugʻaviy maʼnosi “yaxshi sifat”, “maqtoʻv”; istilohda

ma'lum bir ulug' zot – ulug' pirlardan birining fazilatlarini maqtalgan asar, risola. Manqabalar uchun xuddi G'arbdagidek xalq hikoyati va rivoyatlari uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Lekin ularning eski hikoyati va rivoyatlardan farqli jihati ilohiyot mafkurasining ustuvorlik kasbi etishidir. Sodiir bo'layotgan har bir hodisa ilohiy taqdir va ilhom natijasi ekani manoqiblarning muhim xususiyati sanaladi. Sruning uchun ham ularda asosan payg'ambar, avliyo yoki unga tenglashtirilgan shaxsning hayotidagi g'ayrioddiy hodisalar tavsifi qilinadi.

Manoqib – manqabaning ko'pligi.

Maqoma – lug'atda "o'rin", "joy", "daraja" ma'nosini anglatadi.

Istilohda ijodkor, olim, mutasavvif kabilarning hayot yo'llari, o'z zamopasidagi o'rni yoki darajasini yoritgan asar.

Tazkira – lug'aviy ma'nosi "zikiir qilmoq", "yod etmoq" ma'nosini anglatadi. Istilohda badiiy ijod vakillari, biror tabaqa hayoti haqida ma'lumot beruvchi va ularning faoliyatlari to'g'risida hikoyalar yoki ijodlaridan namunalar aks ettiriluvchi asardir. Tazkiralari ko'pincha ijodkorlar haqida yozilgan. Lekin mutasavviflar tomonidan uning avliyolarni zikiir etuvchi variantlari ham yaratilgan. Ularning ba'zilarida janr asarning nomlanish tarkibidan o'rin olsa, ba'zilarida ishtirok qilmaydi. Abdurahmon Jomiyning

"Nafohat ul-uns minal-hazarot il-quds", Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat", G'ulom Sarvar Lohuriyning "Xazinat ul-asfiyo" kabi asarlari xuddi shunday nomlangan. Biroq bunday agiografik asarlarning tazkira shaklida yozilganini ko'ramiz.

Shajara – lug'aviy ma'nosi "daraxt", "daraxtning yerdan yuqori qismi" ma'nosini anglatadi. Istilohiy ma'noda tazkiraning bir turi bo'lib, u muayyan nasab sulolasi yoki ma'lum bir siyosiy, ilmiy, ijodiy, amaliy guruh, toifa, maktab namoyondalari silsilasi hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar majmuidan iborat. Agar shajara ma'lum mazhab namoyandalari yoki tariqat pirlari silsilasi, ularning diniy va dunyoviy mavzudagi ibratli fazilatlarini hamda faoliyatlari haqida yozilgan bo'lsa, ya'ni muqaddas tushunchalarning ma'lum zotlarda zohir bo'lishi yoritilgan bo'lsa, uni agiografik asar sifatida baholash mumkin.

Ta'rix – tor ma'noda ma'lum shaxs yoki voqea haqida ham yoziladi.

Agar u biror muqaddas zot to'g'risida bo'lsa, agiografiyaga taalluqli hisoblanadi.

Ko‘rinib turganidek, bularning hammasi mustaqil janrlar bo‘lib, “Agiografik janr” degan tushuncha Sharqda mavjud bo‘lmaganidan dalolat beradi. Qadimdan adabiy asarlar tasnifida tur va janrlar bilan birga ijodiy metod yaratuvchi va iste’molchilarining tabaqasi, mavzuiy va g‘oyaviy jihatlari ham alohida o‘rin tutgan. Agiografik asarlarda ham aynan mavzu va g‘oyalarning yaxlitligi bunday asarlarni yagona nom ostida birlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Aziz avliyolar yaqinlari va o‘z boshlariga tushadigan musibatlariga sabr qiladilar. Bu – alohida motiv. Mashhur avliyo Ibrohim Adhamning bir necha yillik judolikdan so‘ng o‘g‘li bilan ko‘rishgan ondayoq oraga o‘lim tushishi juda ta’sirli lavha. Eng ta’sirlisi, otaning bu o‘limga roziligi yohud uni tilashidir. Farzand o‘limiga rizolik agiografik asarlarda motiv sifatida barqarorlasha bordi. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”da ham, “Xamsat u-l-mutahayyirin”da ham bu rizolik motividan foydalanilgan. O‘limdan keyingi karomatlar ham agiografik asarlarga xos motivdir. Shayx yoki avliyo vafot etadi. Shundan keyin ham u xalifasi, rafiqasi yoki biror muridining tushiga kirib oxirat olamidan bashorat beradi. Bu motivlar agiografik asarlarining muhim xarakterli xususiyatlaridandir.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA NOMA JANRI

XIII-XIV asr adabiyotida bir qancha janrlar adabiyotda yetakchi mavqeyga ega bo‘ldi. ana shulardan biri noma janridir. Noma oshiqning ma’shuqaga yo‘llagan maktublari tarzida yozilganligi uchun ham shunday nom bilan atalgan. Dastlabki noma muallifi Avhadiy bo‘lib, uning 1306-1307 yillarda yaratilgan “Dahnoma”si forsiyda yaratilgan edi. Turkiy tildagi adabiy nomaning asoschisi XIV asrda yashsgan Xorazmiydir.

Xorazmiy XIV asr o‘zbek adabiyotining vakillaridan biridir. Uning hayoti va ijodi haqida yetarli tasavvur beradigan manbalar hozircha ma’lum emas. Xorazmiy haqidagi ma’lumotlar uning o‘z asari «Muhabbatnoma» tarkibida uchraydi. Navoiy ham u haqida ijobiy fikrlar aytadi. Bizga ma’lum manbalardan ko‘rinadiki, u shoir sifatida ham o‘z davrida keng shuhrat qozonadi. Ko‘pgina lirik asarlar yozgani shubhasiz. Chunki «Muhabbatnoma»dagi bir necha janrlarda yozilgan asarlar uning shoirlik iste’dodidan dalolat beradi. Xorazmiyning merosi

haqida, uni o'rganish borasida bir muncha ishlar olib borildi. Bu jihatdan Samoylovich, Ko'prilizoda, Shcherbak, N.Mallayev, Solih Qosimov va boshqalarning ishlarini ko'rsatish mumkin. Shoirning to'liq nomi, tarjimai holi aniq emas. «Muhabbatnoma»ning ko'p joyida «Xorazmiy» taxallus sifatida keltirilgan. Bu uning Xorazmdan ekanini ko'rsatadi. «Muhabbatnoma» asari tarkibida keltirilgan fors-tojik tilidagi hikoyat, uning sayohati, hayoti bilan bog'liq ma'lumot olishda manba bo'lib xizmat qiladi.


Xorazmiy 1353-yilda Oltin O'rda xoni Jonibekning Sirdaryo muzotidagi amaldorlardan biri Muhammadxo'jabek bilan tanishadi. U fors-tojik tilidagi she'rlari bilan tanilgan Xorazmiyga o'zbek tilida asar yozishni topshiradi. «Muhabbatnoma»da yozilishicha, Muhammadxo'jabek (Muhammad Xo'jabek) saroyida bazm bo'lib, majlis o'tkaziladi va shoirga asar yozish buyuriladi:

Tabassum qildi, aydi: «Ey faloni,
Keturgil bizga loyiq armug'oni.
Ko'ngil bahrinda ko'p gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko'plardin o'ttung,
Shakardek til bila olamni tutting.
Tilarmankim, bizing til birla paydo,
Kitobe aylasang bu qish qotimdo.
Kim, ush yeltekk kechar ayyomi foniy,
Jahonda qolsa bizdin armug'one».

Xorazmiy kuchi yetguncha harakat qilishini, asarni yozishni bajonidil qabul qiladi. 1353-1354-yillar atrofida ushbu «Muhabbatnoma» asari yaratildi. Ma'lumki, Xorazmiyga qadar Avhadiy Marog'aviyning forsiy «Dahnoma»si, kirmonlik Xoja Imodidin Faqehning «Muhabbatnoma»si bo'lgan. Xorazmiy turkiy tilda asar yozdi. «Muhabbatnoma»ning ikki – arab va uyg'ur qo'lyozmasi mavjud. Uyg'ur yozuvidagi qo'lyozma 1432-yil Mir Jamoliddin degan kishi topshirig'i bilan Boqi Mansur (Boqir Mansur) baxshi nomli kotib tomonidan ko'chirildi. Arab yozuvidagi nusxasi 1508-1509 yillarda ko'chirilgan. Bu nusxaga hikoyat ham ilova qilingan. «Muhabbatnoma» 473 baytdan iborat bo'lib, shundan 317 bayti o'zbek tilida, 156 bayti fors-tojik tilida yozilgan.

«Muhabbatnoma»ning asosiy qismini o'zbek tilidagi asarlar tashkil etadi. Asar hamd, shoirning Muhammadxo'ja bilan ko'rishgani bayoni,

gʻazal, masnaviy, Muhammadxoʻja madhi, vasful holdan tashkil topgan. Asarning asosiy qismini 11 noma tashkil yetadi. 4-, 8-, 11-nomalar fors-tojik tilida, qolgan sakkiztasi oʻzbek tilidadir.



Xorazmiy oʻz «Muhabbatnoma»sida bir necha janrlarda ijod qilganini koʻrsata olgan. «Muhabbatnoma»dagi janrlar Xorazmiyning fors va turkiy tilda ham ijod qila olganini, noma, gʻazal, masnaviy, qasida, fard kabi xilma-xil janrlarda asar yaratganligining dalolatidir.

«Muhabbatnoma»ning asosiy mavzusi ishq, muhabbat, goʻzallik tasviridir. Bulardan tashqari, asarning quyidagi tuzilishi uning boshqa mavzuda yozganligining isbotidir. «Muhabbatnoma» uning nomidan ham koʻrinib turganidek, muhabbat nomalaridan, oshiqning oʻz maʼshuqasiga yoʻllagan sheʼriy maktublaridan iborat. Nomalarning 10 tasi bevosita maʼshuqaga bagʻishlangan boʻlib, shu ruhda yozilgan boʻlsa, bitta noma – ikkinchi maktub tong nasimiga murojaat tarzida yozilgan. Bu noma oʻz uslubiga koʻra boshqa qismlardan ajralib turadi. Bevosita maʼshuqaga qaratilgan maktublarda mahbubaning tavsifi va madhi yetakchi oʻrin egallab, oshiqning shikoyati, kechinmalari tasviri kam boʻlsa, ikkinchi nomada bu jihat ancha keng berilgan. Shoir oltinchi nomada shunday yozadi:

Ayoo, bo'yi sanubar, chehrasi oy,
Quyosh yanglig' jamoling olamoroy.
O'tursang, o'lturur fitna, ketar g'am,
Agar qo'psang, qiyomatlar qo'par ham.
Sumantek orazing guldur tikansiz,
Manga do'zax erur uchmoq sensiz..
Bilursizkim, erur ayyomi foniy,
Nechuk haddin oshirursiz jafoni.

Qachonkim, shod esang, g'amgina rahm et,
Agar sulton esang, miskina rahm et.
Suyurman ko'zni sizni ko'rmoq uchun,
Yururman yerda izni ko'rmoq uchun.
Quling ne qilsin o'z haddini taqsir,
Ko'gnul bir, qibla bir, jonona ham bir.
Chechaksen, banda sayrar bulbulungdur,
Necha borincha Xorazmiy qulungdur.

Asarda har bir nomadan keyin soqiynoma ruhida uch baytli masnaviylar keltirilgan. «Muhabbatnoma» sadoqatli oshiqning chuqur kechinmalari, uning insoniy fazilatlari, pok muhabbatni tasviridan iborat. Shoir oshiq kechinmalarini, ishq tasvirini insonga xos muhabbat nuqtai nazaridan yoritadi. Lirik qahramon shunday deydi:

O'shul kunkim, seni xoliq yaratti
Seni dilbar, meni oshiq yaratti.

Asarning boshidan oxirigacha asosiy tasvir ob'ekti bu ma'shuqa obrazidir. Shoirning barcha ta'rifu tavsifi uni madh etishga yo'naltirilgan. U shunday deydi:

Shakardin totli so'zli dilrabosen,
Darig'okim, chechakdek bevafofen.
Sening yoding qilurmen ko'p g'azalda,
Kim, erdim husnunga oshiq azalda.
Manga haddin oshirma bu jafoni,
Ko'zungdin solma bu miskin gadoni.

«Muhabbatnoma»da oshiq obrazi asosan ma'shuqasiga yo'llagan maktublari asosida namoyon bo'ladi. U ishq, vafo, sadoqat, oshiqlik mas'uliyatini chuqur anglaydi. Mana uning fikri:

Jafodin ingramas bu yo‘lda ushshoq,
Vafodin javringiz ming qatla xushroq.
Evurman yuz, nechakim kelsa mehnat,
Jafo sizdin, tag‘i bizdin muhabbat.

Ma‘lumki, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida «Muhabbatnoma» dunyoviy ruhda, undagi ishq esa hayotiy, insoniy ishq sifatida talqin etiladi. Ammo adabiyotshunos olim Yo.Is’hoqov asardagi ba’zi baytlarga asoslanib, undagi ishqni ilohiy ishq tarzida talqin etadi. U shunday yozadi: «Asar tarkibidagi ayrim ishoralar bu asar mohiyatan tasavvuf ruhida ekanligini isbotlaydi. Quyidagi bayt esa uning tasavvufdagi e’tiqodini yanada aniqroq namoyon etadi:

Qadam dar nehki dar ishq i majoziy,
Ba maqsude rasi, gar pokboziy.

Mazmuni: Majoziy ishqqa qadam qo‘y. Sen agar pokravish bo‘lsang, haqiqiy maqsadga erishasan.

Bu satrlardan muallif ko‘zlagan asosiy maqsad, shubhasiz, ilohiy ishq... Xorazmiy bu masalada naqadar yetukligi, majoziy ishq uning uchun haqiqatga olib boradigan yo‘l ustidagi ko‘prik ekanligi agar xotimasi («iltimosin aydur»)dagi quyidagi baytdan ayon bo‘ladi:

Muni kim ishq birla bir o‘qig‘ay,
Haqiqat olamini munda bilg‘ay».

Xorazmiyning asarida vasi hol, Muhammadxo‘jaga bag‘ishlangan qasida, may mavzusi ham yoritilgan. May-shodlik timsoli, hijron azoblaridan qutilish vositasi sifatida talqin etiladi.

«Muhabbatnoma» o‘z tili, badiiy tasvir vositalari bilan ham e’tiborlidir. Xorazmiyning «Muhabbatnoma» asari ta’sirida Xo‘jandiyning «Latofatnoma», Amiriyning «Dahnoma», Said Ahmad Mironshohning «Taashshuqnoma» asarlari yaratildi.

Tarixda “noma” deb ataluvchi boshqa turdagi (tarix, memuar, jangnoma) (asarlar ham ko‘plab yaratilgan. Lekin ularda “noma” boshqacha vazifani ado etadi: “Shohnoma” (Shohlar haqidagi asar), “Zafarnoma” (Zafarli yurishlar haqidagi asar), “Boburnoma” (Boburning ko‘rgan-kechirganlari haqidagi memuar asar), “Sayohatnoma” (sayohat taassurotlari haqidagi asar), “Pandnoma” (pand-nasihatlar to‘plami) singari.

Munozara – mubohasa, tortishuv degan ma’nolarni bildirib, Sharq

mumtoz adabiyotida muayyan mavqe' kasb etgan ramziy-allegorik janrdir. Munozarada ikki tomon birr bir masalada yoki o'zlarining fazilat yoki qobiliyatda ustun ekanliklari xususida bir-birlari bilan bahs yuritadi. Bahs, odatda, bir-biri bilan bog'liq, masalan, o'q va yoy, go'y va chavgon, gul va sharob, sha'va parvona, bang va chog'ir; bir-biriga zid bo'lgan masalan, kecha va kunduz, yer va osmon, bulbul va lochin; mevalar, mu4siqa asboblari o'rtasidagi keskin tortishuv tardida o'tadi.

Munozaraning ildizlari II-III asrlarda yaratilgan "Asurik daraxti" asariga boradi. Forsiy dabiyotda ilk munozara muallifi Asadi Tusiydir. XI asrda yashagan bu ijodkorning munozaralari qasida shaklida bitilgan. XIII asrdan boshlab Unsuriy, Anvari, Sa'diy va Salmon kabilar tomonidan yaratilgan munozaralar masnaviy shakliga ega bo'ladi.

Turkiy tildagi dastlabki munozara esa XI asrga tegishli bo'lib, u Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida uchraydi. Asardla keltirilgan "Qish bilan yoz munozarasi" murabba' shaklidadir. XV asrga kelib, bu janrning 3 ta o'ziga namunasi yaratildi. Bular Yusuf Amiriyning "Chog'ir va bang munozarasi", Yaqiniyning "O'q va Yoy munozarasi" hamda Ahmadiyning "Sozlar munozarasi" asarlaridir. Yusuf Amiriy hamda Yaqiniy munogzaralari nasrda yaratilgan bo'lsa, Ahmadiy munozarasi mansaviy shaklida yozilgan. XVII asrga kelib, Nishotiy tomonidan munozara janriga mansub bo'lgan beshta asar yaratildi: "Boz va Bulbul", "Gul va Daf", "Nay va Shamshod", "Kosai Chin va Nargis", "Binafsha va Chang" munozaralari o'zbek adabiyoti tarixida bu janr takomiliga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Hamza Hakimzoda Niyoziy tomonidan she'riy yo'lda yaratilgan "Mevalar mojarosi" munozarasi bu janrning so'nggi namunalaridan biridir.

TEMURIYLAR DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI

XIII asrdagi mug'ullar hujumi natijasida o'ta tushkun ahvolga tushib qolgan madaniy hayot XIV asr ikkinchi yarmiga kelib asta-sekin jonlana boshladi. Uzoq vaqt mug'ul mustamlakachiligiga qarshi olib borilgan kurash XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun urushlar g'alabasi va Movarounnahrda yagona davlat barpo etilishi bilan yakunlanadi.

Mamlakatda osoyishtalik o'rnatilishi, siyosiy-iqtisodiy hayotning

tartibga tusha borishi madaniy hayotda ham ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Amir Temur rahnamoligida Movarounnahrda turli madaniy va diniy muassasalar qurildi. Bu ishlar temuriy shahzodalar tomonidan yanada rivojlantirildi. XV asr tarixchisi Xondamirning ma'lumotiga qaraganda Husayn Boyqaro davrida Xurosonda 40 ga yaqin inshootlar vujudga keldi. Shuningdek, Shohruh, Ulug'beklar hukmronlik qilgan davrda ham madaniyat gullab-yashnadi. O'zlari ilm-fan, adabiyot va madaniyat bilan shug'ullangan temuriylarning ko'pchiligi yaxshigina shaxsiy kutubxonalar tuzgan edilar. Samarqand va Hirotida kitob, miniatyura san'ati rivojlandi. Sultonali Mashhadiy, Abduljamil kotib, Darveshmuhammad Samarqandiy, Abdulaziz Samarqandiy singari hattotlar yetishdilar. Xat yozish san'at darajasiga ko'tarildi. Navoiy davrida uning 36 turi qayd etilgan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhit, Qosim Ali, Shoh Muzaffar singarilarning xizmatlari tufayli ko'plab temuriy va shayboniy shohlarning tasvirlari tarixda saqlanib qoldi. Musiqa rivoj topdi. Ko'p shoirlar musiqaning ham nazariyasi, ham amaliyoti bilan shug'ullandilar. Jomiy, Binoiy, Bobur singari ijodkorlar musiqa ilmiga doir rivsolalar yozdilar.

Alisher Navoiy ham musiqaning e'tiborli bilimdonlaridan va yaratuvchilaridan biri sanaladi. She'r va kuy, so'z va soz XV-XVII asrlarda bir-biridan madad olib, ulkan yutuqlarni qo'lga kiritdi. Maqom san'ati yangi-yangi kuylar bilan boyib bordi. Hirotida Abdulqodir Noyi, Husayn Udiy, Shohquli G'ijjakiy, Najmiddin Kavkabiy kabi mashhur san'atkorlar yetishdilar. "Majolisun-nafois" da munajjim va shoir sifatida tilga olingan Najmiddin Kavkabiy musiqa ilmiga doir ko'plab ilmiy asarlar yaratdi. Bularning hammasini, hatto "Rost" maqomi uchun tuzgan kulliyotini ham she'riy usulda yaratdi.

Bu davrda o'zbek tili adabiy til sifatida uzil-kesil shakllandi va Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Turkiy tilning rivojlanishi va taraqqiy etishda Alisher Navoiyning xizmatlari katta bo'ldi. Husayn Boyqaro turkiy tilda asarlar yozish haqida farmon chiqardi. XV asrgacha Oltin O'rda doirasida qo'llanib kelingan turkiy adabiy til Navoiyning qudratli dahosi bilan turkiy qavmlarning mushtarak yodgorligiga aylandi. U birgina Xurosonu Movarounnahr doirasida qolmay turkiy xalqlar yashaydigan barcha mintaqalarga kirib bordi. Uni turkmanlar ham, ozarbayjonlar ham, usmonlilar ham qabul qildilar. U Sharqiy Turkistonda ham mavqe,

martaba topdi. Movarounnahrning oʻzida esa undan milliy uygʻonish davri deb atalgan XIX asrning oxiri-XX asrning boshlarigacha adabiy til sifatida foydalanildi. Shu maʼnoda Navoiyning:

Agar bir qavm, gar yuz, yoʻqsa mingdur,

Muayyan turk ulusi hud meningdur.

Olibmen taxti farmoningʼa oson,

Cherik chekmay Xitodin to Xiroson,-

degan misralarida katta maʼno bor edi. Markaziy Osiyodagi IX-XII asrlardagi ilm-fan madaniyatning gurrak yashnashi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk Uygʻonish davrini tashkil etgan boʻlsa, XIV asr oxiri, XV asr mugʻullar mustamlakachiligidan qutilib, mustaqil davlatning shakllanishi va rivoji asosida madaniyatda yana koʻtarilish va keskin rivoj roʻy berdi. Bu davrni madaniyatdagi keskin ravishda boʻlinib qolgan Uygʻonish davrining yakuni-soʻngi Uygʻonish davri deb atash mumkin. Bu koʻtarilish avvalgi madaniy yutuqlarga, ularni yanada yuksaltirish va zamona maʼnaviy talablari asosida yangilash natijasida vujudga keldi. Bu davrda arab tili din va qisman fan tili boʻlib qolsa-da, ilm va badiiy adabiyot, sanʼat tili sifatida asosan turkiy va forsiy tillarning mavqei kuchayib, asosiy oʻringa chiqdi. Davlat ishlari ham shu tilda olib borildi.

Bu davrga kelib, tasavvuf taʼlimoti Movarounnahr va Xurosonda yassaviya, kubraviya, qodiriya, naqshbandiya tariqatlari asosida rivojlandi. Amir Temurning oʻzi ham mutasavvif olimlarga katta hurmat bilan qaragan va naqshbandiya taʼlimoti targʻibotchilaridan Sayyid Mir Kulolni oʻziga pir deb bilgan. Shuningdek, turli oʻlkalardagi yirik mutasavviflarga ham hurmat koʻrsatgan. Uning hamadoniya tariqatiga asos solgan yirik mutasavvif Sayyid Hamadoniy bilan uchrashgani, 1398-yilda Yassi shahrida Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat qilib, uni taʼmirlatib, ustiga oliy bino qurishni buyurgani tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Sufi Porso, Charxiy, Xoja Ahror, Maxdumi Aʼzam singari yirik olimlar naqshbandiya tariqatiga oid qator risolalar yaratish bilan birga, jamiyatning maʼnaviy poklanish, rivojlanishi yoʻlida faol xizmat qildilar.

Bu davrda xalq ogʻzaki ijodi ham ancha rivojlandi. “Vomiq va Uzro”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayxo”, “Goʻroʻgʻli” turkumidagi jangnomalar, tarixiy mazmundagi qahramonlik

dostonlari yaratildi. Xalq orasida Amir Temur, Xoja Ahror, Ulug‘bek, Navoiy, Husayn Boyqaro singari tarixiy shaxslarning badiiy obrazlari yaratildi.

Bu davr yozma adabiyoti janrlar rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ham epik, ham lirik asarlar ijod qilindi. Adabiyotda qasida janri rivojlandi. O‘zbek g‘azalchiligi yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Tuyuq janri keng yoyildi. O‘zbek nomalarining rivoji ham bu davrda ancha salmoqli bo‘ldi. Ham she‘riy, ham nasriy shakllarda munozaralar yaratildi. Zullisonaynlik an‘anasi davom ettirildi. Dostonlar rivojida ikkita yo‘l ko‘zga tashlanadi: 1.Yangi dostonlar yaratish. 2.Boshqa tillardan tarjima qilish.

XV asrning birinchi yarmida Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy kabi shoirlar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsalar, uning ikkinchi yarmi asosan Alisher Navoiy davri bo‘lib tarixga kirdi. Hirot butun turkiy dunyoning muhim madaniy-adabiy markaziga aylandi. Turkiy va forsiy adabiyotlar o‘rtasidagi o‘zaro ijodiy bahs va hamkorlik davom etdi. Har ikki tilda ijod qilish an‘anaga aylana bordi. Navoiy va Jomiy o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlik va hamkorlikka aylandi.

XV asrning ikkinchi yarmida adabiyot har tomonlama rivojlandi. Sharq she‘riyatidagi barcha janrlardan foydalanildi. Bular g‘azal, ruboiy, qit‘a, tuyuq, masnaviy, qasida, ta’rix, muammo, mustazod, fard, tarkibband, tarje‘band, muvashshah, murabba’, muxammas, musaddas kabilardir. Bularning mavqei bir xil emas, albatta. Bular orasida eng ko‘p tarqalgani g‘azal bo‘ldi. Devonlarda asosiy o‘rinni g‘azal egalladi. Navoiy g‘azalnavislar haqida so‘zlar ekan, ulardan uchta nomni ehtirom bilan tilga oladi. Bular Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylardir. Navoiyning fikricha, bulardan har birining o‘z yo‘li, o‘z uslubi bor. Xusrav Dehlaviy o‘z fikrini mo‘‘jizaviy bayon etadi. Hofiz hur fikri, ehtirosli so‘zi bilan o‘likka jon ato etuvchidir. A.Jomiyning har bir satridan ilohiy bir donishmandlik ufririb turadi. Navoiy she‘ri esa uchala jihatni ham qamrab olgan.

XV asrda ruboiy takomil topdi. Navoiy va Bobur uning go‘zal namunalar yaratdilar. Muammo janriga alohida e‘tibor berildi. Masnaviy janri rivojlandi. Majlisiyning xalq og‘zaki ijodidan olib yozilgan “Qissayi Sayfulmuluk” kabi dostoni bilan bir qatorda Muhammad Solihning davr real hodisalarini, temuriylar va shayboniylar orasida kechgan kurash voqealarini yoritgan “Shayboniynoma” asari singari

o'ziga xos jangnomalar maydonga keldi.

Sharq adabiyotida xamsachilik an'analari davom ettirildi. A.Navoiy, Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviylar izidan borib, birinchi marta turkiy tilda "Xamsa" yaratdi. U birgina XV asrning emas, balki umumturkiy adabiyot taraqqiyotining eng muhim hodisasi edi.

Nasr rivojlandi. Ayniqsa, uning tarixiy-badiiy memuar janri taraqqiy topdi. Shoirlar o'z ko'rgan-kechirganlari, buyuk zamondoshlari va ular bilan bog'liq voqealar haqida asarlar yozdilar. Navoiyning "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlari, Boburning "Boburnoma"si maydonga keldi. Bular XV asrning ikkinchi yarmi, XVI asr boshlaridagi Movarounnahr, Xuroson, Hindiston tarixini madaniyati va kishilar hayotini o'rganishda muhim manba bo'lishidan tashqari turkiy tildagi tarixiy-badiiy nasrning shakllanishi va taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiy aloqalar bir muncha kengaydi. Ayniqsa Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav Dehlaviy asarlariga bo'lgan qiziqish ortadi. Haydar Xorazmiy:

Chunki, eshittim bu buzurgona so'z,
Tushti vujudumg'a bir o't o'zdin o'z, -

deb yozadi. Va yana bir o'rinda:

Menki, pishurdim bu laziz oshni,
Shayx Nizomiydin olib choshni,-

deydi. Haydar Xorazmiy "Gulshan ul-asror" asarini tarjima deb atagan bo'lsa-da, unda bir qator yangi hikoyat va baytlar ham kiritilgan.

Ikki tilda ijod qilish an'anasi keng yoyilgan edi. XV asrda Lutfiy, Alisher Navoiy singari shoirlar turkiy va fors-tojik tillarida barakali ijod qilishdi. Fors-tojik adabiyotining yirik vakili Abdurahmon Jomiy bilan Alisher Navoiy o'rtasidagi buyuk do'stlik ikki xalq adabiyotining ham hamkorlikda rivojlanishiga zamin hozirladi. Jomiy maslahati bilan Alisher Navoiy buyuk "Xamsa"ni yaratdi. Abdurahmon Jomiyning "Nafohat ul-uns" asari tarjimasi sifatida Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asari yaratildi. Jomiyga ergashib "Sittai zaruriya" asarini yaratdi. A.Navoiy taklifi bilan Abdurahmon Jomiy "Payg'ambarlik shohliklari Futuvvat ahli yaqinligi kuchi" asarini yozdi. Jomiy va Navoiyning ijodiy hamkorligi asosida har ikkalalari "Arba'in" asarini yozdilar. Jomiy fors tilida, Navoiy o'zbek tilida yaratgan bu o'lmas to'rtliklar uzoq asrlar davomida butun avlodlarning kundalik o'qish kitobi bo'lib kelmoqda.

XVI-XVII asrlarda ham adabiy aloqalar ancha rivojlandi. Bir qancha tarixiy asarlar fors-tojik tilidan tarjima qilindi. Mirzo Haydarning “Tarixi Rashidiy”, Abdulla ibn Muhammadning “Zubdat ul-asror”, Fazlulloh ibn Ruzbehonning “Mehmonnomayi Buxoro”, Hofiz Tanish Buxoriyning “Abdullanoma” yoki “Sharafnomayi shohiy” asarlari tarjima qilindi. 1593-yilda Amir Ahmad Roziyning “Haft iqlim” nomli geografik-biografik lug‘ati tuzildi.

XIII asrda Muhammad Avfiy “Lubobul-albob” (“Mag‘izlarning mag‘izi”) tazkirasini tuzadi. Hindistonda yaratilgan bu asarda 300 ga yaqin ijodkor haqida ma’lumot berilgan bo‘lib, fors-tojik adabiyotining XIII asrgacha bo‘lgan tarixini ushbu tazkirasiz o‘rganish mumkin emas. 1486-yilda Davlatshoh Samarqandiy “Tazkirat ush-shuaro” deb nomlangan tazkirani tuzadi. Va unda 150 dan ortiq ijodkor haqida ma’lumot beradi.

1566-yilda Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkirul-ahbob” tazkirasini tuzib, unda 300 ga yaqin ijodkor haqida ma’lumot berdi. Tazkirachilik an‘anasi XVII asrda sermahsul tarzda davom etdi. Jumladan, Mutribiy Navoiyga xos tazkirachilik an‘anasini davom ettirib, 1604-1605-yillarda 320 dan ortiq ijodkor haqida ma’lumot beruvchi “Tazkirat ul-shuaro” asarini yaratdi. Unda nomlari qayd etilgan ijodkorlarning aksariyati XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan. XVII asrda Markaziy Osiyo va Erondagi adabiy jarayon haqida ma’lumot beruvchi yana bir tazkira “Muzakkir ul-ashob” nomli asardir. 1692-yilda Maleho Samarqandiy tomonidan yaratilgan ushbu tazkiraning muhim bir afzalligi shundaki, unda ijodkorlarning muayyan hunar bilan shug‘ullanganliklariga ham e’tibor qaratiladi.

Umuman olganda, bu davr madaniyati yutuqlari xalqimizning keyingi madaniy rivojlanishiga katta zamin yaratdi.

DURBEK. “YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONI

«Yusuf va Zulayho» syujeti xalq orasida nihoyatda mashhurdir. Manbalarda Yusufni juda qadimiy ildizga ega ekanligi, u yahudiylarning qadimiy xudolaridan biri bo‘lsa kerak degan qarashlar bayon etilgan. Sharqda «Yusuf va Zulayho» obrazlari bilan ko‘plab afsona va rivoyatlar yaratilgan. Bu syujetning yana ham keng yoyilishida «Tavrot» va

«Qur'oni karim»ning ham juda katta ta'siri bo'ldi. Bu muqaddas diniy kitoblarda Yusuf bilan bog'liq voqealar, suralar keltirilgan. Yozma adabiyotda «Yusuf va Zulayho» syujeti ancha ilgari davrlardan boshlab yoritila boshlandi. Abul Muayyad Balxiy, Baxtiyoriy degan shoirlarning bu syujet asosida asar yozgan degan ma'lumotlar mavjud. Lekin ularning asarlari bizgacha saqlanib qolmagan.

Firdavsiy ham «Yusuf va Zulayho» dostonini yaratadi. XI asrda Shahobiddin Am'aq Buxoriy ham «Yusuf va Zulayho» dostonini yozgan. Ammo u ham bizga noma'lum bo'lib qolmoqda. 1233-yilda Ali degan shoir turkiy, ya'ni o'g'uz tilida «Qissai Yusuf» dostonini yozadi. Bu mavzuda turkiy tilda Shoyyod Hamza ham asar yozgan. 1310-yil Rabg'uziy ham «Qisai Rabg'uziy» asarida «Yusuf va Zulayho» syujetiga murojaat etadi.

1409-yilda Balxda Durbek «Yusuf va Zulayho» dostonini yozdi. Durbek nomi 1920-yillargacha ilmiy adabiyotda ma'lum emas edi. Uning «Yusuf va Zulayho» dostonining qo'lyozmasi topilgach, shoir adabiyotshunoslar diqqatini jalb etadi. U haqda ilmiy ishlarda umumiy ma'lumotlar berildi. Asardan parchalar bosildi. Durbek 1930-40-yillardan boshlab darsliklardan ma'lum darajada o'rin ola boshlaydi. Shoir ijodini o'rganishda sharqshunos Bertels ancha ishlarni amalga oshirdi. Keyingi yillarda ilmiy jamoatchilik orasida «Yusuf va Zulayho»ning muallifi Durbek emas, Ulug'bek, Homidiy Balxiy degan fikrlar maydonga kela boshladi. Yaqinda chop etilgan o'rta maktab darsliklarida esa «Yusuf va Zulayho» dostoni muallifi noma'lum asarlar sifatida berildi. Ko'zga ko'ringan adabiyotshunos olimlar Bertels, Hodi Zaripov, F.Shamsiev, Oybek, M.Shayxzoda, O.Sharofiddinov, V.Zohidov, I.Sulton, H.Yoqubov, F.Karimov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, N.Mallae, S.Haydarov va boshqalar «Yusuf va Zulayho»ning muallifi Durbek deb ta'kidlaydilar.

Durbekning hayoti va faoliyati haqidagi materiallar uning yagona dostoni «Yusuf va Zulayho» orqali yetib kelgan. Asar 1409 yil Balxda yozilgan. Uning ismi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqalar haqidagi ma'lumotlar yo'q. Balx qamalining guvohi bo'lgan. Bu yerdagi voqealarni kuzatgan. Bu yerda ko'p kitob mutolaa qilganligini, forsiy tildagi «Yusuf va Zulayho» asarlarini o'qiganligini va turkiy tilda asar yozish niyati tug'ilganini ta'kidlaydi. Dostonda XIV asr oxiri-XV asr boshlarida yuz bergan tarixiy hodisalar Yusuf va Zulayhoning romantik

sarguzashtlari orqali tasvirlanadi. Asarda hayotiy, insoniy go‘zallik, dunyoviy va diniy ishq-muhabbatning tasviri, halollik va to‘g‘rilik kabi mavzular yoritiladi. Asardagi ijobiy qahramonlar o‘zining xarakteri, ruhiyati, o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu ijobiy qahramonlar Yusuf va Zulayho, I.Yamin, Ya‘qub, Bashir shuningdek, Yusufning qutilishga yordam bergan Jabroil obrazlari kiradi. Asarning bosh obrazi Yusufdir. Shoir Yusuf faoliyatini boshlanishidan to oxirigacha batafsil tasvirlaydi.

Yusuf – Ya‘qub payg‘ambarning kichik o‘g‘li. Durbek bu obrazni, diniy va insoniy mavzuni uzviy bog‘lagan holda tasvirlaydi. Yusuf obrazi ko‘p jihatlari bilan Qur‘oni karimdagi Yusufga yaqin va ayni paytda ba‘zi jihatlari bilan farq ham qiladi. Yusufdagi ijobiy fazilatlar, insonga xos xususiyatlar, uning donoligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi, vatanparvarligi, ota-onasiga nisbatan bo‘lgan farzandlik muhabbati kabilarda ko‘rinadi.

Yusuf – go‘zallik timsoli. Otasining sevimli farzandi. Shu sabab ham akalari unga hasad qilishadi. Yusufni chohga tashlashadi. Qul qilib sotishadi, azoblarga giriftor etishadi. Keyinchalik Yusufning hayoti va taqdiri Misr xalqi hayoti bilan bog‘lanadi. U Zulayhoning tuhmatlariga chidaydi, zindon azobini boshdan kechiradi, o‘tkir muabbirliги-tushni ta‘birlay olishi, zindon azobini tortish Misr xalqini ochlikdan xalos etishi, akalari bilan uchrashuvi, Zulayhoga uylanishi, akalarining gunohlarini kechirishi, otasi Ya‘qub bilan uchrashishi, Misrni odillik bilan boshqarishi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Asardagi muhim obrazlardan yana biri Zulayhodir. Zulayho-go‘zal va ayni paytda o‘tli ishq egasi. U Yusufni tushida ko‘rib, sevib qoladi. Mag‘rib shohi Taymusshoh qizi bo‘lgan Zulayho quyidagi qiyofaga ega:

Bir qizi bor edi mahi xovariy,
Oraziga shamsu qamar mushtariy.
Yuzi quyosh erdi, vale bezavol,
Barcha funun bobida sohibkamol .
Hosili umri edi ul shohning,
Oti Zulayho edi ul mohning.

Zulayho ishq dardiga muhtalo bo‘ladi. Dardi kundan-kun alan-galanadi. Tushida Yusufning Misrda ekanligini bilgach, Misrga bo-rishga ahd qildi, ota-onasi uni Misrga uzatishadi. U Misr Aziziga

duch keladi. Yusuf ishq bilan yashaydi. Zulayho Yusufni sotib oladi, xalqning malomatlariga qoladi. Yusufga tuhmat qiladi. Qiyinchiliklarni sabr bilan yengadi va oxir-oqibat Yusufga turmushga chiqib o'g'il-qizlar ko'radi.

Asardagi Ya'qub mehribon ota sifatida namoyon bo'lsa, Bashir va uning onasi obrazlarida shoirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Yusuf va Zulayhoning Meshom va Farohim ismli o'g'illari va Rohima ismli qizlari ularning quvonchiga-quvonch, baxtiga-baxt qo'shadi.

Dostondagi salbiy obrazlarni Yahudo boshchiligidagi Ya'qubning katta o'g'illari tashkil etadi. Molik esa savdogarlarning tipik obrazidir.

«Yusuf va Zulayho»da xalq og'zaki ijodining chuqur ta'siri seziladi. Tush ko'rish, tushni ta'birlash, behad go'zallik, hayvonlarning gapirishi, bir zarb bilan tosning gapirishi, toshni ko'tarib otish, yig'laganda giyohlarning unishi, yig'lay-yig'lay ko'zning ko'r bo'lishi, farzandining ko'ylagini ko'ziga surtishi bilan ko'r ko'zning ochilishi kabilarda bularni kuzatamiz.

ATOYI IJODI

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan turkigo'y shoirlardan biri Shayxzoda Atoiydir. Atoiy haqida A.Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolisun-nafois" asarlarida ma'lumot berilgan. Shoir bilan zamondosh bo'lgan Yaqiniy ham "O'q va yoy" munozarasida Atoiy nomini tilga oladi.

1921 yil rus sharqshunos olimi Samoylovich Atoyi devonini topib, u haqda bir maqola chop ettirdi. U shoir g'azallaridan 17 tasini birinchi bo'lib chop ettiradi. Keyinchalik Atoyi merosi bo'yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi. A. Fitrat, H.Zarif, A. Hayitmetov, E. Rustamov, Oybek, N. Mallaev, E. Ahmadxo'jaev, N.Davronov, I.Haqqul, X.Rasulov, S. Rafiddinov va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir. Shuningdek, Ko'prilizoda, Ekman, Rosse, Bombachi kabi chet el olimlari asarlarida ham Atoyi haqida ma'lumotlar berilgan. Bu ishlarda Atoyining diniy va tasavvufiy g'azallari tadqiqiga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Mavlono Atoyidan bizgacha 260 ta turkiy g'azallarini o'z ichiga

olgan devon yetib kelgan. U Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Atoyining hayoti va ijodi haqida yetarlicha ma‘lumot saqlanib qolmagan. Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida Atoyi haqida quyidagi ma‘lumotlar yozilgan. “Mavlono Atoyi Balxda bo‘lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandir, darvesh, va xushxulq va munbasit (ochiq ko‘ngil, xushhol, shod-xandon) kishi erdi. Turkigo‘y erdi. O‘z zamonida she‘ri atrok (turklar) orasida ko‘b shuhrat tutti va bu matla’ aningdurkim:

Ul sanamkim suv qirog‘inda paridek o‘lturur,

Foyati nozukligidin suv bila yutsa bo‘lur.

Qofiyasida aybg‘inasi bor. Ammo mavlono ko‘b turkona (sodda va xalqona) aytur erdi. Qabri Balx navohisidadur”.

Navoiyning bu ma‘lumotidan aniqlanadiki, Atoyi naslu nasab jihatidan bir-ikki avlod orqali Ahmad Yassaviyga yaqin turgan. Mashhur shayxlar-otalar avlodidan bo‘lgani uchun o‘ziga «Atoyi» taxallusini tanlagan. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Atoyi Balx, shuningdek, Hirot va Samarqandda uch temuriy shahzodalar – Mirzo Shohruhning o‘g‘li Muhammad Jo‘qiy, Ulug‘bekning o‘g‘li Abdullatif, Boysunqur Mirzoning o‘g‘li Alouddavlalar davrida yashagan. Umuman, Atoyining, tarjimai holi xususida quyidagilarni xulosa tarzida bayon etish mumkin:

Atoyi qacarda va qachon tug‘ilganligi, asl ismi noma‘lum. Uning nasl-nasabi mashhur shayxlar – Ismoil ota, Ibrohim ota, Ahmad Yassaviylarga borib taqaladi. Atoyining Samarqand, Toshkent, Turkiston shaharlarida yashaganligi, yashagan bo‘lsa qancha muddat turganligi aniq emas.

Atoyining taxallusi hozirda Atoyi, Atoiy, Otoyi, Otoiy tarzida har xil yozib kelinmoqda. Bularning qaysi to‘g‘ri ekanligi matbuotda jiddiy munozaralarga olib keldi. Ko‘plab bahslar, munozaralarga bu so‘zning o‘zagi, qo‘shimchalari haqida fikr yuritildi. Olimlarimiz Atoyi shaklida tadbiq etish va atash haqiqatga muvofiq deb hisoblamoqdalar.

Atoyi g‘azallari devonda tartib bilan joylashtirilgan. Shoir lirik merosining umumiy hajmi 1718 bayt-3436 misrani tashkil etadi. 5 baytli g‘azallar -58 ta, olti baytli g‘azallar -6 ta, yetti baytli g‘azallar -187 ta, 9 baytli g‘azallar -8 ta, 11 baytli g‘azallar -1 ta. Atoyi g‘azallarining 109 tasi ramali musammani maqsur vaznida yozilgan.

XV asr birinchi yarmida ko‘plab shoirlar qatori Atoyi ham turkiy g‘azalchilikning rivojlanishiga munosib ulush qo‘shdi. Bu davrda ham

gʻazal janri yetakchilik qildi. Atoiy devoni asosan mustaqil baytlardan tuzilgan gʻazallardan tashkil topgan. Gʻazallar mavzusi quyidagicha:

- a) oshiqona;
- b) diniy-tasavvufiy;
- v) peyzaj xarakteridagi gʻazallar.

Sharq lirikasida ishq muhabbatni kuylash asosiy mavzulardan boʻlib kelgan. Atoiy gʻazallarining ham bosh gʻoyasi va asosiy ohanglarini shu va u bilan bogʻliq fikru tuygʻular tashkil etadi. Ishq bilan bogʻliq har qanday holat mushkul ishlardanda mushkulroq:

Zinhor ishq ishini oʻsal tutma, ey kungul,

Osoni mushkul erur aning mushkulottin.

Shoir taʼbiricha, ishq «gavhari qimmatbaho», «azaliy hidoyat»dir. Atoiy gʻazallarida faqat dunyoviy ishq va u bilan bogʻliq kechinmalargina kuylangan emas. Haqiqiy ishq kuylangan gʻazallar ham bor. Shoir haqiqiy ishqni kuylaganda goʻzallik, hayot, koinot, inson haqida fikr yuritib, ularni taʼriflaydi va ulugʻlaydi. Shoir hayo, umrning oʻtkinchi, gʻanimatligini taʼkidlaydi. Atoiy gʻazallarida majoz va haqiqat oʻziga xos tarzda uygʻunlashadi. Majozda oshiq va maʼshuqlar haqiqiy insonlar boʻlib, ularning bir-biriga muhabbat izhori, oshiq iztiroblari, maʼshuqning tashqi va ichki goʻzalligi, xarakter xususiyatlari hayotiy tarzda gavdalanadi. Ishqi haqiqiyda esa, oshiqning ilohiy visolga intilishi, murshid va muridlik munosabatlari, faqru fanolik, oshiqni kamolga yetkaradigan turli vositalar, soʻfiyona axloq kuylanadi. Atoyini baʼzi gʻazallarida maʼjoziy ishq, baʼzilarida sof ilohiy ishq, ayrim gʻazallarda majoziy ishq bilan haqiqiy ishq qorishib tasvirlanadi. Shoirning ilohiy ishq vasf etilgan gʻazallari majoziy mazmundagi gʻazallaridan ohangi, obrazlari, mazmuni bilan farq qiladi. Bunday gʻazallardagi «xol», «zulf», «gul», «bulbul», «raqib», «may», «mayxona», «dilbar», «husn», «shohid», «oshiq», «maʼshuq» kabi obrazlar oʻzgacha maʼno kasb etadi.

Atoyining:

Har necha boʻlsa yorda kibru anovu martabat,
Bandadin olida hamin faqru niyozu maskanat...

Ulki derlar jumlai olamda gʻolib husn erur,
Muntaxoyi vosili matlubu tolib husn erur...

Ayoqing tuprog‘i birla qasamkim,
Manga sensiz pari qaysi, sanam kim?-

deb boshlanuvchi uch g‘azali tasavvufiy g‘azallar sifatida talqin etiladi. Shoir lirikadagi ishqiy g‘azallarda insoniy muhabbat, hayotning, umrning g‘animatligi, shirinligi bilan birga majoz, so‘fiyona obrazlar orqali ilohiy ishq tarannum etilgan.

Atoiyning g‘azallarida diniy-tasavvufiy tushunchalar turli ramz va majozlar vositasida ifoda etilgan.

Atoiy devoni shunday bayt bilan boshlangan:
Eyki xo‘blar ko‘zgusinda o‘zin izhor aylagan.
Ham o‘zi ko‘zguga boqib meni zor aylagan.

Ushbu baytdagi “xo‘blar ko‘zgusi” istioraviy ibora bo‘lib, 2 xil ma‘noni anglatadi.

a) yaxshi kishilar, komil insonlar yoki komil insonlar yuzi, qalbi. Ko‘zguning tasavvufda ham ma‘nosi bor. Allohning zot, sifat va ismlarini izhor qilganligi uchun insonga ko‘zgu deb qaraydilar va bunday ko‘zgu bo‘lish xususiyati komil insonga xosdir.

Lirik qahramon ilohiy sifatga sohib bunday kishiga oshiqi zordir. Zero, u ana shunday shaxsda ilohiy jamolni mushohada etadi hamda bunday kishi orqali tasavvufda kamolot hosil qiladi.

b) Xo‘blar ko‘zgusi-borliqdagi barcha go‘zal ashyolarning zamirida yotuvchi ilohiy mohiyat va buyuk qudratdir. Lirik qahramon zohir narsalar botinida ilohiy ma‘rifatni ko‘radi, uni tevarak-atrofdagi ashyolarda jilva ko‘rguzgan haq jamoliyatining partavi, ulug‘ bir san’atkorlik maftun etib, “oshiqi zor” iga aylantirgan.

Bunday misollarni shoir she‘riyatidan ko‘plab keltirish mumkin. Umuman, Atoiy diniy va tasavvufiy aqidalarni tasvirlash bilan birga insonning insonga bo‘lgan muhabbatini, visol va hijronni, insonning yashashga bo‘lgan ehtiyoji va ruhiy hayoti bilan bog‘liq turli xil muammolarni qalamga oladi.

Ayrim g‘azallarining esa ba’zi baytlari shu ruhda.

Jannatda gar tajallii husningni ko‘rmasam
Kavsar suvi sug‘olsinu ham hur bo‘lmasin.

Oshiq ma‘shuqasi sifatini beradi. Uning go‘zalligini ulug‘laydi. Go‘zal nozu ishvasi bilan go‘zal:

Diloromeki nozu sheva bilmas,
Daraxtedurki, hech bargu bari yo‘q.

Vafo haqida Atoyi ko'p yozadi:

Vafosiz dilrabodin Tengri bezor

Agar husn ichra jannat huri bo'lsa.

Atoiy g'oyaviy-badiiy niyati, falsafiy mushohadalari va ishqiy kechinmalarini tabiat tasviri, undagi ashyolarning sirru sinoati, rivojlanish bosqichi, ayniqsa, bahor va uning go'zalligi, jozibakorligi bilan bog'lab tasvirlaydi. Uning ko'p g'azallarida tabiat bilan bog'liq ruhiy kechinmalari, mushohadalar va samimiy shoirona tasvirlarni uchratamiz.

“Soqiyo, keltur qadahkim, bo'ldi vaqti gul latif”

Yoki

“Kel, ey dilbar, ki bo'ston vaqti bo'ldi”-

“Bahor o'ldi, kel ey gulruh, gulistonlar sari keza”

misralari bilan boshlanuvchi g'azallarida oshiqona ruhiy holatlardan ko'ra tabiat tasviri, bahor tarovati kishi diqqatini ko'proq jalb etadi.

Atoiyning bir qancha alohida baytlarida tabiat bilan bog'liq kechinmalarning muqoyasaviy, yonma-yon tasvirlari uchraydi. Bunday tasvirlar orqali shoir yangi mazmun, esda qoladigan obrazli lavhalar yaratadi:

Yig'lab yuzingizdin olayin zulf niqobin,

Gul yaxshi ochilmas, kechalar yog'masa yomg'ur.

Yoki

Bandi zulfingni parishon ayla qoshing olida,

Kim, yangi oy ko'zga ravshanroq ko'runur kechqurun.

Shoirning tabiatga samimiy munosabati kitobxonning estetik zavqini tarbiyalab, his-tuyg'ulariga ta'sir etadi. Uning yorga, diyorga bo'lgan muhabbatini yanada oshiradi.

Atoyi lirikasi badiiy tasvir vositalarining ko'p qo'llanganligi bilan ham xarakterlanadi. Bunda juda ko'p an'anaviy obrazlar, mifologik obrazlar, payg'ambarlar obraz lari ko'zga tashlanadi. Ma'shuqa, oshiq o'zlarining turli sifatlari bilan pariga, Xizrga, Yusuf, Ya'qub, Farhod, Shirin, Iso, Ayyub va boshqa obrazlarga qiyoslanadi. Atoyi juda ko'p ma'naviy va lafziy san'atlardan ham foydalangan. Iyhom, tajohuli orif, talmeh, tamsil, lafu nashr, mubolog'a, tashbeh, lug'z kabi ma'naviy san'atlar, takror, tardi aks, tarse, tajnis, ishtiyoq kabi lafziy san'atlar shular jumlasidandir. Iyhomga misol:

Ne shirin o'g'ridur og'zing olib ko'nglumni to'yguncha,

Yoshundi har necha so‘rsam, topilmas infiolindin.
Tajohuli orif:
Mengiz yo ravzai rizvonmudur bu?
Og‘iz yo g‘unchai xandonmudur bu?
Mubolag‘a:
Firoqingda ko‘zum sarchashmasindin,
Qilurman har qayon boqsam tengizlar.
Umuman, Atoyi she‘riyati xalqimiz tomonidan sevib o‘qilaveradi.

SAKKOKIY: HAYOTI VA IJODI, SHE‘RIYATI, QASIDALARI, BADIY MAHORATI

O‘zbek adabiyoti XIV asrdan boshlab yangi taraqqiyot yo‘llariga kirganligi ma‘lum. Bunda Haydar Xorazmiy, Sakkokiy, Atoiy, Lutfiy, Gadoiy va Hofiz Xorazmiylarning xizmatlari samarali bo‘lgan edi. Bu san‘atkorlar inson va jamiyat ma‘naviy ehtiyojlari bilan bog‘liq fikru tuyg‘ularni she‘riyatning markaziy masalalari sifatida tahlil qilishga intildilar.

Sakkokiy XIV asr ikkinchi yarmi, to‘g‘rirog‘i oxirgi choragida tug‘ilgan va XV asrning birinchi yarmida Ulug‘bek hukmronligida yashab, ijodiy kamolotga erishgan shoirdir. A.Navoiyning “Majolisun nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida Sakkokiy va u yashagan davr, uning adabiy faoliyati hamda XV asr adabiyotida tutgan o‘rni haqida qimmatli ma‘lumotlarni keltiradi: «... Uyg‘ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag‘osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy... kim, birining shirin bayoti ishtihori Turkistonda bag‘oyat va birining latif g‘azaliyoti intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur, ham devonlari mavjud bo‘lg‘oy». Demak, Sakkokiyning shuhrati Turkistonda ancha mashhur bo‘lgan. Shoirning yashagan davri, asosan, Movarounnahrda Xalil Sulton va Ulug‘bek hukmronligi yillariga to‘g‘ri keladi.

Sakkokiyning hayoti va ijodi haqidagi ma‘lumotlar juda oz. Bu haqda uning o‘z qo‘lyozma devoni va boshqa mualliflar asarlarida ma‘lumotlar uchraydi. Navoiy o‘zining «Majolis un-nafois» asarida Sakkokiy haqida quyidagilarni yozadi: «Mavlono Sakkokiy Movarounnahrdandir. Samarqand ahli anga ko‘p mu‘taqiddurlar va bag‘oyat ta‘rifin qilurlar». Yaqiniy o‘zining «O‘q va yoy» munozarasida Sakkokiy nomini tilga

oladi. U shunday yozadi: «... yana Sakkokiykim, turk shoirlarining mujtahididir (gʻayratlisi). Mening munosib holimga aytur.. Nazm:

Jonim fido boʻlsin saning gʻamzang oʻqiga nechakim,
Har necha qoshing egmasi oʻqtek boʻyimni yo qilur.»

Sakkokiyning 1407-1408 yillarda Xalil Sultonga qasida yozganligini eʼtiborga olsak, u XIV asr oxirgi choraklarida tugʻilgan deb taxmin qilish mumkin. Xalil Sulton davlat tepasidan chetlashtirilgandan soʻng, Sakkokiy Ulugʻbek saroyida ijod qiladi. Shoir ijodi Ulugʻbek davrida kamolga yetadi. Sakkokiy Ulugʻbekka atab qasidalar yozadi. Uni adolatli, ilm-maʼrifatli hukmdor sifatida ulugʻlaydi. Uning xalqparvarligini alohida taʼkidlaydi:

Raiyyat qoʻy erur, sulton anga choʻponu yo boʻri,
Boʻri oʻlgʻoyu, qoʻy tingoy, chu Musotek shubon keldi.

Sakkokiy XV asr oʻrtalarida vafot etgan. Navoiy Samarqandda boʻlganida uning muxlislari bilan uchrashadi. Tirik boʻlganda ularning uchrashishi ehtimoldan xoli emas edi. Sakkokiy asarlari Xalil Sulton, Arslon Xoʻja Tarxon, Xoʻja Muhammad Porso va Ulugʻbeklarning tiriklik chogʻlarida yozilgan. Sakkokiy sheʼrlari orasida Ulugʻbekning oʻlimi haqida hech narsa uchramaydi. Bu esa Sakkokiy Ulugʻbek fojiasidan oldin vafot etgan degan taxminga olib keladi.

Sakkokiydan bizgacha toʻliq boʻlmagan kichik bir devon qoʻlyozmasi yetib kelgan. Oʻzbek adabiyotida gʻazal va qasida janri rivojiga salmoqli hissa qoʻshgan Sakkokiy gʻazallarining asosiy mazmunini samimiy sevgi, real borliqqa muhabbat bilan qarash va uni ulugʻlash tashkil etadi. Sevgiga sadoqat va vafodorlik ulugʻlanadi, hayot lazzatlaridan zavq va bahra olish targʻib qilinadi. Sevishganlar, oshiq-maʼshuqlarning ishq yoʻlidagi hijron dardiyu firoq, ayriliq alam-iztiroblarini, visol zavq-shavqlari va nashidalarini zoʻr hayajon bilan, nihoyatda original, sodda va oʻta taʼsirli qilib tarannum etadi:

Gul yuzungni orzulab, yuz koʻzni gulzor ayladi,
Shakkar erningni tilab jon tanni afgor ayladi.

Sakkokiy lirik shoirdir. U oʻzidan oldin oʻtgan oʻzbek, fors-tojik shoirlari asarlarini puxta oʻrgangan. Ulardan ijodiy foydalangan. Sakkokiyning toʻliq devoni bizgacha yetib kelmagan. Bizgacha yetib kelgan sheʼrlari uning isteʼdodli shoir boʻlganidan dalolat beradi.

Sakkokiy devonining bir necha qoʻlyozma nusxalari mavjud. Londonda, Britaniya muzeyida uning taxminan XVI asr oʻrtalarida

ko'chirilgan bir nusxasi, Toshkentda Sharqshunoslik institutida 1937-yilda Shoislom kotib tomonidan qandaydir nusxa asosida ko'chirilgan nusxasi saqlanadi. Ular shoir asarlarining bir qismi. Sakkokiy devoni o'z davrining an'alariga muvofiq, xudoga bag'ishlangan hamd, na't bilan boshlanadi. Keyin 10 qasida beriladi. Bir qasida naqshbandiy shayxlaridan Xoja Muhammad Porsoga, bir qasida Xalil Sultonga, to'rt qasida Arslonxo'ja Tarxonga, to'rt qasida Mirzo Ulug'bekka bag'ishlanadi. Qasidalaridan keyin g'azallar boshlanadi.

Sakkokiy merosining asosiy qismini g'azallar tashkil etadi. Fazallarining asosiy mavzui muhabbatdir. Ba'zi o'rinlarda ilohiy ishqni, tasavvufiy g'oyalarni ham tasvirlaydi. Insonning dard alamlari, orzu tilaklarini, tabiat tasvirini beradi. Shoir yor va unga sadoqat, hayot lazizlaridan bahramand bo'lish, oshiqdagi hijron va ayriliq azoblari, visol nashidasini ta'sirchan tarzda, sodda va ohangdor holatda ifodalaydi:

Jon hajr o'tina tushdi, yana bizni unutma,
Zulfing kabi qad bo'ldi duto, bizni unutma.
Yo'q erdi rizo ketgali bir lahza qoshingdin,
Sendin chu yiroq soldi qazo bizni unutma...
Sakkokiy ul oy manzilina xud yeti bilmas,
Sen yetsang agar anda, sabo bizni unutma.

Lirik qahramon ma'shuqa zolimligidan, vafosizligidan shikoyat qiladi:

Ko'zlaring qattol erur, kipriklaring qon to'kkuchi,
O'zga ne o'rgansun ul jallodning hamsoyasi?
Qildi Sakkokiy qaro zulfing bila savdo base
Ilkida holi parishonlik erur sarmoyasi...

Yoki:

Tosh bag'irlik dilbarim Sakkokiy ko'ngli ka'basin
Yiqti yolg'on va'da birla ham imorat qilmadi.

Sakkokiy g'azallarida uch obraz: oshiq, yor va raqib obrazlari ko'zga tashlanadi. Oshiq shoirning o'zi. U yorning visoliga oshiqadi. Oshiqlik iztirob va mashaqqat ekanligini tan oladi:

Ishq ishin Sakkokiy avval bilmayin oson ko'rib,
Oxiri o'z jonining ishini dushvor ayladi.

Farhod - oshiq inson. U Shirin yo'lida tog' qazishga majbur bo'ldi. Sakkokiy lirik qahramoni esa yori uchun jondan kechishga, «jonkan»

bo'lishga rozi:

Agar Shirin uchun Farhod ishq ko'hkan bo'lsa,
Netong Sakkokiy ham, jono, yo'lungda jonkan bo'ldi.

Oshiq ma'shuqasi yonida bo'lsa, har qancha mashaqqat bo'lsa, chidashga qodir. Yori bilan birga bo'lsa u har qanday g'amdan qutiladi:

Agar qoshimda o'shal gul uzor bo'lsa edi,
Fame yo'q erdi, g'amim gar hazor bo'lsa edi.

Lirik qahramon ma'shuqasidan jaf o'qilmaslikni, va'daga vafo qilishini istaydi:

Bilursankim kechar dunyoyi foniy
Qulunga qilmagil javru jafoni.
Base ko'p va'dalar qilding bording
Kel emdi va'daga qilgil vafoni...

Sakkokiy oshiq va ma'shuqaga xos ichki va tashqi sifatlarni yoritishda turli an'anaviy obrazlar, xalq maqollari, hikmatli so'zlar, iboralardan keng foydalangan:

Ko'zung karashma birla, ey yoruqli Sakkokiy,
Seni o'ltirurman teb, etti turkona.

Yoki:

Yuzi qaro bo'lsun ko'zum, ondin ko'rarmen bu balo
Yo'q bo'lsun ul ko'nglum mening, hech kirmadi farmonima.

«Devorning ham qulog'i bor», «devor orqasida odam bor» maqoli mana bu baytda singdirilgan:

Nedin bilur el meni «ul oy oshiqdur teb»,
Chun so'zlamadim hech daru devor qoshida.
Shoir g'azallarining ko'pi 7 baytlidir.

Shoirning devonida 11 ta qasida ham mavjud bo'lib, ular muayyan tarixiy shaxslarga bag'ishlangandir. Qasida elementlari o'zbek adabiyotida ancha ilgari paydo bo'lgan bo'lsada, maxsus adabiy janr sifatida XIV-XV asrda vujudga keldi. Sakkokiy o'zbek qasidachiligining asoschilaridan biri bo'ldi. Manbalarda uning 10, ba'zi manbalarda esa 11 qasidasi yetib kelganligi ta'kidlanadi. Shoir qasidalarining hajmi 11 baytdan 54 baytga qadar. Shoirning Ulug'bekka bag'ishlangan qasidasi e'tiborlidir. Shoir Ulug'bekni ilm, hunar va she'riyatni sevgan olim, adolatli shoh sifatida tasvirlaydi. Uni Aristotel, Platon, Ptolemey, Galen, Ibn Sino va boshqalarga qiyos qiladi. Sulaymon, No'shiravon, Muso va boshqalarga o'xshatadi:

Jahondin ketti tashvishu mabodiyi amon keldi,
Xaloyiq, aysh eting bu kun sururu jovidon keldi...
Raiyyat qo'y erur, sulton anga cho'ponu yo bo'ri,
Bo'ri o'lg'oyu qo'y tingay, chu Musotek shubon keldi...

Sakkokiyning Arslon Xo'ja Tarxonga bag'ishlangan qasidasi ham xarakterli. Ulug'bekning Amiri kabiri bo'lmish bu kishi Turkistonning Shimoli Sharqiy tomonida joylashgan Sabron shahrida hukmronlik qilardi. U ilmi, shoirtabiat kishi bo'lgan. She'r yozgan. Sakkokiy uni mohir qilichboz, so'z bilimdoni, shoir sifatida ulug'laydi.

Umuman, Sakkokiy g'azallari ham, qasidaları ham sodda yozilgan. Xalq og'zaki ijodining ta'siri aniq seziladi. Shoir asarlari o'zbek adabiyotini yanada boyitdi.

LUTFIY IJODI. SHOIR SHE'RIYATI

O'zbek adabiyotining Navoiygacha bo'lgan davridagi yirik siymolardan biri Lutfiy 1366-yilda Hirotning Dehikanor qishlog'ida dunyoga kelgan. Sulton Ibrohim Mirzo davrida Lutfiy she'rlarining mashhurligini Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida qayd etib, shoirning o'ziga nisbatan katta muhabbati borligini eslatadi: "Bu faqir borasig'a ko'p iltifoti bor erdi va fotihalar o'qur erdi".

Mavlono Lutfiy bu davrda shunchalik katta shuhratga ega bo'ldiki, Alisher Navoiy uning mavqeini shunday qiyos bilan ko'rsatishga harakat qilgan: Alisher Navoiy o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida XIII-XV asrlar davomida turkiy-o'zbek tilida yetishib chiqqan shoirlardan (jumladan, Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Muqimiy, Amiriy, Gadoyi) faqat mavlono Lutfiygina Firdavsiy, Nizomiy, Xoqoniy, Anvari, Sa'diy, Xoja Hofiz kabi forsiygo'y mashhur shoirlar bilan tenglasha oladi mazmunida (alar) «muqobalasida kishi paydo bo'lmadi bir mavlono Lutfiydin o'zga» deb yozdi.

Demak, Alisher Navoiy she'riyat maydoniga kirib kelgunigacha bo'lgan davrda mavlono Lutfiy turkiygo'y va forsiygo'y shoirlarning ustozi sifatida tan olinganidan XV asrning 50-60- yillaridayoq malik ul-kalom faxriy unvoniga sazovor bo'lganini Alisher Navoiy o'zining «Holoti Pahlavon Muhammad» risolasida ta'kidlagan edi.

Mavlono Lutfiy o'z asrida, qayd qilinganidek, mashhur bo'lganidan

uning hayoti, ijodi va fazilatlarini haqida soʻz yuritish ham oʻsha davrdan boshlangan boʻlib, XV asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan adabiyotshunos shayx Ahmad Taroziyning «Funun al-balogʻa» risolasida (bu risola 1437-yilda Mirzo Ulugʻbekka bagʻishlanib yozilgan), XV asrning ikkinchi yarmida esa Alisher Navoiy va Gʻiyosiddin Xondamirning asarlarida mavlono Lutfiy haqida turli maʼlumotlar keltirilgan. Bular ichida Alisher Navoiy tomonidan keltirilgan maʼlumotlar nisbatan mufassalligi bilan ajralib turadi. Bu haqda Lutfiyshunos olim Erkin Ahmadxoʻjayev oʻzining shoirning hayoti va ijodiga bagʻishlangan «Mavlono Lutfiy» nomli risolasida ancha yaxshi mulohazalarni bildirgan.

XVI-XX asrlar davomida yaratilgan manbalarda, jumladan, Abdulloh Kobuliyning «Tazkirat ut-tavorix» (XVI asr), «Tazkirayi Muhammad Boqir» (XVI asr), Aliqulixon Vola Dogʻistoniyning «Riyoziy ush-shuaro» (XVIII asr) va boshqa manbalarda mavlono Lutfiy bilan bogʻliq boʻlgan maʼlumotlar uchraydi.

XIX va XX asrga kelib Mavlono Lutfiy devoni va sheʼriyatiga doir fikr-u mulohazalar Gʻarb (C. Fluhel, Charlz Riyu, V. Bartold, A. Samoylovich, E. Birnbaum), Sharq (Zaki Validiy, Ismoyil Hikmat Ertaylon) va oʻzbek olimlaridan Abdurauf Fitrat, Hodi Zarif, E. Rustamov, S. Erkinov, N. Mallayev, E. Ahmadxoʻjayevlarning turli xildagi tadqiqotlarida (qoʻlyozmalar tavsifi, maqola, risola, darslik kitobi) bayon etildi. Bu jihatdan keyingi yillarda E. Ahmadxoʻjayevning olib borgan tadqiqotlari, eʼlon qilgan risolalari alohida ahamiyat kasb etadi. Afsuski, E. Ahmadxoʻjayev hayotdan barvaqt koʻz yumib, boshlagan ishlari nihoyasiga yetmay qoldi.

Yuqorida koʻrilganidek, lutfiyshunoslik sohasida ancha ishlar amalga oshirilgani tufayli mavlono Lutfiyning tarjimai holi, ijodiyotiga oid koʻpgina maʼlumotlar yigʻilgan. Shuning uchun lutfiyshunoslik bilan yanada jiddiyroq shugʻullanish, yangi-yangi tadqiqotlarni olib borish adabiyotshunoslarimizning galdagi vazifalaridan biridir. Ana shu jarayonda masalaga istiqloq mafkurasi, xolislik va tarixiy asoslanganlik nuqtayi nazaridan yondashilsa, mavlono Lutfiyning goʻzal badiiy olami, dunyoqarashidagi rang-baranglik va maʼno jilolari yanada yorqinroq namoyon boʻlib, uning soʻz sehri, soʻz mulkining sultoni ekanligi ayon boʻlib boraveradi.

Mavlono Lutfiyning adabiy faoliyati davomida yaratilgan hamda unga nisbat beriluvchi asarlar quyidagilardir:

1. She'rlar devoni. Ma'lumki mavlono Lutfiy turkiy va forsiy tillarda ijod qilib, o'z she'rlarini devon shaklida tartibga solgan edi. Bu haqda Alisher Navoyining alohida ta'kidlab o'tganini yuqorida nazardan o'tkazgan edik.

Hozirgi kunda mavlono Lutfiyning turkiy she'rlaridan iborat devoni XVI-XX asrlar davomida ko'chirilgan 33 qo'lyozma nusxada yetib kelgan. Ular Toshkent, Sankt-Peterburg, Dushanbe, Istanbul, Tehron, Bursa, Gota (Germaniya), Toronto (Kanada), London (Britaniya), Parij (Fransiya) - dagi rasmiy va shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda.

Mavlono Lutfiy she'riyatining baytlar soni haqida ilk ma'lumot Xondamirning «Makorim ul-axloqi» da keltirilganining guvohi bo'lgan edik. Unda mavlono Lutfiy tilidan turkiy va forsiy tillarda yozilgan 10-12 ming bayt haqida so'z boradi. XVI asr muallifi Abdulloh Kobuliy esa o'zining «Tazkirat ut-tavorix» asarida bu masala bo'yicha shunday yozgan:

«Dar turkiy devone dorad qarib se hazor bayt»

Mazmuni : turkiy tilda uch ming baytga yaqin devoni bor.

Hozirgi davr lutfiyshunos olimi E. Ahmadxo'jayevning olib borgan izlanishlari natijasida mavlono Lutfiyning «Bizgacha 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq she'riy merosi yetib kelganligi» aniqlangan. Ammo izlanishlar davom etadi. Chunki, Xondamir tomonidan keltirilgan 10-12 ming baytni tashkil etuvchi turkiy va forsiy devonlarning mukammal nusxasi hozircha ilmiy muomalaga kiritilgan emas.

Bu o'rinda shuni ham eslatish joizki, Xondamirning ma'lumoti, ya'ni mavlono Lutfiyning «o'n-o'n ikki ming baytim», deganlari XV yuz yillikning 50-yillari, aniqrog'i 1455-1456-yillarga to'g'ri keladi. Vaholanki, mavlono Lutfiyning 80-yillargacha hayot ekanliklari nazarda tutilsa, unda hayotining keyingi 30 yillari orasida yozilgan asarlari bu hisobga kirmagan. Bas shunday ekan, «o'n-o'n ikki ming bayt» miqdordagi forsiy va turkiy she'rlar mavlono Lutfiy she'riyatining bir qismi sifatida qaralmog'i darkor. Mavlononing butun ijodiy faoliyati davomida yaratgan asarlari-baytlari soni yuqoridagidan kamida ikki marta ko'p bo'lishi mumkin.

Lutfiy o'zbek adabiyotini g'azal, tuyuq va qit'alar bilan boyitgan ijodkordir. Bu o'rinda «Sensan sevarim» to'plamida janrlarni ko'rsatish holati sharq she'rshunosligida qabul qilingan tarzda bo'lganini o'qitirish

ma'qul ko'rinadi. Shundan kelib chiqib, mavlono Lutfiy she'riyati-devonida hozircha ma'lum bo'lgan she'rlar asosida ularning quyidagi janrlarda yozilganini qayd qilish maqsadga muvofiqdir: 1.G'azal 2.Qasida 3.Ruboyi 4.To'rtlik 5.Tuyuq 6.Qit'a 7.Fard.

Shunday qilib, mavlono Lutfiy devonining hozircha ma'lum she'rlari yetti janrda yozilgan bo'lib, ularning hajmi - misra va baytlar soni esa jadvalda ko'rsatilganicha qolaveradi, ya'ni 5548 misra-2774 bayt. Har bir janrdagi asarlardan g'azal va qasidalarining soni va hajmi hozircha shunday tartibda bo'lib, boshqalarini yanada aniqlash lozim. Hozircha ma'lum bo'lgan dalil shundan guvohlik beradiki, mavlono Lutfiy devonidagi yetakchi janr g'azal bo'lib, u son (372) va hajm (4172 misra-2086 bayt) jihatdan devonning ko'pchilik qismini tashkil etadi. Devonda hammasi bo'lib 572 asar bo'lsa, shundan 372 tasi g'azal; devondagi asarlarning umumiy hajmi 5548 misra – 2774 bayt bo'lsa, shundan 4172 misra – 2086 bayt g'azal janri misra-baytlaridir.

Mavlono Lutfiy g'azallarining xususiyatlari deyilganda ularning hajmi-har bir g'azalni tashkil etgan baytlar soni, g'azallarning mavzu doirasi, timsollari, badiiy xususiyatlari nazarda tutiladi.

G'azallarining hajmi haqida uzil-kesil fikr yaratish uchun mavlono Lutfiy devoni, jumladan g'azallarining ilmiy-tanqidiy matni bo'lishi kerak. Ammo hozirgi kunda bunday matn bo'lmagani sababli ularning hajmi, ya'ni har bir g'azalni tashkil etuvchi baytlar soni va shu asosda g'azallarining baytlar soni jihatidan miqdori hamda uning sabablari to'g'risida so'z yuritish imkoniyatiga ega emasmiz. Shunday bo'lsa-da, hozir mavjud bo'lgan g'azallar asosida shunday deyish mumkinki, mavlono Lutfiy g'azallarining ko'pchiligi 5-7 baytdan iborat bo'lib, 9 baytlilari ham bor.

Shoir g'azaliyotidagi asosiy mavzu-ishq. Adib tasviridagi oshiq-sadoqat timsoli. U o'z ishqiga mahbubning to'la ishonishini istaydi:

Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Lutfiy g'azallarida radif ko'p qo'llanilgan bo'lib, yuqoridagi g'azalda bir gapga teng bo'lib kelmoqda. Lutfiychalik radifga bu darajada ko'p yuk yuklay olish san'atini hali hech kim uddalay olmagan edi. Shoir g'azallarida inson ma'naviy olamining o'ziga xos go'zalliklari, go'zal tabiat tarovatining takrorlanmasligi ham ohorli

misralarda tasvirlanadi:

Yoz bo'ldi, kerak ul buti ayyor topilsa,
Barchasi topilur, bizga kerak yor topilsa.

Lutfiy ishqiy g'azallarga ham ijtimoiy ohanglarni singdirish ustalaridandir. "Tortadur" radifli g'azal aslida ishqiy bo'lishiga qaramay, oxirgi baytda guyo davr ta'rif beriladi:

Yo'qturur yolg'iz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur.

Mavlono Lutfiy she'riyatining janrlari haqida gapirib, malik ul-kalom shoirning bizgacha yetib kelgan lirik asarlarining xillari chizmada ko'rsatilgan edi. Ana shundan ma'lum bo'ladiki, mavlono Lutfiyning bizgacha etib kelgan she'riyatida g'azal janridan keyin son jihatdan ko'pchilikni tashkil etuvchi bu to'rtlik va uning turli xillaridir.

Mavlono Lutfiy shariyatidagi to'rtliklarning xillari - to'rtlik, ruboyi, to'rt misralik qit'a va tuyuqlardan iborat.

To'rtliklarning yetakchi mavzusi ishqdir. Ularning shakli esa qofiya, ba'zan radifga ega bo'lgan to'rt misradir. Misol uchun quyidagi to'rtliklarga diqqatni qaratish mumkin:

Ko'nglim olding g'amzayi fatton ila,
Eshigingda qul bo'libmen jon ila.
Bizni, ey g'uncha o'g'izlik, tobakay,
Yig'latusen ul labi xandon ila?

Yoki:

Ey avji malohat ustida oy yuzlik,
Gulzori latofat aro nargis ko'zlik.
Qoshingda agarchi egrilik bor,
Ul sarv kabi qaddingga bordur tuzluk.

Har ikkala to'rtlik ham ishq mavzusida bo'lib, ularning birinchisida yor hijroniga uchragan oshiqning ma'shuqaga murojaat etib, oshiqqa rahm-shafqat ko'rsatishni iltijo qilishi tasvirlangan. To'rtlik radif (ila) va qofiyani tashkil etuvchi so'zlarga (fatton, jon, xandon) ega. To'rtlikda ma'shuqaning «g'uncha og'izligi», «labi xandonligi» eslatiladi. Bunda qiziq bir hodisa mavjud. Ma'lumki, «g'uncha» hali ochilmagan gul. Shoir «g'uncha o'g'izlik» yor haqida gapirib, keyingi misrada uning «labi xandon» ligidan so'z yuritadi. Demak, «g'uncha og'iz» deyilganda «yopiq og'iz» tushunilishi kerak. Ammo ikkinchi misradan

«labi xandon» iborasi oldingi misradagi «g‘uncha» so‘zi o‘z ma’nosida emas, balki ko‘chma ma’noda, ya’ni «kichik» ma’nosida ishlatilganligi ma’lum bo‘ladi. Ana shunda baytning mazmuni aniq bo‘ladi. Bundan tashqari to‘rtlikda yorning «g‘amza»yi fattoni ham eslatilgan. Demak, to‘rtlikda, bir tomondan, ma’shuqaning zohiriy qiyofasi (og‘iz, lab), ikkinchidan esa uning botiniy (g‘amzayi fatton) holati ham qisqa tarzda bo‘lsa-da, tasvirlangan. Ikkinchi to‘rtlikda qofiyani tashkil etuvchi so‘zlar (yuzlik, ko‘zlik) mavjud bo‘lib, radifdan foydalanmagan. Bu to‘rtlikda ko‘zga tashlanadigan xususiyat shundan iboratki, unda ma’shuqaning zohiriy ko‘rinishi ko‘proq qalamga olingan, jumladan: yuz, ko‘z, qosh, qad.

Shuning bilan birga bularning har biri an’anaviy tarzda o‘xshatishga ham ega: yuz-oy, ko‘z-nargis, qosh-egri, qad-tuz (tik, to‘g‘ri). Bu o‘xshatishlardan «egri» va «tuz»ning har biri ikki ma’noda ishlatilgan: egri-qayrilma hamda ko‘chma ma’noda- aldovchilik; «tuz» so‘zi ham, birinchidan, «tik» ma’nosida bo‘lsa, ikkinchidan «to‘g‘rilik, chinlik» ma’nosidadir.

2. «Zafarnoma» tarjimai. Bu asar haqida Alisher Navoyining «Majolis un-nafoyis»ida ma’lumot bor. Alisher Navoyi «Majolis»ning birinchi tahririda (1491 - melodiy yil) shunday yozgan: «Mavlono (Lutfiy)ning «Zafarnoma» tarjimasida o‘n ming baytdin («Majolis»ning 1498 - yildagi ikkinchi tahririda esa «ikki ming baytdin» – B.V.) ortuqroq masnaviysi bor, bayozg‘a yozmag‘on uchun shuhrat tutmadi». Alisher Navoyining bu ma’lumoti keyinchalik barcha olimlar tomonidan foydalanilgan. Demak, mavlono Lutfiy «Zafarnoma» nomli asarni o‘n (ba’zan ikki) ming bayt hajmida masnaviy tarzida tarjima qilgan ekan. Ammo u oqqa ko‘chirilmagani tufayli shuhrat tutmagan. Bu orada ba’zi mulohaza ham xayolga keladi, ya’ni nega Alisher Navoyi asl «Zafarnoma» muallifini eslatmagan. Axir bir nomda turli mualliflar tomonidan yozilgan asarlar ham bor-ku?!

Jumladan, ingliz sharqshunosi Ch.A. Story o‘zining «Persian literature. Abio-bibliographical survey» (Fors adabiyoti. Bio-bibliographik obzor) nomli asarida XV asrgacha va XV asrning avvalida quyidagi «Zafarnoma»larni eslatib o‘tadi:

1) Zafarnoma – muallifi Hamdulloh Mustavfi Qazviniiy (tug‘ilgan yili-679h—1280 m, vafoti –750 h—1340 m. - 760h-1364-65 m.). Mazkur Zafarnoma 735 h-1334-35 - melodiy yilda, yozib tugatilgan,

baytlar soni 75000. Asar islom tarixiga bagishlanib, uch kitob yoki qismdan (birinchi-arablar, ikkinchisi-forslar, uchinchisi-mo'g'ullar) iborat.

2) Zafarnoma — muallifi Nizomiddin Shomiy (vafoti 812 h - 1409 - melodiyl yilgacha). Asar Amir Temurning 806 h-1404 - melodiyl yilgacha bo'lgan tarixiga bag'ishlangan. Uning ikkita nusxasi mavjud bo'lib, biri Amir Temurga, ikkinchisi esa uning nabirasi Umar Mironshoh o'g'liga bag'ishlangan.

3) Zafarnoma – muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy (vafoti 858 h-1454 - melodiyl).

Yana bir mulohaza shuki, agar mavlono Lutfiyning asari turkiyl masnaviyl bo'lsa,unda nega Alisher Navoiyl musavvadadan bo'lsa-da,bir-ikki baytni namuna sifatida keltirmadi?

Ana shunday noaniqliklar tufayli «Zafarnoma» Sharafiddin Ali Yazdiy asari va mavlono Lutfiyl uni she'riyl tarjima qilgan degan fikr hozirgi kunda mavjud bo'lib, bu haqda turli xil taxminlar ham aytilgan.

Yana takroran shuni aytishga to'g'ri keladiki, mavlono Lutfiyl haqiqatan Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub «Zafarnoma»ni turkiyl tilga o'girib,masnaviyl yozgan-mi va yoki «Zafarnoma» deb atalib, Boysung'ur mirzo yoki Shohrux mirzoga bag'ishlab yozilgan, ammo hozircha bizga noma'lum bo'lgan asarni turkiylga masnaviyl shaklida o'gira boshlab,bu har ikkala shoh- Boysung'ur va Shohrux mirzolar vafotlaridan so'ng unga talabgorni ko'rmagach,oxiriga etkazmay musavvada holida qoldirmagan-mikan?! Fikrimizcha, shunday bo'lsa kerak,chunki Shohrux mirzo vafotidan so'ng toju taxt uchun kurashlar vaqtida mavlono Lutfiyning bu ishiga nisbatan e'tibor qilguvchilar bo'lmagani shoirning yuqorida eslatganimiz baytining (Lutfiyl Hiriyl qolmadi she'ringa mushtari) ma'nosiga singdirilmagan-mikan?! Agar shunday bo'lsa,unda mavlono Lutfiyning bu asari yozilayotganidan xabardor kishilar ma'lumoti el orasida tarqalib, mavlononing o'zi esa uni (nihoyasiga etmagan ishni) hech kimga, hatto Alisher Navoiylga ham ko'rsatmagan bo'lishi mumkin. Shundan bo'lsa kerakki, Alisher Navoiyl ham bu asar haqida aniq gap aytmagan va namuna tarzida undan misol keltirmagan ko'rinadi.

XIV asrning ikkinchi yarmi XV asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan Gadoiyl, Atoiyl, Sakkokiyl, Lutfiyl, Hofiz Xorazmiylar ijodining nomachi shoirilar she'riyatidan farqi shundaki, bular oshiqning ishqiy,

dardi-hasrati, orzu havaslari, intilishlari tasviriga tobora keng va jiddiy o‘rin bera boshladilar. Ya’ni, shoir o‘z yorining go‘zalligini ta’riflabgina qolmasdan, o‘zining sevgisi, orzusi, ichki hayajonlari, dardu alamlari, javobsiz sevgidan noroziligi haqida ham baland ovoz bilan gapiradi. Ko‘proq ana shu zaminda o‘zbek adabiyotida ruhiy tasvir unsurlari paydo bo‘ldi, inson obrazi borgan sari to‘laroq gavalana boshladi.

HUSAYNIY IJODI

Husayn Boyqaro ham shoh, ham shoirdir. Uning nomini tilga olganimizda darhol Alisher Navoiy esga tushadi. Darhaqiqat, ular zamon-dosh edilar. Yoshlikdan umrlarining oxirigacha hayotlari birga kechdi. Bir-birlariga hamkor, madadkor bo‘lib yashadilar. Husayn Boyqaro qudratli shoh, buyuk homiy sifatida Alisher Navoiy dahosining yuzaga chiqishiga qanday yordam bergan bo‘lsa, Navoiy ham, o‘z navbatida, Husayn Boyqaro saltanatining qudratini ta’min etishda, ovozasini olamga yoyishda shuncha xizmat qildi. Oradan yuz yil o‘tgach, mashhur ozarbayjon shoiri Fuzuliy Navoiyni ulug‘lar ekan, “Manzuri shohanshoi Xuroson” (“Xurosondagi shohlar shohiga manur bo‘la olgan shoir”) deb ta’rif etadi.

Umuman olganda, Husayn Boyqaro shaxs sifatida ham qator sifatlarga ega edi. Masalan, u mard, shijoatli bo‘lgan, qilichbozlikda temuriylar orasida unga teng keladigani bo‘lmagan. Adolatli bo‘lgan, adabiyotni, san’atni sevgan. Uning kamchiliklari ham yetarli edi. ..

Husayn Boyqaro 1438-yilda Hirotida tug‘ildi. Otasi Mansur ham, onasi Firuzabegim ham Temur avlodidan edilar. Shu sababli ham Z.M.Bobur uni “Karim ut-tarafayn” (“ikki tomonlama ulug‘”) deb ta’riflaydi.

1457-yilda Abulqosim Bobur Mirzo vafot etgach, Husayn Boyqaro taxt uchun kurashga kirishadi. Uzoq kurashlardan so‘ng u 1469-yilda temuriylar saltanatining XV asrdagi eng yirik poytaxti Hiroti egallaydi. 1506-yilgacha – vafotiga qadar mamlakatni boshqaradi.

Husayn Boyqaro davrida mamlakatda ilm-fan, adabiyot rivoj topadi. Poytaxtga iste’dodli hunarmandlar to‘planadi. Masdarasalar tartibga tushadi, juda ko‘p dunyoviy bilimlar o‘qitila boshlaydi. Davrning eng peshqadam olimlari mudarrislikka jalb qilinadi. Bu

madarasalarda ko‘plab xorijiy mamlakatlardan talabalar kelib o‘qiy boshlaydi. Obodonchilik, qurulish ishlari amalga oshiriladi. Uzoq-yaqin mamlakatlar bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yiladi. Masalan, 1490 yilda Husayn Boyqaro Moskvaga elchi yuborib, do‘stlik va inoqlik haqida shartnoma tuzadi.

Husayn Boyqaro Husayniy taxallusi bilan she‘rlar yozgan, o‘z she‘rlarini to‘plab, devon tartib bergan, “Risola” nomli kichik nasriy asar ham yaratgan. Devondagi she‘rlarning ko‘pchiligi ishq va may mavzusida. Ular xalq og‘zaki ijodiga yaiqn bo‘lgan “ramali mumusammani maqsur” vaznida yaratilgan.

Shoirning bir qator she‘rlari Navoiyga ergashib yozilgan. Masalan, Navoiyning mashhur:

Ochmag‘ay erding jamoling olam aro koshki,
Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki, -
matla‘li g‘azaliga:

Qilmag‘ay erdim yuzin ko‘rmak tamanno, koshki,
Solmag‘ay erdim ko‘ngil mulkiga g‘avg‘o, koshki,
- deb boshlanadigan javob she‘r bitgan.

“Majlois un-nafois”ning sakkizinchi majlisi Sulton Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan. Alisher Navoiy tazkirada maktabdosh do‘stini madh etarkan, uni saltanat sohibi sifatida emas, balki nazm bog‘ining bog‘boni, so‘z gulshanining sohibqironi, hakami tarzida sharaflashni o‘z oldiga bosh maqsad qilib qo‘yadi. SHuning uchun tazkira sohibi Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidan ana shu maqsadga xizmat qila oluvchi dalillar tanlab, o‘shalar sharhi bilan shug‘ullangan. Alisher Navoiyning ta‘kidicha, “ul hazratning xo‘b ash‘ori va marg‘ub abyoti bag‘oyat ko‘ptur va devon ham murattab bo‘lubtur”. “Majlois un-nafois” muallifining guvohligiga ko‘ra, mazkur devon asosini g‘azal janrida bunyod etilgan asarlar tashkil etadi. Shuningdek, uning tuzilishi ham an‘anaviy shaklda bo‘lib, to‘plamga she‘rlar arab alifbosi sirasida joylashtirilgan. Alisher Navoiy o‘sha devondan e‘tiborga arzigulik matlallarni tanlaydi, ularni ixcham, biroq mazmundor sharhlar bilan to‘ldirib, tazkiraga kiritadi. Shu ma‘noda, “Majlois un-nafois”ning sakkizinchi majlisi Husayn Boyqaro ijodiy faoliyati ustida yaxlit tasavvur paydo qila oluvchi ixcham tadqiqotni xotirga keltiradi. Tazkira muallifi nazaridan Sulton Husayn Boyqaro baytlarida qo‘llanilgan she‘riy san‘atlar ham chetda qolmaydi. Alisher Navoiy asar tabiati

ko'tara olishi mumkin darajada maktabdosh do'sti misralarining g'oyaviy mazmuni, shakl va mundariyasi muvozanatini ta'minlashdagi mahorati ustida ancha jonli, his-hayajondan xoli bo'lmagan fikrlarni o'rta tashlaydi. Masalan, "be" bilan ibtido topuvchi g'azallardan biri xususida "Majlois un-nafois"da o'qiymiz: "Bedillig'idin telba ko'nglin tilay borg'onin bu g'azalda oxirigacha musalsal aytilibdur va zebo deyilibdur:

Telbarab itgan ko'ngulni istadim har yon borib,

Tog'u daryo-yu biyobonlarni bir-bir axtarib...

Firoq zulmidan jong'a o't va ko'nglida tobin o'tqa tushgan qil pechu tobig'a tashbeh qilibdur va g'arib tashbeh voqe' bo'lubtur:

Ey firoqning zulmidin jonimda o't, ko'nglimda tob,

O'tqa tushgan qil kabi jismim aro ham pechu tob".

Ayrim tadqiqotlarda Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro she'riy merosi xususidagi mulohazalari ayrim nuqsonlardan ham xoli emasligi qayd etiladi. Masalan, R.Vohidov, H. Eshonqulovlarning universitet va pedagogika institutlarning o'zbek filologiyasi fakulteti talabalari uchun tavsiya etilgan o'quv qo'llanmasidaana shu jihatlar haqida gapiriladi. "Xususan, o'sha davr tasvir uslubi tarzida aytilgan jimjimador, mubolag'ali jumlarlar, baho me'yorining buzilish hollari, his-hayajon bilan aytilgan iboralar ham uchraydi. Ana shunday holat qator harflar bilan tugallanuvchi baytlardan oldin yoxud keyin kelgan tazkiranavis izohlarida ko'zga tashlanadi. Jumladan, "zol" harfi sarlavhasidan keyin shunday jumlani o'qiymiz: "Bu harfda dag'i muqaddam turkigo'y shuarodin, xoh Mavlono Lutfiy va xoh Mavlono Sakkokiykim Movarounnahrda malik ul-kalom erdilar, nazarg'a kelmaydur, hamono yo'qtur

Qildi ruhafzo labing kulmak bila jonimni ahz,

Yig'latib kofir ko'zung ham naqdi iymonimni ahz.

Ana shu qabilidagi ta'kidlar "ha", "he", "se", "sod", "zod" singari izohlovchi jumlalarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Fikrimizcha, bunday o'rinlarda Alisher Navoiy aqidalarida Husayn Boyqaro salohiyatini bo'rttirib ko'rsatish, uni ma'lum darajada ilohiylashtirish mayli ko'rinadi".

Ana shu nusxada Alisher Navoiy "Majlois un-nafois"ning sak-kizinci majlisida Husayn Boyqaroni nuktasanj va hofizasi o'tkir shaxs sifatida ham ko'rsatishga urinadi. Muallifning bunday harakati,

ayniqsa, o'sha majlisning ikki o'rnida yaqqol namoyon bo'ladi. Bulardan biri Mavlono Lutfiy va Alisher Navoiylar o'rtasida Amir Xusrav Dehlaviy bayti munosabati bilan bo'lgan suhbat bayonida bo'lsa, ulardan ikkinchisi tazkira muallifi va Mavlono Qabuliylarning hamkorlik munasabatlariga tegishlidir. Unda hikoya qilinishicha, Mavlono Qabuliyning "tab'i turkiy va forsiy nazmg'a muloyim" bo'lib, u Hirot shahri uchun musofir hisoblanadi. Qunduz va Hisor tomonidan kelib qolgan bu yosh yigit Sulton Husayn Boyqaro dargohiga yo'l topish uchun o'sha zamonning an'anasiga ko'ra nazmiy vositadan foydalanmoqchi bo'ladi. SHu maqsad bilan Mavlono Qabuliy bir g'azal yaratib, uni Alisher Navoiy imtihonidan o'tkazadi. Buyuk shoir g'azalning matla'idan keyingi baytini quyidagicha tuzatib beradi:

Sarv moyil bo'ldikim, uyday ayog'ing tuffrog'in,

Yo'qsa har soat sabo tahrکیدin xam bo'lmadi.

Mavlono Qabuliy saroy mulozimlari orqali mazkur g'azalni zamon hukmdoriga yetkazishga muvaffaq bo'ladi. Tortiq etilgan g'azalni ko'zdan kechirgan Sulton Husayn Boyqaro o'sha she'r ikkinchi baytining Navoiyga daxldor ekanligini his etadi va masalani oydinlashtirish muddaosida Mavlono Qabuliyini saroyga chaqirtiradi. Shuningdek, o'sha maqsadni o'zida mujassam etgan savol bilan Alisher Navoiyga ham murojaat qiladi. Xullas, o'z aqidasi qat'iy ishonch paydo qilgan shoh, Alisher Navoiy va Mavlono Qabuliylar obrusiga putur yetkazmaslikni ko'zlab masalani jamoat oldida oshkora hal etishdan saqlanadi. Shu kichkina bir lavhaning o'zidayoq Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidagi uslubshunoslik, ziyraklik va andeshaning baland ekanligini ko'rsatishga erishadi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-mavzu: Eng qadimgi yozma yodgorliklar. “Avesto”. O‘rxun-Enasoy yodgorliklari

REJA:

1.Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar:

- a) mif va afsonalar;
- b) rivoyatlar;
- v) qo‘shiq va lirik she‘rlar.

2. Eng qadimgi yozma yodgorliklar:

- a) “Avesto”- adabiy yodgorlik sifatida;
- b)“Avesto”da insonni komillik sari yetaklovchi xususiyatlar talqini;
- v) toshbitiklar va ularning o‘rganilishi;
- g) O‘rxun bitiklari;
- d) Enasoy bitiklari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Og‘zaki adabiy yodgorliklarning o‘ziga xos xususiyati nimada? Bunday yodgorliklarning turli variantlari vujudga kelish sabablarini tushuntiring.

2. Qadimgi og‘zaki yodgorliklar qaysi manbalar orqali bizgacha yetib kelgan?

3. Kayumars haqidagi afsona qaysi manbalarda o‘z aksini topgan? Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” asaridagi ushbu afsona tafsilotlari bilan N.Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobidagi ilmiy mulohazalarni bir-biriga solishtiring va farqli jihatlariga e‘tibor bering.

4. Qadimgi turkiy afsona va rivoyatlarning ko‘pchiligida ayol kishining mardligi, qahramonligi hikoya qilingan. Buning sababi nimada deb o‘ylaysiz?

5. Eron shohlariga qarshi kurashda malikalarning jasorati eng qadimgi davrlardan bizning davrimizgacha bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining yetakchi mavzusi hisoblangan. Xalq og‘zaki ijodida yaratilgan qaysi qahramonlik dostonida mavjud sujet saqlanib qolgan?

6. “Avesto”dagi *“Pokiza suv va yonib turgan olov qarshisida*

gustoxlik qilgan zotning do‘zaxda topgusi jazosi bu dunyoning jamiyki dard-u ozorlaridan mudhishdir” degan fikrlar o‘zbek millatining turmush tarzi va urf-odatlariga naqadar mos kelishini misollar yordamida asoslashga harakat qiling.

7. “Avesto”dan badiiy adabiyotga qanday ramz va timsollar o‘tgan?

8. O‘rxun-Enasoy bitiklari favqulodda yozma adabiyot emas, balki turkiy xalqlar og‘zaki ijodining mantiqiy davomi, o‘zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi va g‘oyasini rivojlantirgan yangi shakli ekanligi qaysi olimlar tomonidan asoslab berilgan?

9. O‘rxun-Enasoy bitiklaridagi yodgorliklarni adabiy janr talablariga ko‘ra qanday tasnif etish mumkin?

2-mavzu: Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devoni lug‘atit turk” asari.

REJA:

1. Mahmud Koshg‘ariyning tarjimaiy holi haqida.

2. “Devoni lug‘atit-turk” – turk-arab lug‘atining ilk namunasi sifatida.

3. Asarda keltirilgan she‘riy parchalar va hikmatli so‘zlar.

4. “Devoni lug‘atit-turk”da berilgan adabiy atamalar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mahmud Koshg‘ariy haqida ma‘lumot qaysi manbada berilgan?

2. “Devoni lug‘atit-turk” asari tuzilishi va mundarijasi haqida gapirring.

3. Asar muallifi uni “lug‘at” deb atagan. Ammo tadqiqotchilar “Devoni lug‘atit-turk”ni qomusiy asar deb baholashgan. Buning sababi nimada?

4. Asarda berilgan she‘riy parchalarni mazmuniga ko‘ra qanday tasnif qilish mumkin? Qaysi qo‘shiqlar xalq og‘zaki ijodi orqali bugungi kungacha yetib kelganligiga diqqat qiling.

5. “Devoni lug‘atit-turk” asaridagi she‘riy parchalarning vazni, qofiyalanishi, bandlar xilma-xilligi haqida ma‘lumot bering.

6. Asardan qanday adabiy atamalar haqida ma‘lumot olish mumkin?

3-mavzu: “Qutadg‘u bilig” - didaktik adabiyot namunasi sifatida

REJA:

- 1. “Qutadg‘u bilig” asari – dastlabki pandnoma asar.**
- 2. “Qutadg‘u bilig”da axloqiy-ta’limiy masalalar.**
- 3. Odob-axloq masalasining asarda birinchi o‘ringa qo‘yilishi.**
- 4. Davlat boshlig‘i e’tibor berishi kerak bo‘lgan jihatlar xususida.**
- 5. Komil inson timsoli.**

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Qutadg‘u bilig” asarining muqaddimasida asarning yozib tugatilgan yili va muallifning asar yozayotgan davrdagi yoshi haqida ma’lumot beriladi. Ma’lumotni aniqlashtirishga harakat qiling.

2. Muallifning: *“Davlat adolat va aql bilan boshqarilishi lozim”*, - degan xulosalari qaysi lavhalarda o‘z aksini topgan?

3. Asarga olim va donishmand kishilarni saroyga taklif qilish g‘oyasi singdirib yuborilgan. Sizningcha, bu g‘oya qaysi obrazlar xatti-harakatida namoyon bo‘ladi? Fikringizni misollar yordamida isbotlashga harakat qiling.

4. Muallifning olamning tuzilishi haqidagi qarashlari geosentrik nazariya asosida shakllanganligini isbotlovchi dalilllar topa olasizmi?

5. Asar qoraxoniylar hukmdori Bug‘roxonga taqdim etilishining sababi nimada? Shu haqidagi fikr-mulohazalaringizni muallifning davlat boshqaruv ishlarini tashkil etish haqidagi g‘oyalari bilan uyg‘unlikda bayon etishga harakat qiling.

6. Adib qaysi obraz orqali komil inson timsolini yaratishga harakat qilgan?

4-mavzu: Ahmad Yassaviy. Yassaviy “Hikmatlar”i

REJA :

- 1. Ahmad Yassaviy – tasavvuf vakili sifatida.**
- 2. “Devoni hikmat” ning o‘rganilishi, nusxa va nashrlari.**

3. “Devoni hikmat”ning mavzulari.
4. Hikmatlarda oyat va hadislarining badiiy talqini.
5. Hikmatlarning badiiy xususiyatlari.
5. Yassaviyning tasavvufiy qarashlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ahmad Yassaviyning tarjimini holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Yassaviyshunos olimlarning qayd etishlaricha, Yassaviy tariqati-ning o‘zidan avvalgi boshqa tariqatlardan farqlanuvchi jihati tildadir. Unda islomiy tasavvuf g‘oyalari ilk marta turkiy tilda talqin etilgan edi. Bu tariqatning yana bir o‘ziga xos tomoni borki, ushbu jihat ham uni boshqa tariqatlardan ajratib turadi. Ana shu jihat haqida nimalar deya olasiz?
3. Yassaviy arab va forschani juda yaxshi bilishiga qaramay, “hikmatlar”ni turkiy tilda yaratgan. Buning sababi nimada?
4. “Devoni hikmat”ning obrazlari haqida gapiring.
5. Hikmatlarning shakli, qofiyalanish tartibi haqida gapiring.
6. “Devoni hikmat”dan o‘rin olgan ba’zi hikmatlarda “daftari soniy” – ikkinchi daftar haqida so‘z boradi. Sizningcha, “daftari soniy”ning zamiridagi haqiqat nimada?
7. Yassaviy hikmatlarining birida: *“Mani hikmatlarim koni hadisdur, Kishi bo‘y eltmasa bilgil habisdur”*, - deydi. Yassaviy hikmatlarining asosini nimalar tashkil etadi?

5-mavzu: Pahlavon Mahmud. Shoir ruboiylari

REJA :

1. Pahlavon Mahmud ruboiylarining manbalari.
2. Shoir ruboiylarida javonmardlik g‘oyalari.
3. Ruboiylarda axloqiy-ta’limiy qarashlar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Pahlavon Mahmud ruboiylari qaysi manbalar orqali bizgacha yetib kelgan?
2. Shoir ruboiylari kimlar tomonidan tarjima qilingan?
3. Pahlavon Mahmud ruboiylarida qanday gʻoyalar tarannum qilingan?
4. Najmiddin Kubro boshlab bergan javonmardlik tariqati gʻoyalari shoir ruboiylarida qay darajada aks ettirilgan?
5. *“Oh tortgan chogʻingda yoʻlga koʻz tikkin”*, - misralari bilan boshlanuvchi ruboiyda insonga xos qanday fazilatlarga undash hissi kuchli?
6. Pahlavon Mahmudning ruboiy janri taraqqiyotiga qoʻshgan hissasi nimadan iborat?

6-mavzu: Rabgʻuziy va uning “Qisasi Rabgʻuziy” asari

REJA:

1. Rabgʻuziy haqida maʼlumot beruvchi manbalar.
2. “Qisasi Rabgʻuziy” – paygʻambarlar qissasi.
3. Qissalarning asosiy manbalari.
4. Rabgʻuziyning komil inson haqidagi fikr-qarashlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Nosiriddin Rabgʻuziy haqida maʼlumot beruvchi manbalar juda kam. Asarning muqaddimasida ijodkor haqida qanday maʼlumot berilgan?
2. “Qisasi Rabgʻuziy” asarining oʻtmishda oʻrganilishi va qoʻlyozma nusxalari haqida nimalarni bilasiz?
3. “Qisasi Rabgʻuziy”dagi qissalar asosini qanday voqealari tashkil etadi?
4. Asar qanday tarkibiy qismlardan iborat? Asarning qaysi qismlari nasrda, qaysi oʻrinlari nazmda ifoda etilgan?
5. Maʼlumki, tasavvufda inson kamoloti faqat jismoniy sifatlar bilan belgilanmasligi, aqliy-maʼnaviy belgilar birinchi mezon boʻlishi

ta'kidlanadi. Asardan joy olgan qaysi hikoyatda ana shu qarashlar ilgari surilgan?

6. "Qisasi Rabg'uziy" asarida turkiy va boshqa xalqlarning ayrim rasm-rusumlari, odatlari ham qayd etiladi. Bunga misollar topa olasizmi?

7. Asarda turkiy adabiyotdagi birinchi g'azal deb baholangan she'r ham bor. Ushbu g'azalning badiiy xususiyatlari va janr talablariga mosligi haqida gapiring.

7-mavzu: Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asari

REJA:

- 1. "Muhabbatnoma" asarining nusxalari, o'rganilishi.**
- 2. Asarning tuzilishi.**
- 3. Nomalarning asosiy mavzulari.**
- 4. Asardan joy olgan boshqa janrlar.**
- 5. "Muhabbatnoma"ning o'zbek adabiyotidagi o'rni.**

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Xorazmiy "Muhabbatnoma" asarini yaratgunga qadar qanday shoir sifatida tanilgan edi? Bu haqida asarda qanday ma'lumot berilgan?

2. Asarning qanday nusxalari mavjud?

3. Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasida Xorazmiyning "Muhabbatnoma" asaridagi *"Aningkim, ol enginda meng yaratti, Bo'yi birla sochini teng yaratti"* baytini keltirgan. Buyuk ijodkor aynan shu baytni misol sifatida keltirish sabablarini ko'rsata olasizmi?

4. Asarda ishqning hukmdorga, sevikli yorga, Ollohga muhabbat rishtalari o'zaro qanday badiiy tasviriylar bilan bog'langan?

5. "Muhabbatnoma"dagi har bir masnaviy

Saburdin yaxshi yo'qtur pasha qilsam,

Bu yo'lda sabr yo'q andesha qilsam, - baytlari bilan yakunlanadi.

Bundan shoirning badiiy niyati nimaligini ayta olasizmi?

6. Asardan shoirning badiiy mahoratini ko'rsatuvchi dalillar keltiring.

7. "Muhabbatnoma" o'zbek adabiyotining keyingi davriga qanday ta'sir ko'rsatdi?

**8-mavzu: Sayfi Saroyi ijodi. “Suhayl va Guldursun” hamda
“Gulistoni bit turkiy” asari**

REJA:

- 1. Sayfi Saroyi gʻazaliyoti: mavzu va obrazlari.**
- 2. Shoirning fors-tojik tilida yaratgan sheʼrlari.**
- 3. “Suhayl va Guldursun” asari.**
- 4. “Gulistoni bit turkiy” asari. Hikoyatlari, mavzulari.**

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Sayfi Saroyi ijodi boʻyicha yaratilgan qanday tadqiqotlarni bilasiz?
2. Sayfi Saroyi tarjimai holi haqida uning ijodiy merosida qanday maʼlumot berligan?
3. Shoir ijodiy merosi bizgacha qay holatda yetib kelgan?
4. Sayfi Saroyi gʻazaliyotining yetakchi mavzulari nimalardan iborat?
5. Shoir sheʼriyatidagi obrazlar haqida fikr yuriting.
6. Shoir yana qaysi tillarda ijodi qilgan? Uning boshqa tillarda yaratgan asarlari qay darajada bizgacha yetib kelgan?

9-mavzu: Haydar Xorazmiy va uning “Maxzan ul-asror” asari

REJA:

- 1. Haydar Xorazmiyning hayoti va ijodiy faoliyatiga doir maʼlumotlar.**
- 2. “Maxzan ul-asror” va uning oʻrganilishi.**
- 3. Nizomiy Ganjaviy va Haydar Xorazmiy.**
- 4. Mavʼiza va hikoyatlarning tarbiyaviy ahamiyati.**

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Maxzan ul-asror” kimning asari, kimning tarjimasi va bu tarjima kimga bagʻishlangan?
2. Nizomiy asari bilan tarjima asar tuzilishida qanday farqli tomonlar bor?

3. “Maxzan ul-asror” dagi hikoyatlarni o‘qib chiqing va ularning mavzularini aniqlang.

4. Ma’lumki, shoir o‘zbek mumtoz adabiyotida she’riy hikoya yaratish an’anasining ravnaq topishiga katta hissa qo‘shgan. “Maxzan ul-asror”da keltirilgan hikoyatlarda qanday masalalar yoritilgan?

5. “Bo‘z to‘quvchi kampir va bazzoz” hikoyatida bazzozning mol-mulkidan voz kechib, haq yo‘liga kirishiga kim sababchi bo‘lgan?

6. *Yarim oyoq oshki, toparsen nasib,*

Yarmini berki, yesun bir g‘arib.

Me‘da tamug‘ikim, erur dushmaning,

Qonmag‘usidir agar ichsa qoning, - misralarida qanday g‘oya ilgari surilgan?

7. Doston badiiyati haqida nimalarni qayd etish mumkin?

8. O‘zbek adabiyotida Haydar Xorazmiyning o‘ziga xos o‘rni nimalarda deb o‘ylaysiz?

10-mavzu: Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni hamda u haqidagi bahs-u munozaralar

REJA:

1. “Yusuf va Zulayho” dostoni haqidagi bahslar.

2. Dostonda ijodkor shaxsiyati.

3. Doston sujeti.

4. Dostonning obrazlar silsilasi.

5. Qahramonlarning ruhiy-psixologik talqinlari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Yusuf va Zulayho” dostoni sujetini gapirib bering.

2. Qaysi qahramon sizda ijobiy taassurot qoldirdi?

3. Doston badiiyati haqida nimalarni ayta olasiz?

4. Dostondagi obrazlar (bo‘ri, payg‘ambar, xudo, arvoh, murda) haqida gapiring.

5. Qofiya va radif qo‘llashda shoir qanday yutuqlarga erishgan?

6. Dostonda ishlatilgan badiiy tasvir vositalariga misollar keltiring.

11-mavzu: Atoyi va Sakkokiy she’riyati

REJA:

- 1. Atoyi haqida ma'lumot beruvchi tazkira asarlar.**
- 2. Atoyi adabiy merosi va uning o'rganilishi.**
- 3. Shoir g'azallarining mavzu ko'lami:**
 - a) oshiqona ohanglar;**
 - b) diniy-tasavvufiy g'oyalar;**
 - v) peyzaj xarakteridagi g'azallar.**
- 4. Shoir she'riyatidagi obrazlar xususida.**
- 5. Atoyi lirikasi badiiyati.**
- 6. Sakkokiy haqida ma'lumot beruvchi manbalar.**
- 6. Shoirning lirik merosi.**
- 7. Sakkokiy g'azallari: mavzusi, obrazlari, badiiy xususiyatlari.**
- 8. Sakkokiy qasidalari.**

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Atoyining yagona qo'lyozma devoni haqida nimalarni bilasiz?
2. Navoiyning "Majolis un-nafois" asarida Atoyi she'riyati haqida qanday fikrlar qayd etiladi?
3. Atoiy ijodi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari haqida gapiring.
4. Shoir lirik merosini mavzusiga ko'ra qanday tasnif qilish mumkin?
5. Atoyi o'z g'azallarida muhabbat mavzusini to'laqonli yoritishda qanday timsollarga murojaat qilgan?
6. Shoir she'riyatida qanday badiiy san'atlar qo'llanilgan? Fikrlaringizni misollar yordamida dalillang.
7. Navoiyning "Majolis-un-nafois" asarida Sakkokiy haqida berilgan ma'lumotni qayta o'qing. Shoirning XV asrning birinchi yarmi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida fikr yuriting.
8. Sakkokiy devonlari haqida nimalarni bilasiz?
9. Shoirning "*Ko'ngil shakar bikin og'zing ko'rib adam bo'ldi, Ayitmadim bir og'iz: Ey faqiri hech kora*", - misralarida ma'shuqaning qanday tasviri berilgan?
10. Quyidagi misralarda ma'shuqaning go'zalligini ifodalash uchun qanday vositalardan foydalanilgan?

Oydur sening olingda bu kun bir habashiy qul,

Tonsa, yuzida zohir o‘lur dog‘ nishoni.

11. Sakkokiyning qaysi tarixiy shaxslarga bag‘ishlangan qasidalari bizgacha yetib kelgan?

12. Shoirning Mirzo Ulug‘bekka bag‘ishlangan qasidasidagi quyidagi misralarni sharhlang:

Shaho, lutfingni topqoli deb duochi banda Sakkokiy

Belin joni bilan bog‘lab, bu xidmatg‘a ravon keldi.

13. Sakkokiy qasidalarini janr tuzilishiga ko‘ra *nasib*, *guzirgoh*, *madh* va *qasd*ga ajrating.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. Toshkent, 2005.
2. Abdugʻafurov A. Erk va ezgulik kuychilari. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979. – 200 bet.
3. Abdugʻafurov A. Buyuk beshlik saboqlari. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1995. - 184 bet.
4. Abdugʻafurov A. Qalb qaʼridagi qadriyatlar. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1998. - 216 bet.
5. Avesto. Toshkent. 2001.
6. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. – Toshkent, 1990.
7. Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. – Toshkent, 1991
8. Botirova Sh. Forming patriotic spirit within pedagogical education cluster // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences (EJR-RES) // 2020, Part II, Vol-8, Issue:10 ISSN 2056-5852, 200-205-page
9. Botirova Sh. Pedagogik texnologiyalar haqida mulohazalar // Innovations in pedagogy and psychology. ISSN: 2181-9513. Doi Journal 10.26.739/2181-9513. June, 2020.
10. Botirova Sh., va boshqalar. The need to educate young people with the spirit of patriotism in the context of globalization // Journal of Critical Reviews// Malazia. Vol7, Issue 12, 2020. 166-169-page. CKOIIYCK
11. Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. – Toshkent, 1996.
12. Farobiy. Sheʼr sanʼati. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979. – 68 bet.
13. Hayot vasfi. – Toshkent, 1988.
14. Hayitmetov A. Temuriylar davri oʻzbek adabiyoti. – Toshkent, 1991.
15. Haqqulov I. Sheʼriyat – ruhiy munosabat. – Toshkent, 1990.
16. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 1959. – 196 bet.
17. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2015. 326 bet.
18. Haydarov S. Durbek va uning «Yusuf va Zulayho» dostoni. – Toshkent, 1959.
19. Ibrohim Haqqul., Ergash Ochilov. Ishq va hayrat olami. – Toshkent, “Oʻzbekiston”, 2016. 304 bet.
20. Isʼhoqov Y. Navoiy poetikasi. – Toshkent, “Fan”. 1983. 170 bet.
21. Isʼhoqov Y. Soʻz sanʼati soʻzligi. – Toshkent, “Oʻzbekiston”. 2014. 320 bet.
22. Isʼhoqov Y. Naqshbandiya taʼlimoti va oʻzbek adabiyoti. Toshkent, 2002.

23. Jumayeva S. “O‘zbek mumtoz she‘riyatida raqam ramzlari va ularning ma‘no talqini”. Monografiya. – Toshkent. “Fan” nashriyoti, 2010-yil. 124 bet.
24. Jumayeva S. The place and significance the number seven in ancient faith and mytnology // “Theoritcal & Applied Science” jurnali. Qozog‘iston, 2020-yil 11-son. 582-586-betlar.
25. Jumayeva S. Maqom va hol tanosibi // O‘zbek tili va adabiyoti. 2016. 1-son. 57-60 betlar.
26. Karimov Q. Ilk badiiy doston. – Toshkent, 1976
27. Karomatov H. Qur‘on va o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1993. - 96 bet.
28. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. 1-kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. - 272 bet.
29. Komilov N. Tasavvuf: tavhid asrori. 2-kitob. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1999. - 206 bet
30. Lutfiy. Devon. Toshkent, 1965.
31. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 1976.
32. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘atit turk. II jild. – Toshkent: Fan, 1961. - 428 bet.
33. Mahmud Koshg‘ariy. Devoni lug‘atit turk. III jild. – Toshkent: Fan, 1963. - 468 bet.
34. Mumtoz adabiyoti namunalari. 1-jild. Nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboyev, N.Rahmonov. 2003.
35. Navoiyning nigohi tushgan. – Toshkent, 1986.
36. Nosirov O. O‘zbek adabiyotida g‘azal. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1979. – 134 bet.
37. Ochilov E. O‘zbek mumtoz adabiyoti va tasavvufni o‘rganish muammolari // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2003. – 2-son. – B. 57-60.
38. Orzibekov R. O‘zbek adabiyotida g‘azal va musammat. – Toshkent: Fan, 1976. – 120 bet.
39. Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. – Toshkent: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1976. – 168 bet.
40. Ochilov E. Ruboiy tarjimasida shakl va mazmun birligi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1994. – 134 bet.
41. O‘zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. – Toshkent, 1978.
42. Qadimiy hikmatlar. – Toshkent, 1987
43. Qayumov A. Qadimiyat obidalar. – Toshkent, 1972
44. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjimasi. (Abdulaziz Mansur tarjimasi). – Toshkent: Islom universiteti, 2001. – 619 bet.
45. Rafiddinov S. Majoz va haqiqat. – Toshkent, 1996.

46. Rahmonov N. Kultegin yodnomasining poetikasi // O‘lmas obidalar. – Toshkent: Fan, 1989. – 143-228 betlar (444 bet).
47. Rahmonov N. O‘zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari. Monografiya. – Toshkent, “Mumtoz so‘z”. 2016.
48. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, “Sano-standart”. 2018.
49. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 214 bet.
50. Sarimsoqov B. Badiiylilik asoslari va mezonlari. – Toshkent, 2004. – 128 bet.
51. Sirojiddinov Sh. O‘zbek mumoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari. Toshkent, Yangi asr avlodi. 2011.
52. Sodiqov M. Qadimgi podsholikdan qolgan yodgorlik. – Toshkent, 1994
53. Shayxzoda Otoy. Devon. – Toshkent, 2004.
54. To‘qliyev B. «Qutadg‘u bilig»ning poetikasi masalalari // O‘lmas obidalar. – Toshkent: Fan, 1989. – 307-441-betlar.
55. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent, 1999.
56. Uch bulbul gulshani. – Toshkent, 1986.
57. Valixo‘jayev B. Malikul kalom Mavlono Lutfiy. Samarqand, 1999.
58. Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2006.
59. Xoja Ahmad Yassaviy. Hayoti, ijodi, an‘analari. – Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2001. – 336 bet.
60. Xoja Ahmad Yassaviy. Umrining yeldek o‘taro. – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti. 2020. 400 bet.
61. Xo‘janova G. “Hibat ul- haqoyiq” haqiqatlari. Toshkent, 2001.
62. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilik. – Toshkent, 1991
63. [www.http//Literature.uz](http://Literature.uz)
64. [www.http//Google.O‘zbekadabiyoti..uz](http://Google.O'zbekadabiyoti..uz)

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Mumtoz adabiyot genezisi, shakllanishi va taraqqiyoti	5
Mumtoz adabiyotning diniy-tasavvufiy va ilmiy manbalari.....	7
Mumtoz she'riyat va unga xos bo'lgan xususiyatlar	17
Mumtoz adabiyotda badiiy uslub tushunchasi.....	31
Islomgacha bo'lgan davr adabiyoti.....	37
O'rxun yozuvidagi yodgorliklar.....	38
Yozma yodgorliklar. Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlar	44
G'aznaviylar va qoraxoniylar davri adabiyotining asosiy xususiyatlari.....	49
Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi. Devoni hikmat.....	52
Sayfi Saroyi ijodi. "Gulistoni bit-turkiy" asari.....	58
Agiografik asarlar – badiiy adabiyot namunasi sifatida	63
O'zbek adabiyotida noma janri.....	65
Temuriylar davri o'zbek adabiyoti.....	70
Durbek. "Yusuf va Zulayho" dostoni	75
Atoyi ijodi.....	78
Sakkokiy: hayoti va ijodi, she'riyati, qasidalari, badiiy mahorati	83
Lutfiy ijodi. Shoir she'riyati.....	87
Husayniy ijodi.....	94
Amaliy mashg'ulotlar	98
Foydalanilgan adabiyotlar:	108

**Djumayeva Sofiya Kadirovna,
Botirova Shaxlo Isamiddinovna**

O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: T. Raxmatullayev
Musahhih: N. Ismatova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 29.06.2021 y.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturası. Hisob-nashr tabog‘i. 5,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 30.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.